

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**5141600 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish yo'nalishi talabalari uchun**

**“O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi”
talaba tanlov
fanidan ma'ruza**

M A T N L A R I

Qo'qon - 2010

Talaba tanlovi fanidan tayyorlangan ushbu ma'ruza matnlari 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi 1-kurs talabalariga mo'ljallangan.

Mazkur ma'ruza matnlari QDPI boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining 2010- yil 23-avgustdagi №1 yig'ilishida muxokama etilgan.

Tuzuvchi:

A.To'raxo'jaeva

Taqrizchi:

Z.Isaqov

1-mavzu: Talaba tanlovi fanining maqsad va vazifalari

Tayanch tushunchalar: *fanning ob'ekti, maqsadi, vazifalari, grafika, grafik vositalar, yozuv, orfografiya, imlo me'yorlari, orfoepiya, fonetika, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya.*

R E J A

1. *Talaba tanlovi fani, uning o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.*
2. *Yozuvning tarixiy ahamiyati. Grafika.*
3. *Orfografiya haqida umumiy ma'lumot.*
4. *Orfografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.*

Ushbu tanlov fanning o'rganish ob'ekti sifatida tilshunoslikning orfografiya va punktuatsiyasi bo'limlari belgilab olindi. Bundan asosiy maqsad talabalarning imviy malakalarini mustahkamlash, savodxonligini oshirish, yozma nutq saviyasini yanada boyitishdan iboratdir. Chunki har bir yuksak madaniyatli kishi to'g'ri yoza bilishi va to'g'ri so'zlay olishi kerak. Bu talab bo'lg'usi pedagoglar va filologlarga nisbatan ayniqsa qat'iy qo'yiladi. Zero ular yosh avlodga umumiy savodxonlik va nutq madaniyati to'g'risida saboq beradilar, ularni savodxonlikka va chechanlikka o'rgatadilar. Qolaversa, imloviy savodxonlik ma'naviy yetuklikning belgisi sifatida ko'p asrlar ilgari e'tirof etilgan. Xususan, Sharq xalqlarida chiroyli xat bituvchi, savodxon kishilar – hattot nomi bilan alohida hurmat va ehtiromga loyiq deb topilganlar.

O'zbek ma'rifatparvar shoiri Furqatning quyidagi baytida ham yuqorida keltirilgan fikrlar o'zining yorqin ifodasini topgan:

*Mening maktab aro bo'lur murodim,
Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim.*

Muxtasar qilib aytganda, ushbu o'quv kursining maqsadi hozirgi kunda ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan imlo masalasi bo'lib, talabalarning savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgandir.

“O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi” tanlov fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Orfografiyaning tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasida hamda jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini belgilash;
2. O'zbek orfografiyasining tarixiy taraqqiyoti bilan tanishtirish;
3. Talabalarning o'zbek orfografiyasining imlo tamoyillari va asosiy imlo qoidalariga oid bilim va ko'nikmalarini sistemalashtirish, amaliy jihatdan mustahkamlash;
4. To'g'ri yozish bilan bog'liq ayrim (xususiy) imlo qoidalari haqidagi bilimlarni kengaytirish;
5. Punktuatsiyasining mustaqil soha sifatidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash;
6. O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti bilan tanishtirish;

7. Talabalarining tinish belgilariga oid umumnazariy bilimlarini yanada boyitish;
8. Tinish belgilarining qo'llanish o'rinlari xususidagi bilim va ko'nikmalarni mustaxkamlash;

Orfografiya xususida fikr yuritilganda albatta yozuvning ahamiyati masalasiga e'tibor qaratish talab etiladi.

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko'tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrlarga qoldirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan bog'liq. Demak, yozuv jamiyatning buyuk madaniy kashfiyotlaridan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta o'rni va o'ziga xos ahamiyati bor.

Grafika yunoncha so'z bo'lib, yozuv degan ma'noni anglatadi. U biror tilning yozuv tizimini aks ettiradi. Grafika harfiy yoki noharfiy vositalar orqali ifodalanadigan shartli belgilarning muayyan sistemasidir. O'zbek tilining grafik tizimi hozirgi vaqtda quyidagi belgilardan iborat bo'lib, yozma nutqni to'g'ri shakllantirishda ulardan keng foydalaniladi: harflar, tinish belgilari, arab va rim raqamlari, orfografik belgilar – chiziqcha (ba'zan chiziqcha –inchi affiksi o'rnida qo'llanib, morfemani ham ifodalaydi), tutuq belgisi, xatboshi; ramziy belgilar (+, √, >) va maxsus belgilardan iborat. Albatta har qanday yozuv sistemasining asosiy grafik vositalari harflar va tinish belgilari hisoblanadi. Shuning uchun grafika xususida gap ketganda alifbo masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Chunki alifbo va imlo o'zaro bog'liq bo'lib, alifboning o'zgarishi imloning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Alifbo tuzishning etakchi tamoyillari quyidagilardir:

1) alifbodagi har bir harf tovush ko'rsatishi kerak; 2) har bir tovushning o'z harfi bo'lishi kerak; 3) alifboda tilda yo'q tovush uchun harf bo'lmasligi kerak. Lekin dunyodagi hech bir alifboda bu tamoyillarga to'liq amal qilinmagan. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosida ham ng, ch - harfiy birikmalari bir tovushni ifodalasa, j (jurnal, jo'ja kabi) harfi, o (ota, boks) harflari ikki tovushni ifodalaydi.

Odatda, har bir tovush yozuvi kelib chiqishi jihatidan fonetik xususiyatga ega bo'ladi. Tilning tarixiy rivojlanishi natijasida so'zlarning talaffuzi ham o'zgarib boradi. Ammo so'zlarning yozilishi esa so'zlashuv nutqiga nisbatan turg'unroq bo'lib, ko'pincha ilgari holicha qoladi. Nutqning og'zaki va yozma shakllari orasida yuzaga kelgan bu noo'xshashlik, uzilish ongli ravishda tugatiladi, yoki tilda saqlanib, mustahkamlanib qoladi. Keyingi holatda tovush bilan harfning o'zaro munosabatida boshqacha yangi qonuniyatlar yuzaga keladi. Demak, yozuv orqali o'zaro aloqa qilishda faqat grafikaning o'zi kifoya qilmaydi. Faqat grafik belgilardan foydalanish orqali yozuvda asosan so'zning tovush tomonini ifodalash mumkin. Masalan: tomosha so'zi tomosha, tomasha, tamosho kabi turlicha aytilishi va yozilishi mumkin. Bulardan qaysi biri to'g'ri ekanligini aniqlash uchun bu o'rinda orfografik me'yorlar talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, orfografiya to'g'ri yozish me'yorlarini belgilovchi imlo qoidalaridan iboratdir. Hozirgi o'zbek orfografiyasining tarkibini 1995 yilda qabul qilingan «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» va ayrim (xususiy) imlo me'yorlari tashkil etadi.

Orfografiya tilshunoslikning quyidagi sohalari bilan chambarchas bog'liqdir. Grafika ham orfografiya ham yozuv bilan bog'liq bo'lsada, ular mazmunan farqlanadi. Masalan: maktab so'zidagi harflarning to'g'ri yozilishini (balandligi, kengligi, ulanishi, satrda joylashishi kabi jixatlarini) grafika aniqlasa, so'z oxiridagi "b" undoshining og'zaki nutqda jarangsizlanishi "p" tarzida aytilsada, "b" deb yozilishini (maktab – maktab kabi) imlo me'yorlari belgilaydi.

Orfografiyaning orfoepiya bilan bog'liqligini imlo qoidalarining ko'pchiligini talaffuzga nisbatan belgilanishida ko'rish mumkin.

Orfografining fonetika bilan aloqasi tovush o'zgarishi hodisalari oroqali aks etadi: burun – burnim, o'g'il – o'g'lim (sinkopa hodisasi).

Orfografiyaning morfemika, so'z yasalihi, morfologiya kabilari bilan aloqasini asos va qo'shimchalarga, qo'shma so'zlarga oid imlo qoidalarida ko'rish mumkin.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Talaba tanlov fanining maqsad va vazifalari nimalaradn iborat?*
2. *Jamiyat xayotida yozuvning tarixiy ahamiyati qanday?*
3. *Grafika nimani o'rganadi?*
4. *Hozirgi o'zbek grafikasi qanday belgilarni o'z ichiga oladi?*
5. *Orfografiya nimani o'rganida?*
6. *Orfografiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi?*

A D A B I Y O T L A R :

1. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.*
2. *Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, 1999.*
3. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005.*
4. *Jamolxonov H. Grafika va orfografiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 1999*
5. *SHoabduraxmonov SH va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.*

2-mavzu: O'zbek orfografiyasining tarixiy taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: *chig'atoy gurunigi, yangi turk alifbosi, markaziy qumitasi, o'zbekiston yangi alifbe markaziy qo'mitasi, alifbo, orfografiya.*

R E J A

1. *Arab garfikasiga asoslangan yillardagi islohotlar.*
2. *Lotin grafikasiga asoslagan davrdagi imlo masalalari.*
3. *Rus grafikasiga asoslagan yozuvning imlo masalalari.*
4. *Ikki yozuvlikka asoslagan yillar*

O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirishga oid manbalarda hozirgi o'zbek adabiy tili XIX-XX asrlarda yoki XX asrning 20-30 yillarida shakllangan degan qarashlar mavjud. Demak, uning yozuv tizimlarini ham XX asr boshidan to hozirga qadar bo'lgan va bo'layotgan jarayonlar bilan bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida o'zbek orfografiyasining tarixiy rivojlanish jarayonlarini belgilaydi.

O'zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boyligi bilan harakterlanadi: bu davrda o'zbek yozuvi bir necha marta tub isloh qilindi — bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko'chirildi. Jahon xalqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kamdan kam uchraydi.

Mavjud manbalar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek yozuvining XX asr tarixi to'rt davrni o'z ichiga oladi:

1-davr — arab grafikasiga asoslangan yillar (1900—1929).

2-davr — lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929—1940).

3-davr — rus grafikasiga asoslangan yillar (1940—1995).

4-davr — ikki yozuvlilikka (rus va lotin grafikalaridagi yozuvlarga) asoslangan yillar (1995-2010)

Arab alifbosi bizda VIII asrning 20-yillaridan XX asrning 20-yillarigacha qo'llangan. "Milliy uyg'onish" davrida arab imlosi va alifbosiga ayrim islohlarni kiritish boshlangan. Ilg'or o'zbek ziyolilari 1905-1907 yillardan (matbuot va so'z erkinligiga erishilgandan so'ng) ayrim arabcha harflarning shakliga, ba'zi imlo qoidalariga isloh kiritish to'g'risida matbuotda yoza boshlaganlar. Ammo bu masalaga Turkistonni boshqargan davlat amaldorlari salbiy munosabatda bo'lib, O'lkada davlat tili rus tili, mahalliy tillar, ularning yozuvi, imlosi bilan shug'ullanish davlatning vazifasi hisoblanmaydi" deb salbiy munosabatda bo'lganlar. O'zbekcha matbuot va muallimlik bilan shug'ullangan mahalliy ziyolilar esa turli tazyiqlarga bardosh berib, imlo va ona tili darsliklari yaratish yuzasidan o'zlari tashabbus ko'rsatib ish olib borganlar, „Turkcha qoida“, „Imlo“ singari o'quv qo'llanmalarini nashr qildirganlar, matbuotda maqolalar bilan chiqqanlar. Demak, yuqoridagi sababalarga ko'ra birinchi davrning 1916 yilgacha bo'lgan bosqichida yozuvni isloh qilishga qaratilgan jiddiy harakatlar kuzatilmaydi. Bu bosqichda asosiy e'tibor savod chiqarish, o'qish va o'rgatish ishlarni tashkil etish masalalariga qaratilgan va shu maqsadda qator o'quv – uslubiy kitoblar yaratilgan. «Ustodi avval» (Saidrasul Saidazizov. 1902), «Birinchi muallim» (Abdulla Avloniy, 1911), «Ikkinchi muallim» (Abdulla Avloniy, 1912), «Turkcha qoida» (M.M. Faxriddinov, 1913), «Rahbarisoni» (Abdullaxo'ja Saidmuhammad-xo'jayev, 1916) kabi qo'llanmalar shular jumlasidandir.

1917 yil oktyabr to'ntarishidan so'ng mahalliy tillar, ularning alifbosi va imlosiga rasmiy ravishda e'tibor berila boshlangan. Ayniqsa, 1919 yil 26 dekabrda Rossiya Respublikasida savodsizlikni tugatish to'g'risida Dekret chiqqanidan so'ng Qo'shma Rossiya Sho'rolarining Turkiston Muxtor Jumhuriyatida ham alifbo va imlo masalalarini tezroq hal qilish o'rta qo'yilgan, chunki imlo va harflar shakli masalalarini hal qilmay turib, ko'pchilik xalqni savodxon qilib bo'lmas edi.

1918-yilda Toshkentda til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi to'garak-seminar – «Chig'atoy g'urungi» jamiyati tashkil topadi. Unga Fitrat va

Qayum Ramazonov boshchilik qilishadi. 1919-1920 yillarda bu jamiyat a'zolari alifboni isloh qilish bilan bog'liq "Bitim yo'llari" kitobchasini yaratadi.

Turkiston jumhuriyati Xalq Maorif Komissarligi o'zbek maorifchilarining 1918 yil avgustda bo'lib o'tgan birinchi qurultoyida arabcha harflarni isloh qilish yuzasidan quyidagi qarorga kelingan: harflarning ikki xil shaklda, ya'ni alohida yozilish shakli hamda so'z boshida yozilish shakligina bo'lishi lozim.

1921 yilgi til va imlo qurultoyi. Turkiston Xalq Maorif Komissarligining tashabbusi bilan (komissar Shohid Ahmadiev) 1921 yilning yanvar oyi boshida Toshkentda uzbek tili va imlosi yuzasidan Turkiston Muxtor Jumhuriyati qurultoyi o'tkaziladi. Bu anjumanda harf va imlo masalasi yuzasidan ma'ruza qilgan Fitrat o'z so'zini: „Maorifimizni eski imlo va yozuv bilan kengaytmak mumkin emas. Maorifni kengaytmak va savodsizlikni bitirmak uchun imlomizni isloh etmak lozimdir“, — degan chaqiriq bilan yakunlagan. Fitrat o'z ma'ruzasida arab alifbosining o'zbek tili xususiyatlariga mos emasligini, unda unli tovushlarni ifodalash uchun belgilar etishmasligini har bir harfning to'rt shakli borligini, bunday nomukammallikdan qutilish uchun esa uni isloh qilish zarurligini aytadi.

Mazkur masala yuzasidan qo'shimcha ma'ruza qilgan Botu-Maxmud Xodiev arab alifbosini isloh qilish bilan kifoyalanmay uni lotin grafikasi asosidagi yangi alifbo bilan almashtirish masalasini o'rta qo'yadi.

1921 yil yanvargacha „Yangi imlochilar“ bilan („CHig'atoy gurungi“ qatnashchilari) „Eski imlochilar“ (M.Abdurashidxonov boshchiligida), „O'rta imlochilar“ o'rtasida ilmiy baxs-kurash bo'lgan edi, 1921 yilgi qurultoydan so'ng „Lotinchilar“, ya'ni lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini yaratuvchilar (Mahmud Hodiev-Botu rahbarligida) paydo bo'ldilar, bular ham kurashga qo'shildilar.

Turkiston Respublikasi Xalq maorif komissari Sultonbek Xo'janov Ozarbayjon turk yangi alifbo qo'mitasidan 1922 yilning 5 dekabrda xat oladi. Bu xatda Ozarbayjon Markaziy Ijroiya Qo'mitasida (AzSIK) „Turk yangi alifbo qo'mitasi“ ishlab turganligi, Qo'mitaning maqsadi amaldagi arab alifbosini lotin alifbosi bilan almashtirish g'oyasini ommalashtirish va bu ishni turkiy xalqlar hayotiga joriy qilish ekanligini bildiradi. Bu xat Turkiston Maorif Komissarligi qoshidagi Davlat ilmiy kengashi (GUS) raisi Xalil Do'stmuhamedovga yo'llanadi, rais, hozircha bu ishga zaruriyat yo'q, mazmunidagi javob xatini hozirlaydi.

1923 yil 3–9 oktyabrda O'rta Osiyo o'zbeklari yozuvi va imlosini isloh qilish yuzasidan Buxoro shahrida alifbo-imlo konferensiyasi o'tadi. Unda 1922 yildagi qaror asosida isloh qilingan yangi arab alifbosi qabul qilinadi. Alifboga unlilar uchun 6 belgi kiritiladi. **Konferensiyada yangi alifbo bilan birga birinchi imlo qoidalari ham qabul qilinadi.**

1925 yil 29-31 noyabr kunlari Samarqandda til mutaxassislari va o'zbekshunoslarning kengashi o'tkaziladi. Bu kengashda imlo va alifbo to'g'risida quyidagi qaror qabul qilingan. „Bugun ishlatilmoqda bo'lgan imlomizning yetishmasliklariga qaramasdan aytish mumkinki, ko'p imlolardan mukammaldir. Bu imlo etishmasliklarini bir imlo kengashi yig'ish bilan to'ldirish mumkindir. SHuning uchun-da boshqadan bir lotin harf va imlosi masalasi ko'tarish ortiqchadir“.

1926 yilning 26 fevralidan Bokuda sobiq Ittifoqdagi turkshunoslarning birinchi qurultoyi ish boshlagan. Bu qurultoyga 150 mutaxassis ishtirok etgan.

Boku qurultoyida bir necha ilmiy masalalar qatorida harf va imlo masalasiga keng o'rin berilgan. Bu qurultoyda sho'rolar hududidagi turkiy xalqlar o'z yozuvlari uchun lotin alifbosini asos qilib olishlari to'g'risida tavsiya qabul qilingan.

O'zbekistonda Boku qurultoyidan keyin yangi alifboga o'tish yuzasidan qizg'in ish boshlangan. O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1926 yil iyun oyida o'tgan IV sessiyasida uzbek imlosini lotinlashtirish masalasi ko'rib, texnik jihatdan ko'p qulay bo'lgan lotin harflarini o'zbekchaga qabul qilish bilan uzbek xalqining milliy va madaniy jihatdan yuksalishini e'tiborga oldi va lotin harflari asosidagi yangi alifboni qabul qilishni lozim topgan. Shundan so'ng Markaziy Ijroqum huzurida "Yangi o'zbek alifbo qo'mitasi" tuziladi va bu qo'mitaga Y.Oxunboboev (rais) boshchiligidagi 43 nafar kishi a'zo etiladi.

Keng jamoatchilikning fikri alifbo masalasiga jalb qilinadi. Lotin yozuvi asosidagi yangi uzbek alifbosi loyihasi bir necha marta qayta tuziladi va muhokama qilinadi.

1926 yil 19-21 mayda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining birinchi turi Samarqandda ilmiy anjumanda mutaxassislar bilan muhokama qilinadi. Bu anjumanda uzbek tiliga birinchi marta moslab tuzilgan lotin yozuvi asosidagi uzbek alifbosida yo'g'onlik va ingichkalik hamda uzun va qisqalik hisobga olinib, unli tovushlarni ifodalash uchun 12 belgi (harf) olinishi tavsiya qilingan edi.

1926 yil 27-29 avgustda Yangi o'zbek alifbo qo'mitasi va Ilmiy Markaz til mutaxassislarining ishtirokida alifbo konferensiyasini chaqiradi. Bu konferensiyada may oyida ma'qullangan alifbo loyihasi bekor qilinib, yangi tuzilgan alifbo muhokama qilinadi. Bu alifboda unlilar to'qqizta, un-doshlar 23 ta harf bilan ifodalanishiga qaror qilinadi. Muhokama qilingan alifbo loyihasi ma'qullanadi.

Bu kengashda alifboga ayrim tuzatishlar kiritish va imlo qoidalari tuzish topshirilgan. Bu ishlar sentabr oyida o'tgan yig'ilishda hal qilingan. SHu bilan tarixda birinchi marta lotin yozuviga asoslangan uzbek alifbosini tuzish masalasi asosan hal qilingan. **SHu yili o'z davri saviyasida „Imlo qoidalari“ ham hozirlangan.**

1928 yil yanvarda Toshkent shahrida sobiq Butunittifoq YAngi alifbo Markaziy Qo'mitasining II plenumi bo'ladi. Bu plenumda yangi alifboga o'tish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar beriladi. Samad Og'amali o'g'li: „Uzbek yangi alifbosi o'zbek torixig'a yangi yo'l ochg'uvsidir“, - deydi.

1928 yil 11 martda O'zbekiston Yangi alifbo markaziy qo'mitasining 1-plenumi bo'ladi. Bunda yangi alifboni hayotga to'la joriy qilish rejasi ko'rib chiqiladi va lotinlashtirilgan yangi o'zbek alifbosi Davlat alifbosi deb e'lon qilinadi. SHu yil dekabr oyida 2-plenum o'tadi, bunda yangi alifboga o'tishni tugallash 2 yilga (1932 yildan 1930 yilga) qisqartiriladi.

Maktablarda yangi alifboga o'tish 1927-1928 o'quv yilidan boshlanib, 1929-1930 o'quv yilida tugallangan. Davlat idoralarida esa 1928-1930 yillarda o'tilgan. Lotin alifbosini hayotga joriy qilish jarayonida unga ayrim to'ldirish va tuzatishlar kiritib borilgan.

Ikkinchi davr lotinlashtirilgan o'zbek yozuviga to'la o'tish bilan boshlanadi.

1929-yilning 15-23 mayda Samarqandda Respublika til-imlo konferensiyasi bo'lib o'tadi. Unda asosan 3 ta masala-adabiy til, istiloh (termin) va imlo masalalari ko'riladi. Bu konferensiyada adabiy til me'yorlarini belgilashda singarmonizmli

qishloq shevalarining xususiyatlarini hisobga olish lozimligi haqida takliflar bo'ladi, shu asosda alifboda ham unilarni ifodalovchi 9 harfning bo'lishi ma'qullanadi; alifboga bosh harflar qo'shiladi va harflar tartibi belgilanadi.

1929- yilning 10-avgustida O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig'ilishi bo'lib, unda may oyida bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalarini tasdiqlanadi". «Qoidalar» 29 moddadan iborat bo'lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko'proq o'rin beriladi. Yozuvning ayni shu jihati jamoatchilikda e'tiroz tug'diradi, bu e'tiroz 1933-yilda o'zbek orfografiyasi qoidalarining yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.

1934-yilning yanvar oyida Toshkentda o'zbek orfografiyasining yangi loyihasi muhokamalarini yakunlash maqsadida birinchi Respublika Qurultoyi o'tkaziladi, unda alifbodan 3 ta harf (ø, y, b) chiqariladi, natijada «o» - «ø», «u» - «y», «i» - «b» juftliklari o'rnida «o», «u» va «i» harflarining o'zini qo'llash qoidalashtiriladi, biroq bu bilan alifbo va imlodagi qiyinchiliklarga to'la barham berilmaydi.

1938-yilning 9-dekabrida lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi va imlosining yuqoridagi ishchi guruh tomonidan tayyorlangan yangi loyihasi muhokama uchun matbuotda e'lon qilinadi.

Loyihada bevosita imlo bilan bog'liq o'zgarishlar ham borligi ma'lum boladi, ya'ni -gan, -gach va -gunca kabi qo'shimchalarning ingichka va yo'g'on variantlaridan faqat bittasi imlo uchun standart sifatida belgilanadi.

1938-yilning 12-dekabrida yuqoridagi loyiha A.S.Pushkin nomli Til-adabiyot va tarix instituti ilmiy kengashida muhokama qilinadi, ammo bu muhokama paytida yozuvni rus grafikasiga ko'chirish kerakligi haqida ham takliflar bo'ladi: bunga mamlakatda rus grafikasiga o'tish jarayoni ommaviy tus olganligi asos qilib ko'rsatiladi. Darhaqiqat, 1936—38- yillar orasida 30 ga yaqin xalqning yozuvlari rus grafikasi tizimiga ko'chirib bolingan.

1939 yilning 18-noyabrda matbuotda “Rus grafikasi asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbesi” ning proekti muhokama uchun e'lon qilinadi.

1940 yilning 26-28 martida Toshkentda yangi o'zbek alfaviti va orfografiyasi masalalariga bag'ishlangan Respublika ilmiy kengashi bo'lib o'tadi.

Uchinchi davr 1940-yilning 5-8-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1-chaqiriq III sessiyasi bo'lib o'tadi. Sessiya o'zining 8-maydagi yig'ilishida rus grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosining 35 harfdan iborat loyihasini tasdiqlaydi.

Oliy Kengash yangi alifbega ko'chish ishlarining hammasini ikki yil ichida o'tkazish, bu ishni 1942-yilning 1-yanvarigacha tugallash majburiyatini yuklaydi.

1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi yig'ilishida «O'zbek adabiy tilining orfografiyasi» (loyiha) ham ba'zi o'zgarish va tuzatishlar bilan tasdiqlandi. Shunday qilib, o'zbek yozuvi tarixining yangi bosqichi-rus grafikasiga asoslangan davri boshlanadi.

1940-1941-o'quv yilida maktablarning quyi sinflarida o'quv jarayoni yangi yozuvga ko'chiriladi.

1941-1942-o'quv yilida maktablarning yuqori sinflarida ham o'quv jarayoni yangi (kirillcha o'zbek) yozuvga ko'chiriladi.

1946 yilda orfografiya qoidalarining yangi to'plami yaratiladi, imlo lug'ati va qiyin so'zlar lug'atini tuzishga kirishiladi.

1953-1955 yillarda matbuotda bildirilgan tanqidiy fikrlar va takliflar asosida «O'zbek orfografiyasi asosiy qoidalarini»ning bir necha yangi loyihalari yaratiladi, ulardan so'ngisi O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumiga topshiriladi.

1956-yilning 4-aprelida «O'zbek orfografiyasi asosiy qoidalarini»ning (qayta ishlangan va takomillashtirilgan varianti) O'zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik e'lon qilganidan so'ng (1991 yil 31 avgust) lotin yozuvi asosidagi uzbek alifbosi ma'salasi o'rta qo'yildi.

Rasmiy yozuvda qaysi alifbodan foydalanish bo'yicha erkin fikr bildirish gazeta va jurnallarda, turli yig'inlarda bir yarim yil davom etdi. Muhokamada ishchidan tortib akademikkacha, dehqondan tortib adibgacha-hamma, hamma o'z fikr-mulohazasini erkin bildirdi.

Bu masala O'zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida ham muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan uzbek alifbosini tuzish yuzasidan guruh tuzildi.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1993 yilda o'tgan 12-chaqiriq 12-sessiyasida noib P.Qodirovning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish yuzasidan olib borilayotgan ishlar to'g'risidagi axboroti tinglandi.

SHu yil 16 avgustda Toshkent shahrida uzbek yozuvi istiqboliga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo'ldi. Bunda P.Qodirov, A.Hojiev, I.Qo'chqorto'ev, N.Mahmudovning ma'ruzalari tinglandi, ma'ruzalar yuzasidan O.Yoqubov, Jamol Kamol, Abdulla Oripov, Sobir Kamolov (Qoraqalpog'iston), Izzat Sultonov, H.Ne'matov, Y.Abdullaev, S.Otamirzaeva va boshqalarning fikr-mulohazalari eshitildi. Konferensiya yakunida lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi asosan ma'qullanib, 4 moddadan iborat qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 2-3 sentyabrdagi 12-chaqiriq 13-sessiyasida yangi alifbo masalasi muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida qonun qabul qilindi.

„Lotin yozuviga asoslangan uzbek alifbosini joriy etish to'grisida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi qarori matbuotda berildi.

Mazkur qarorga binoan, yangi uzbek alifbosini joriy etish bo'yicha respublika davlat komissiyasi tashkil qilindi; yangi alifbo asosidagi uzbek tilining asosiy imlo qoidalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzildi va 1993 yilning dekabr oyidan ish boshladi.

„O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini" ni hozirlash jarayonida alifbodagi ayrim harflarning shakli yuzasidan fikr-mulohazalar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, yozuv jarayonida texnika vositalaridan kengroq foydalanish, harflar shaklini jahondagi taraqqiy qilgan davlatlar alifbolariga yaqinlashtirish muammolari ham o'rta qo'yildi.

Bu muhim masalalarga ijobiy yondashish uchun alifbodagi ayrim harflarning shaklini isloh qilish zarur bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida (1995 yil 6 may) mazkur masalalar yuzasidan axborot eshitildi, Qonun chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

„Lotin yozuviga asoslangan uzbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Oliy Kengash qaroriga o'zgartishlar kiritish to'grisida qaror qabul qildi.

Bu xujjatlarda uzbek alifbosi 26 harf, 3 ta harflar birikmasidan iborat ekanligi, s, j harflari mustaqil harf belgisi sifatida 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan alifbodan chiqarilganligi, ayrim harflarning shakliga isloh kiritilganligi ko'rsatilgan; u mumiy ta'lim maktablarida yangi alifbo asosida ishlash 1995 yil sentyabrdan emas, 1996 yil sentyabrdan 1-sinflarda boshlanishi, yangi alifboga to'liq o'tilishi 2005 yilda tugallanishi qayd qilingan.

O'zbek tilidagi 3 xil nutq tovushi (sh, ch, ng) harflar birikmasi bilan quyidagicha ifodalanadi:

- sh harf birikmasi sholi, o'qish kabi so'zlarda sh tovushi;

-ch harf birikmasi cho'l, ishonch kabi so'zlarda ch tovushini;

ng harf birikmasi ong, tenglik kabi so'zlardagi til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi. Bu tovush amaldagi alifboda 1940 yil 8 mayda harf birikmasi - ng bilan ifodalanishi qabul qilingan edi.

Demak, harf birikmasi bilan ifodalangan nutq tovushlari uzbek tilida ikki harfni yonma-yon keltirish bilan ko'rsatiladi.

„O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" loyihasining birinchi turi respublika ziyolilarining Toshkentda 1994 yil 16 apreldagi yiginida muhokama qilindi. (Lotin yozuviga asoslangan uzbek alifbosini joriy etish bo'yicha respublika davlat komissiyasining raisi o'rinbosari, O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri J.G'.Yo'ldoshev raisligida o'tdi.)

Imlo qoidalari matbuotda berilgan hamda turli yig'inlarda bayon qilingan fikr-mulohazalarni e'tiborga olib, ishchi guruh uni qayta ko'rib chiqdi. Loyihaning uchinchi turi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tilshunoslik institutida, Toshkent Davlat universitetida, Toshkent Davlat Nizomiy nomidagi pedagogika institutida, Respublika o'quv-metodika markazida muhokama qilinib, asosan ma'qullandi, ayrim mulohazalar bildirildi. „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" Respublika davlat komissiyasiga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995 yil 24 avgustdagi 339-son qarori bilan „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" ni tasdiqladi.

Asosiy qoidalar „Harflar imlosi", „Asos va qo'shimchalar imlosi", „Qo'shib yozish", „Ajrati yozish", „Chiziqcha bilan yozish", „Bosh harflar imlosi" va „Ko'chirish qoidalari" bo'limlardagi 82 moddadan tarkib topgan.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbek xalqi XX asrda qanday yozuvlardan foydalangan?
2. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga qaysi yillarda qanday o'zgartirishlar kiritilgan?
3. Arab grafikasi asosidagi o'zbek yozuvidan nechanchi yilgacha foydalanildi?
4. Arab grafikasidan lotin grafikasiga ko'chish jarayoni qanday kechdi?
5. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosiga yo'l-yo'lakay qanday o'zgartirishlar kiritildi?
6. Rns grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi qachon qabul qilindi?

7. *Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?*
8. *Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvidan yangi yozuvga o'tish g'oyasi qachon yuzaga keldix Sabablari?*
9. *Yangi (lotincha) o'zbek alifbosining birinchi va ikkinchi variantlari qachon qabul qilindi?*
10. *Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlangan?*

A D A B I Y O T L A R

1. *Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, 1999.*
2. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. Toshkent, 1956.*
3. *Abdullaev Y. Xamrohim. Toshkent, 1996.*
4. *Abdullaev Y. Sovg'a. Toshkent, 1996.*
5. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalari. Toshkent, 1996.*
6. *Jamolxonov H. Grafika va orfografiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 1999.*

3-mavzu: IMLO VA UNING TAMOYILLARI

Tayanch tushunchalar: imlo (orfografiya), imlo tamoyillari, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy -an'anaviy tamoyil, farqlash (differensiasiya) tamoyili, etimologik (grafik) tamoyil.

R E J A:

1. Imlo (orfografiya) – tilshunoslikning alohida bir bo'limi. Imloning orfoepiya hamda alifbo bilan aloqadorligi.
2. Imlo tamoyillari. Imloning ma'lum qonun-qoidalar, me'yorlarga asoslanishi.
3. Imloning fonetik va morfologik tamoyillari.
4. Tarixiy -an'anaviy tamoyil asosida yoziladigan so'z va qo'shimchalar.
5. Imloda farqlash (differensiasiya) tamoyili.
6. Etimologik (yoki grafik) tamoyilning o'ziga xos tomonlari.
7. Imlo tamoyillarining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi

So'zlarni adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri yozish – savodxonlik madaniylikning muhim belgilaridandir. Savodxon bo'lmoq uchun imlo qoidalarini bilish shartdir. Binobarin imlo qoidalari – savodxonligimiz asosidir. Imlo adabiy tilning yozma shakli bilan aloqador bo'lib, u to'g'ri yozish qoidalarini o'rgatuvchi hamda ular haqida batafsil ma'lumot beruvchi tilshunoslikning alohida bir bo'limidir. Imlo yozuv vositalari orqali so'z va so'z shakllarining bir xilda yozilishini tartibga soladi. Imlo tufayli so'zlar yagona yozuv shakliga ega bo'ladi.

Imlo muayyan qonun - qoidalarga asoslanadi. Bu qoidalarga unli va undoshlarning yozilishi, asos va qo'shimchalarning yozilishi, qo'shma so'zlarning yozilishi, bosh harflarning qo'llanishi, ko'chirish qoidalari kabilar kiradi.

Imlo qoidalari til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichini nazarda tutgan holda tuziladi. Tilning rivojlanishi hamda ba'zi hollarda yozuvning o'zgarishi bilan imlo qoidalari ham shunga mos ravishda takomillashtirilib boriladi.

Imlo orfoepiya hamda alfavit bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Adabiy talaffuz me'yorlarining aniq ishlab chiqilishi o'z navbatida imlo qoidalarining puxta va pishiq bo'lishida yordam beradi. Alifbo adabiy tildagi fonemalarni to'la va to'g'ri ifodalash uchun yetarli harfiy belgilarga ega bo'lsa, imlo ham shunga muvofiq ravishda davr talablariga javob bera oladigan mukammal va qulay qoidalarni o'zida tarkib toptiradi.

Har qanday yozuv tizimi ma'lum qonun -qoidalarga, ularning asosida yotuvchi imloviy tamoyillarga asoslanib ish ko'radi. Imloviy tamoyillar yozuv me'yorlariga oid qoidalarni bir xilda, turg'un shakllarda muayyan tartibda ushlab turuvchi asosiy omil sanaladi. Hozirgi o'zbek imlosi quyidagi tamoyillarga tayanadi: **1) fonetik tamoyil, 2) morfologik tamoyil, 3) tarixiy - an'anaviy tamoyil, 4) farqlash (differensiasiya) tamoyili, 5) etimologik yoki grafik tamoyil.**

Fonetik tamoyil. Fonetik tamoyilga ko'ra, so'z va qo'shimchalar jonli nutqda qanday aytilsa, yozuvda ham shunday ifoda qilinadi. Masalan, son so'ziga -a, ong so'ziga -la, ishla so'ziga -v+chi qo'shimchasi qo'shilganda, bu so'zlar sana, angla, ishlovchi deb aytiladi va shunday yoziladi.

Fonetik tamoyil imloni jonli nutqqa yaqinlashtiradi, yozuv bilan talaffuz orasida yaqin aloqa va munosabat borligini ko'rsatadi.

Fonetik tamoyil so'zlarning talaffuz shaklini asos qilib oladi. Lekin bu tamoyil milliy til doirasidagi har qanday talaffuzga emas, balki adabiy talaffuz me'yorlari doirasidagi holatlarga tayanadi. Masalan, ketyapti so'zi o'zbek milliy tili doirasida ketvotti, ketopti, ketutti, ketyapti shakllarida turlicha talaffuz qilinadi. Fonetik tamoyil keltirilgan talaffuz shakllaridan adabiy me'yor sifatida tan olingan ketyapti shakliga tayanadi.

O'zbek imlosida fonetik tamoyilga amal qiluvchi holatlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tilimizda bir qator fe'l asoslari a unlisi bilan tugaydi. Bunday fe'llarga -v qo'shimchasi qo'shilganda a tovushi o' tarzida aytiladi va shunday yoziladi: chanqa+v = chanqov, teja +v = tejov, maqta +v = maqtov, qatna +v = qatnov, hayda +v = haydov, chayqa +v = chayqov, terga +v = tergov va boshqalar.

2. O'zbek tilida bir qator fe'llar –la qo'shimchasi bilan yasalgan. SHunday -la affiksli fe'llarga – v qo'shimchasi qo'shilganda so'z oxiridagi a tovushi o' ga o'tadi va so'z o'sha shaklda talaffuz etiladi va yozilishda ham shunday holat saqlanadi: bag'ishla+v = bag'ishlov, sozla+v = sozlov, bog'la+v = bog'lov, aybla +v = ayblov, qishla+v = qishlov, oqla +v = oqlov kabilar.

3. Oxiri a tovushi bilan tugagan ba'zi so'zlarga -q qo'shimchasi qo'shilganda ham a tovushi o'bo'lib aytiladi va so'z mana shu o'zgarishni hisobga olgan holda yoziladi: tarqa +q = tarqoq, so'ra +q = so'roq, yangra+q = yangroq, qaltira +q = qaltiroq, quvna +q = quvnoq, yumsha +q = yumshoq, yaltira +q = yaltiroq, sana +q = sanoq kabilar.

4. Tilimizdagi og'iz, ko'ngil, qorin, o'g'il, singil, o'rin, bo'yin, burun kabi so'zlar egalik qo'shimchasini olganda asosning ikkinchi bo'g'inidagi i yoki u unlisi tushirib talaffuz qilinadi. Bunday so'zlar fonetik tamoyilga ko'ra o'sha talaffuz shaklida yoziladi: og'iz+im= og'zim, og'iz+ing= og'zing, og'iz + i= og'zi; singil+im= singlim, singil +ing= singling, singil +i = singli; burun+ im= burnim, burun + ing= burning, burun +i = burni; o'rin +im = o'rnim, o'rin +ing= o'rning, o'rin +i = o'rni kabilar.

5. Imloda fonetik tamoyilga amal qilish oxiri jarangsiz q va k undoshlari bilan tugagan so'zlar imlosini qoidalashtirishda ham kuzatiladi:

1) oxiri q bilan bitgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q tovushi g' tovushiga o'tadi va so'z shunday shaklda yoziladi: qiyiq+im= qiyig'im, qiyiq +ing= qiyig'ing, qiyiq +i = qiyig'i, oyoq +im = oyog'im, oyoq +ing= oyog'ing, oyoq +i = oyog'i. Bularga yana bayrog'i (bayroq +i), ayig'i (ayiq +i), qozig'i (qoziq+i), qayig'i (qayiq+i), balig'i (baliq+i), qishlog'i (qishloq+i) so'zlari misol bo'la oladi. Ba'zan q bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q tovushi o'zgarishsiz qoladi. Bunday so'zlar ham fonetik prinsipga binoan o'sha shaklda yoziladi: axloq - axloqi, ittifoq-ittifoqi, mashq-mashqi, nutq - nutqi, huquq-huquqi, haq-haqi, xulq-xulqi, ishq-ishqi kabilar.

2) k undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi jarangli g tovushiga o'tadi. Talaffuzda ham, yozuvda ham shu holat saqlanadi: bilak +im = bilagim, bilak+ing=bilaging, bilak +i = bilagi; tilak +im = tilagim, tilak +ing= tilaging, tilak +i = tilagi. Tirgagi (tirgak +i), bargagi (bargak +i), bezagi (bezak +i), o'rdagi (o'rdak +i), yuragi (yurak +i), ilgagi (ilgak+i), kovagi (kovak+i) kabilar ham shunday so'zlarga misoldir.

Ammo k tovushi bilan tugagan bir qator so'zlar egalik qo'shimchasini olganda jarangsiz k tovushi g tovushiga o'tmaydi, o'zgarishsiz, o'z holida aytiladi va bu so'zlar talaffuziga ko'ra yozilaveradi: nok+im = nokim, nok+ing= noking, nok+i = noki; chek+i =cheki, chok+i =choki, yuk+i =yuki, ishtirok+i =ishtiroki, tok+i =toki, tank+i =tanki, sirk+i =sirki, ocherk+i =ocherki, bank+i =banki, bak+i =baki kabilar shunday so'zlar jumlasiga kiradi.

6. Tilimizda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi asosan -ga tarzida yoziladi: maktabga, zavodga, ishga, uyga, shaharga, Buxoroga kabi. Ammo nutq jarayonida k, q tovushlari bilan bitgan so'zlarga qo'shilib kelganda fonetik o'zgarishga uchraydi. Bu imloda aks etadi:

1) oxiri k bilan bitgan so'zlarda -ga affiksi -ka tarzida aytiladi va imloda ham shunday yoziladi: kovak+ga =kovakka, tilak +ga = tilakka, bilak +ga = bilakka, katak +ga = katakka, tuvak+ga = tuvakka, danak+ga = danakka va boshqalar.

2) so'z oxiri q undoshi bilan tugasa, -ga qo'shimchasi -qa tarzida talaffuz qilinadi, bu shakl imloda ham saqlanadi: pichoq +ga = pichoqqa, yotoq+ga = yotoqqa, tovoq+ga = tovoqqa, so'roq+ga = so'roqqa, tayoq +ga = tayoqqa va boshqalar.

Aytilganlardan anglashiladiki , fonetik tamoyil yozuv bilan talaffuzni bir - biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida ma'lum darajada umumiylikni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra , so'zlar va ularning tarkibiy qismlari jonli so'zlashuvdagi talaffuziga qarab emas, balki asl shakllariga muvofiq yoziladi. Masalan, uchta, kelib turibdi, shanba, go'sht so'zlari og'zaki nutqda ushta, kep turipti, shamba, go'sh shaklida aytiladi. Lekin morfologik tamoyilga asosan uchta , kelib turibdi, shanba, go'sht tarzida yoziladi.

Morfologik tamoyil o'zbek imlosining etakchi tamoyillaridan hisoblanadi. Imlo qoidalarining ko'pchiligi morfologik tamoyilga asoslangan holda tuziladi. Bu tamoyil so'z va morfemalarni yozishda bir xillikni ta'minlaydi.

Hozirgi o'zbek imlosida morfologik tamoyil asosida yoziladigan so'z va morfemalarga namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Jarangli b tovushi bilan tugagan so'zlarda bu tovush talaffuzda jarangsizlashib p tarzida aytiladi, ammo imloda asliga ko'ra jarangli b tovushi bilan yoziladi: kitob, maktab, mirob, javob, g'olib, kosib, tartib, laqab, azob, asab, targ'ib, mansab, maktub, choyshab kabilar.

2. Jarangli d undoshi so'z oxirida jarangsizlanib t tarzida talaffuz qilinadi, lekin asliga binoan har vaqt d bilan yoziladi:obod, ozod, savod, mard, dard, maqsud, dilshod, daromad, iqtisod, murod, harid, nobud, mavjud, madad, qand, zumrad, maqsad, tanqid va boshqalar.

3. O'tgan zamon fe'lining III shaxs ko'rsatkichi -di, o'rin kelishigi qo'shimchasi -da, chiqish kelishigi qo'shimchasi -dan jarangsiz tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda progressiv assimilyasiyaga uchrab -ti, -ta, -tan shaklida aytiladi, shunga qaramay morfologik tamoyilga binoan har doim -di, -da, -dan tarzida yoziladi: o'tti-o'tdi, ketti-ketdi, tutti-tutdi, ichti-ichdi, bitti-bitdi, ishta-ishda, ko'kta-ko'kda, o'tta-o'tda, ottan-otdan, boshtan-boshdan, o'qishtan-o'qishdan singarilar.

4. Og'zaki nutqda ba'zan so'z oxirida yonma-yon kelgan qo'sh undoshlardan keyingisi tushirilgan holda aytiladi, ammo yozuvda saqlanadi. Masalan do'st, go'sht, musht, g'isht, juft, to'rt, dasht, past, sust, rost, Toshkent kabi so'zlarda so'nggi t tovushi va xursand, bahramand, ixlosmand, davlatmand, garchand, Samarqand singari so'zlarda so'nggi d tovushi talaffuzda tushib qoladi. Lekin asliga muvofiq bunday so'zlar oxirida t va d undoshlari yozilaveradi.

5. Ayrim so'zlarning birinchi bug'inida u unlisi kelsa, ikkinchi bo'g'inida i tovushi eshitiladi, ammo yozuvda asliga ko'ra u tovushi saqlanadi va yoziladi: uchqun, uzun, unum, turmush, tuzum, butun, turg'un, mushkul, uzuk, uchqur, quzg'un, surgun, bulut, bugun, guruh, kumush, uzuk, usul, sukut, chuqur kabilar.

6. So'z o'rtasida kelgan n undoshi o'zidan keyingi b, m undoshlari ta'sirida m bo'lib eshitiladi, ammo asli bo'yicha doimo n bilan yoziladi: shamba, sumbula, tambal, mamba, aylamma, jomboz, yombosh, tambeh, yomma-yon (talaffuzda) – shanba, sunbula, tanbal, manba, aylanma, jonboz, yonbosh, tanbeh, yonma -yon (yozuvda) va boshqalar.

Tarixiy--an'anaviy tamoyil. So'z va morfemalarning yozuvda qadimdan odat bo'lib qolgan shaklda yozilishi imloning tarixiy-an'anaviy tamoyili deb ataladi. Bu tamoyilda so'zlarning yagona shakli va talaffuzi e'tiborga olinmaydi. So'zlar hozirgi holatiga qarab emas, balki qadimdan an'ana tusiga kirib qolgan qoidalar asosida yoziladi. Masalan fikr, qadr, aql, ilm so'zlari talaffuzda i tovushi orttirilgan holda fikir, qadir, aqil, ilim tarzida aytiladi. Ammo tarixiy -an'anaviy tamoyil bo'yicha bu so'zlar i tovushisiz yoziladi.

Tarixiy-an'anaviy tamoyilga ko'ra yoziladigan so'zlarga misol sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarda ko'pincha ikki undosh tovush yonma-yon keladi. Bular talaffuz qilinganda ikki undosh orasida qisqa i unlisi paydo bo'ladi. Ammo bu imloda hisobga olinmaydi. So'zlar an'anaga muvofiq avvalgi shakllari bo'yicha yozila beradi: fahm, sharm, fasl, lahm, hatm, nasl, muhr, jabr, vazn, mehr, zulm, ayb, kibr, vasl, vazn, husn, sinf, jahl, naqsh, rasm kabilar.

2. So'z o'zaklarida ikki unlining qator kelishi aslida o'zbek tiliga xususiyatlardan emas. SHuning uchun og'zaki nutqda doim, oila, rais, oid, doira, maishat, qoida, doir, shoir, suiqasd, Noila, Naima, Raisa, Said, Saida kabi so'zlarda ikki unli orasiga bir y undoshi orttirib talaffuz qilinadi. Ammo bu xil so'zlar imloda tarixiy an'anaga muvofiq – y tovushisiz yozila beradi.

3. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ba'zi bir qo'shimchalar ham tarixiy -an'anaviy tamoyil asosida yozilishi mumkin:

1) sifatdosh yasovchi -r (-ar) qo'shimchasining -ur shakli mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan. Bu shakl she'riy asarlarda hozir ham uchrab turadi: Jismimiz **yo'qolur**, o'chmas nomimiz, G'alaba to'yida bo'larmiz biz ham. (H. Olimjon). Agar kuylar esa sho'x dilrabolar, havolardan **kelur** dilbar navolar (Vosit Sa'dulla).

2) buyruq -istak mayli qo'shimchasi -gin o'tmishdagi an'anaga ko'ra ayrim hollarda -gil shaklida yoziladi: Dilrabo, hijronni mendan **so'rmagil**, gul o'zing bo'stonni mendan **so'rmagil** (H. YAhyoev).

3) hozirgi o'zbek tilida chiqish kelishigi qo'shimchasi adabiy me'yorga muvofiq - dan shaklida yoziladi. SHu bilan birga she'riy asarlarda ba'zan o'tmishdagi

shakliga muvofiq -din tarzida ham ishlatiladi: Senga baxtdan taxt talarman, **Toledin** boshingga toj, Mulki husningga omonlik, Toju taxtingga rivoj (E. Vohidov).

4) harakat nomi qo'shimchasi -moqning -mak shaklida yozilishi ham tarixiy an'anaga muvofiqdir: YUzlarimni **ko'rmak** istasang, Osmondagi oyga boq, Ko'zlarimni **ko'rmak** istasang, Osmon to'la yulduzga boq, Gar o'zimni **ko'rmak** istasang, YOvni engib zafar bilan qayt (Uyg'un).

Bundan tashqari, -dir qo'shimchasining ayrim hollarda -dur, -ga qo'shimchasining -g'a, -gani qo'shimchasining -gali, -mi affiks yuklamasining -mu shakllarida yozilishi ham tarixiy -an'anaviy tamoyilga ko'radir: boshindadur, ko'rinadur, yoshindadur, qoshindadur; qo'lg'a, yo'lg'a, g'amg'a; ko'rgali, kuydirgali, o'qigali, tergali; sog'indingmu, keldingmu, qoldimu, yozdimu kabi.

SHuningdek, u, bu, shu, o'sha olmoshlari eski o'zbek tilida ul, bul, shul, o'shal shakllarida ishlatilgan. Bu shakllar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham uchrab turadi: **O'shal** kun kelur (qo'shiqdan). Tushda ko'rdim **ul** parini ey sabo uyg'otmagil (E. Vohidov).

Farqlash (differensiasiya) tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra og'zaki tilda o'xshash, yaqin talaffuz qilinuvchi bir qator so'zlar yozuvda shaklan farqlangan holda yoziladi. Farqlashning bir necha ko'rinishlari bor:

1) unli tovushlarga ko'ra farqlash: jodi (asbob) – jodu (sehrli), oxir (so'ng) – oxur (mollarning oziqlanadigan joyi), urish (fe'l) – urush (jang, muhoraba), tursin (fe'l) – Tursun (ism), kompaniya (ma'lum davr) – kompaniya (sheriklar, shirkat);

2) undosh tovushlarga ko'ra farqlash: abzal (ot asbobi) – afzal (yaxshi), ganj (xazina) – ganch (qurilish materiali), paqir (chelak) – faqir (kambag'al, bechora), xush (yaxshi) – hush (sezgi, es), xol (yuzdagi xol) – hol (ahvol), pakt (siyosiy bitim) – fakt (dalil, isbot), zond (medisina asbobi) – zont (soyabon);

3) urg'u vositasida farqlash: atlas (geografik kartalar yig'indisi) – atlas (mato, material), yangi (sifat) – yangi (ravish), olim (ilmiy kishi) – Olim (ism), guli (meva guli) – Guli (ism), bosma (ot) – bosma (fe'l), akademik (sifat) – akademik (ot), olma – olma, suzma – suzma, surma – surma, tugma – tugma, tortma – tortma kabilar;

4) unlining cho'ziq-qisqaligi orqali, aniqrog'i yozuvda tutuq belgisini qo'llash orqali farqlash: davo – da'vo, ayon – a'yon, sava – sa'va, alam – a'lam, tana – ta'na, sher – she'r, tarif – ta'rif, taqib – ta'qib;

5) qo'shimchalarga ko'ra farqlash: bo'shlik (yuvoshlik, ojizlik) – bo'shlik (fazo), borlik (biror narsaga egalik, mavjudlik) – borliq (dunyo, koinot), otalik (otaga xos, otalik burchi) – otaliq (otaliqqa olish), tog'lik (tog'da yashaydigan kishi) – tog'liq (tog'li joy), oqlik (belgi oti) – oqliq (sut, qatiq), og'alik (akalik) – og'aliq (amal nomi). Misollarimizda -lik va -liq qo'shimchalari ma'noni farqlash uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, -li va -lik qo'shimchalari yordamida ham so'zlar yozuvda farq qilinadi: bolali (bolasi bor kishi)– bolalik (yoshlik, bolalik vaqti), belbog'li (belbog'i bor kishi)– belbog'lik (belbog' bo'ladigan mato), kiyimli (kiyimi

bor kishi)- kiyimlik (kiyim bo'ladigan mato), tog'li (tog'li joy)- tog'lik (tog'likda yashovchi), onali (onasi bor)- onalik (onalik mehri) va boshqalar.

Etimologik yoki grafik tamoyil. Imloning etimologik yoki grafik tamoyili o'zlashma so'zlarning yozilishini qoidalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tamoyilga ko'ra o'zlashma so'zlar manba tilda qaysi shaklda yozilgan bo'lsa, qabul qiluvchi tilda ham shunday shaklda yoziladi. Bunda o'zlashma so'zning o'zi mansub bo'lgan tildagi grafik shakli o'zbek imlosida ham saqlanadi. Rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z va atamalarning aksariyati o'zbek tilida mana shu etimologik (grafik) tamoyil asosida yoziladi. Masalan, rus tilidagi ocherk, opera, tonna, nota, pochta, rota so'zlari o'zbek tilida o'cherk, o'pera, to'nna, no'ta, po'chta, ro'ta shaklida talaffuz qilinsa-da, rus tilidagi grafik shakli bo'yicha ocherk, opera, tonna, nota, pochta, rota tarzida yoziladi. SHuningdek kombayn, kompot, montaj, motosikl, motor, obzor so'zlarining urg'usiz bo'g'inidagi o unlisi a unlisi tarzida; rektor, direktor, prorektor, transformator, traktor kabi so'zlarning oxirgi bo'g'inidagi o unlisi i tarzida aytiladi, ammo bu so'zlarda grafik tomoyilga ko'ra yozuvda o unlisi saqlanadi.

Rus tilidan o'zlashgan bir qator so'zlar oxirida ikki undosh yonma -yon keladi. Bu so'zlar talaffuz qilinganda ikki undosh orasida qisqa i tovushi orttiriladi. Ammo yozuvda bu tovush hisobga olinmaydi va so'zlar etimologik tamoyil asosida ruscha shaklida yozila beradi: litr, semestr, keks, boks, bifshteks, gips, orkestr, fil'tr, punkt, teatr va boshqalar.

Vise-prezident, unter-ofiser, kilovatt-soat, eks-chempion, gramm-molekula, gramm-atom singari ruscha o'zlashmalar o'zbek tilida ruscha holatiga ko'ra chiziqcha bilan yoziladi.

Tilimizdagi ayrim arabcha so'zlar ham etimologik tamoyil asosida yoziladi. CHunonchi, muammo, maoniy, mutolaa, mudofaa, va'da, a'lo, she'r, ba'zan, ma'ruf, ta'lim, ta'zim, mash'al, qal'a, daf'a, shu'la, mo''jiza, da'vat, hay'at, ma'rifat, ma'shuq, me'mor, ta'sis, daf'atan, ra'y, ne'mat, iste'fo, mo''tadil singari so'zlar etimologik tamoyilga ko'ra arab tilidagi holaticha yoziladi. Ayirish belgisi so'zlar asli arabcha bo'lib, arab alifbosi amal qilgan davrda ayn bilan yozilgan va talaffuz qilingan. Hozirda bu so'zlar amaldagi imlo qoidalariga ko'ra ' belgisi bilan yozilmoqda. YAngi alifbo bo'yicha bunday so'zlarda tutuq belgisidan foydalaniladigan bo'lindi.

Etimologik tamoyil imloning morfologik va tarixiy -an'anaviy tamoyillariga yaqin turadi. Ular o'rtasida qandaydir o'xshashlik, umumiylik alomatlari mavjud. Lekin bu tamoyillar o'zaro farqlarga ega.

Imloning yuqorida qayd etilgan besh tamoyili o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Imlo tamoyillari yozuvning nazariy asosidir. SHu bois imlo tamoyillarini o'rganish yozuv amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilining yangi imlo qoidalarida, avvalgi qoidalarda bo'lganidek, fonetik va morfologik tamoyillar asos qilib olingan. Ammo morfologik tamoyilga asoslanish 1956 yil 4 aprelda tasdiqlangan „Uzbek orfografiyasining asosiy qoidalari“ga nisbatan ortgan. Bu tamoyil hammadan avval „Asos va qo'shimchalar imlosi“ bo'limida o'z ifodasini topgan.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Tilshunoslikning imlo (orfografiya) bo'limi qanday masalalar bilan shug'ullanadi, nimani o'rganadi?*
2. *Fonetik tamoyil deganda nimani tushunasiz? Bu asosda yoziladigan so'zlarga misollar keltiring.*
3. *Morfologik tamoyil deb nimaga aytiladi? Fikringizni misollar asosida tushuntiring.*
4. *Tarixiy -an'anaviy tamoyil nima? Bu tamoyil bo'yicha yoziladigan qo'shimchalarga hozirgi o'zbek she'riyatidan misollar keltiring.*
5. *Farqlash (differensiasiya) tamoyili xususida nimalarni bilasiz?*
6. *Etimologik (grafik) tamoyil to'g'risida bilganlaringizni bayon qiling.*
7. *Etimologik tamoyil imloning qaysi tamoyillariga yaqin turadi?*
8. *Morfologik, tarixiy-an'anaviy va etimologik (grafik) tamoyillarning qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?*
9. *O'zbek imlosining etakchi tamoyillari qaysilar?*

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Hozirgi zamon o'zbek tili. Faxri Kamol tahriri ostida. Toshkent, 1957, 253-271-betlar.*
2. *SHoabdurahmonov SH. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 88-97-betlar.*
3. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992, 45-49-betlar.*
4. *Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2003, 76-78-betlar.*
5. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006, 449-452-betlar.*
6. *Rahmatullaev Sh. Orfografiya qoidalari – savodxonligimiz asosi. Toshkent, 1980.*
7. *Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, 1999.*
8. *Jamolxonov H. Grafika va orfografiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 1999.*
9. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005, 101-108-betlar.*
10. *Begmatov E., Ismatullaev N. O'zbek imlosi. Toshkent, 1979.*
11. *O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent, 1995.*

4-mavzu: IMLO QOIDALARI.

UNLI VA UNDOSHLAR IMLOSI

Tayanch tushunchalar: tovush va harf, ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in, old qator unli va orqa qator unli, tor unli va keng unli, jarangli undosh, jarangsiz undosh, portlovchi undosh, sirg'aluvchi undosh, ovozdor undosh, til oldi undoshi, qorishiq undosh, burun undoshi, tutuq belgisi.

R E J A:

1. Imlo qoidalarining qisqacha mazmuni.
2. Unlilar imlosi.
3. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi.
4. Undoshlar imlosi.
5. Yonma-yon keladigan undoshlar imlosi.
6. Tutuq belgisining ishlatilish o'rinlari.

Imlo qoidalarini – savodxonligimiz asosidir. Darhaqiqat imlo qoidalarini yaxshi o'zlashtirmasdan turib savodxonlikka erishib bo'lmaydi. So'z va morfemalarni to'g'ri yozish uchun ma'lum bir qonun-qoidalariga tayaniladi. Shu maqsadda imlo qoidalarini yaratiladi. Davr talablari asosida imlo qoidalarini takomillashib, o'zgarib boradi. 1930 yilda lotin yozuvi, 1940 yilda kirill yozuvi uchun imlo qoidalarini ishlab chiqilgan. 1956 yil 4 aprelda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalarini" tasdiqlanib, amalda qo'llanishga joriy qilingan. Shundan beri o'tgan vaqt davomida ushbu imlo qoidalariga rioya qilib kelindi.

Harflarning imlo qoidalarini tuzishda tovushning fonetik tavsifi hamda uning ayrim imloviy xususiyatlari e'tiborga olinadi. Masalan, a,o,i,u unlilarining imlo qoidalarida yuqoridagi har ikki xususiyat o'z ifodasini topgan bo'lsa, o' va e unlilarining imlo qoidalarida faqat tovushlarning fonetik tavsifi tamoyiliga asoslanilgan.

Harflar imlosi 1-qoidadan 32-qoidagacha davom etadi. Bunda 1-6-qoidalar unlilar imlosi, 7-qoida yonma-yon kelgan unlilar imlosi, 8-30-qoidalar undoshlar imlosi, 31-qoida yonma-yon kelgan undoshlar imlosi va 32-qoida tutuq belgisining qo'llanishi qoidalaridan iborat.

UNLILAR IMLOSI

1. Aa harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, vaqt, vahm kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

2. Oo harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi soʻzlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi oʻzlashma soʻzlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. **Ii harfi:**

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi soʻzlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *oʻtin, oʻrik, boʻlim* kabi oldingi boʻgʻinida **oʻ** unlisi keladigan soʻzlarning keyingi boʻgʻinida **i** aytiladi va yoziladi.

4. **Uu harfi:**

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchugʻ, usul, yulduz; mafkura; koʻzgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi soʻzlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirgʻovul, chirmovuq* kabi soʻzlarning oldingi boʻgʻinida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq boʻgʻin boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **Oʻoʻ harfi** *oʻt, oʻq, oʻzbek, oʻsimlik, doʻppi; boʻtakoʻz, semizoʻt, gulkoʻrpa, nooʻrin* kabi soʻzlarda orqa qator oʻrta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **Ee harfi** *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; eʻlon, neʻmat, sheʻr* kabi soʻzlarda old qator oʻrta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. **Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:**

1) unlilar orasiga baʼzan **y** undoshi qoʻshib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) **ai:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

e) **oi:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilar soʻz ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

UNDOSHLAR IMLOSI

8. **Bb harfi:**

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda baʼzan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. **Pp harfi** *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **Vv harfi:**

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o‘zlashma so‘zlarda **v** ba’zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. Ff harfi:

1) *fan, fe’l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so‘zlarda **f** tovushi ba’zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **Mm harfi** moy, muborak, tomon, ilhom kabi so‘zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. Dd harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so‘zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo’r* kabi so‘zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **Tt harfi** *tong, tun; butun, o’tin, o’t, kut* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Zz harfi:

1) *zar, zamon; toza, o’zbek; yoz, g’oz* kabi so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo’zchi, tuzsiz* kabi so‘zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. **Ss harfi** *sog’, somon, oson, asos, olmos* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh harflar birikmasi** *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (‘) belgisi qo‘yiladi: *Is’hoq, as’hob* kabi.

18. Jj harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so‘zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar, tiraj* kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch harflar birikmasi** *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **Rr harfi** *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **Ll harfi** *lola, loyiq, la’l; iloj, mahal* kabi so‘zlarda sirg‘aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. Nn harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko’rinmaslik* kabi so‘zlarda **n** tovushi ba’zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. **Gg harfi** *gul, go’zal; ega, gugurt; teg, eg* kabi so‘zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **Kk harfi** *ko'l, ko'ylak; uka, moki; tok, bilak* kabi soʻzlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Yy harfi** *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi soʻzlarda til oʻrta sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng harflar birikmasi** *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Qq harfi** *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **G'g' harfi** *g'oz, bag'ir, tog'* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **Xx harfi** *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **Hh harfi** *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi boʻgʻiz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht* kabi soʻzlarda **d, t** tovushi baʼzan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi oʻzlashma soʻzlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrammi kabi.

32. **– tutuq belgisi:**

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan keyin shu unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi soʻzlarda **o'** unlisi choʻziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qoʻyilmaydi;

2) **in'om, san'at, qat'iy, mas'ul** kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Imlo qoidalari nima? Ular qanday maqsadlarni koʻzda tutgan holda tuziladi?
2. Kirillcha oʻzbek yozuvi imlo qoidalari qachon tasdiqlangan? Yangi (lotincha) oʻzbek yozuvining imlo qoidalari-chi?
3. 1956 yil 4 aprelda tasdiqlangan “Oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalari” qanday boʻlimlardan tarkib topgan? Boʻlimlarning nomlarini ayting.
4. Yangi (lotincha) oʻzbek yozuvining imlo qoidalari qanday boʻlimlarni oʻz ichiga oladi? Har bir boʻlimning necha paragrafdan tashkil topganligi haqida maʼlumot bering.
5. Qaysi soʻzlarda a unlisi o aytilsa ham, asl holicha yoziladi?
6. I unlisining yozilishiga doir qoidalarni bayon qiling.

7. Qanday paytlarda yonma-yon keladigan unlilar orasiga ba'zan y qo'shib aytilsa ham, yozuvda ifoda qilinmaydi?
8. Qaysi hollarda yonma-yon keladigan unlilar aynan aytiladi va shunday yoziladi?
9. Aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan undoshlar imlosiga oid qanday qoidalarni bilasiz?
10. So'z oxirida kelgan b va d undoshlari qanday talaffuz qilinadi va qanday yoziladi?
11. N undoshi b, m undoshlaridan oldin kelganda qanday aytiladi va yoziladi?
12. Yonma-yon keladigan undoshlarning yozilishi haqidagi qoidalarni bayon qiling.
13. Qaysi o'rinlarda va nima maqsadda tutuq belgisi ishlatiladi va yoziladi?

A D A B I Y O T L A R

7. *O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari*. Toshkent, 1956.
8. *O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasining asosiy qoidalari (loyiha)*. Toshkent, 1988.
9. *O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari*. Toshkent, 1995.
10. *O'zbek tilining imlo lug'ati*. Toshkent, 1976.
11. *O'zbek tilining imlo lug'ati* (tuzuvchilar: Rahmatullaev Sh., Hojiev A.), Toshkent, 1995.
12. *O'zbek tilining kirill va lotin yozuvlaridagi imlo lug'ati*. Toshkent, 1999.
13. *Rahmatullaev Sh. Orfografiya qoidalari – savodxonligimiz asosi*. Toshkent, 1980.
14. *Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi*. Toshkent, 1999.
15. *Begmatov E., Ismatullaev N. O'zbek imlosi*. Toshkent, 1979.
16. *Jamolxonov H. Grafika va orfografiya. Ma'ruzalar matni*. Toshkent, 1999.
17. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent, 2005.

5-mavzu: ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI (Shakl yasovchi qo'shimchalarga oid)

Tayanch tushunchalar: asos, qo'shimcha, tovush o'zgarishi, tovush tushishi, tovush orttirilishi, so'z tarkibi, egalik qo'shimchasi, kelishik qo'shimchasi, nisbat shaklini yasovchi qo'shimcha, ravishdosh shaklini yasovchi qo'shimcha, sifatdosh shaklini yasovchi qo'shimcha.

R E J A:

1. Shakl yasovchi qo'shimchalarga oid asosiy imlo qoidalari.
2. Shakl yasovchi qo'shimchalarga oid qo'shimcha imlo qoidalari.

Asosga qo'shimchalar qo'shilishi bilan ba'zan so'z tarkibida o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar imloda ham aks etadi. Masalan, ong asosiga -la qo'shimchasi qo'shilganda, bu so'z angla shaklida yoziladi, ya'ni o'zakdagi o tovushi a tovushiga o'tadi. Ishla so'ziga -v+chi affiksi qo'shilganda, a unlisi o bilan almashadi, ishlavchi emas, balki ishlovchi tarzida aytiladi va o'shanday yoziladi. Bu xil so'zlarga yana qishloq – qishlog'im, etik – etigi, yotoq – yotog'i, burun – burni, men – mening, sariq – sarg'ay singlarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Imlo qoidalarining 2-bo'limi "Asos va qo'shimchalar" imlosi bo'lib, 33-qoidadan 37-qoidagacha davom etadi. Bu bo'lim qoidalari asosan morfologik tamoyil asosida tuzilgan. Ushbu maruzada faqat shakl yasovchi qo'shimchalarga oid bo'lgan imlo qoidalarini ko'rib o'tamiz. Ularga 34- va 35-qoidalar, 36-qoidaning 2-qismi, 37-qoidaning 2- va 3-qismlari kiradi.

Asosga qo'shib, uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklash yoki o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqa so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar shakl yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Ular ikki turga – lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarga bo'linadi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, yurak–yuragim, kubok–kubogi, bek-begi; tayoq–tayog'i, qo'shiq–qo'shig'i, yaxshiroq–yaxshirog'i, yo'q–yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin–o'rnim, qorin–qorni, burun–burning, o'gil–o'g'ling, ko'ngil–ko'ngli, yarim–yarmi; qayir–qayril, ulug'–ulg'ay, sariq–sarg'ay, ikki–ikkov, ikki–ikkala, yetti–yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshlarga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) **o, o', u, e** unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (yoki **-lari**) shaklida tovush ortirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* soʻzlariga I, II shaxs egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda bir **y** tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qoʻshimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* soʻzlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* soʻzlariga esa **-si** shaklida qoʻshiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **y** undoshi bilan tugagan soʻzga ham III shaxsda **-si** qoʻshiladi: *dohiysi* kabi);

4) **men, sen** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qoʻshimchalari qoʻshilganda qoʻshimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qoʻshimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

2) oʻrin kelishigi va chiqish kelishigi qoʻshimchasining, oʻtgan zamon yasovchisi va III shaxs koʻrsatkichi **-di** qoʻshimchasining boshidagi undosh baʼzan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qoʻshimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarga (*kel* soʻzidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qoʻshiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; oʻtkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qoʻshimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs koʻrsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qoʻshimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yoʻlakkacha, koʻnikkach, zerikkuncha, toʻkkani, kechikkudek, bukkan, ekin, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qoʻrqqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qatʼi nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bugʻga, sogʻga, ogʻgan, sigʻguncha* kabi.

“Oʻzbek tilining yangi imlo qoidalarini» oʻzbek orfografiyasining asosiy qoidalarini tashkil etadi. SHuning uchun uning tarkibiga shakl yasovchi qoʻshimchalarga oid barcha imlo qoidalarini kiritilmagan. Ayrim shakl yasovchi qoʻshimchalar bilan bogʻliq imlo meʼyorlariga quyidagilar kiradi:

1. Ortirma nisbat qoʻshimchasi.

- *ir, -ar, -iz* qoʻshimchalari undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli feʼllarga qoʻshiladi: *shoshir, chiqar, oqiz*.
- *giz, - gʻiz* qoʻshimchalari jarangli udosh bilan tugagan feʼl asoslariga, *-kiz, - qiz* qoʻshimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan feʼl asoslariga qoʻshiladi: *yurgiz, turgʻiz, yutqiz, ketkiz*.

2. Harakat nomi qo'shimchasi.

Harakat nomi unli bilan tugagan fe'l asoslariga –sh, -v qo'shimchalarini, undosh bilan tugagan fe'l asoslariga –ish, -u, -moq, -mak qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.

a yoki i unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga -v qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o ga, i unlisi u ga aylanadi va shunday yoziladi: ishla – ishlov, tani – tanuv.

3. Fe'ning hozirgi zamon shaklini yasovchi qo'shimcha.

-yotir, -yotib shakllari unli bilan tugagan fe'l asoslariga, -ayotir,

-ayotib shakllari esa undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi.

-yap shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shib, -ayap shaklida talaffuz qilinsa ham, -yap yoziladi.

4. Ravishdosh yasovchi –ib, -b afiksi so'z oxirida yoki shaxs-son qo'shimchalaridan oldin jarangsizlashib –ip, -p tarzida eshitiladi, ammo –ib, -b yoziladi: yozipman – yozibman, o'qip – o'qib.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Asos va qo'shimchalar imlosi deganda nimani tushunasiz? Asos va qo'shimchalar imlosi aks etgan so'zlarga misollar keltiring.
2. K, Q undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ular qanday yoziladi?
3. Oxirgi yopiq bo'g'inida i yoki u unlilari bo'lgan so'zlarga egalik affikslari qo'shilganda qanday o'zgarish ro'y beradi?
4. U, bu, shu, o'sha olmoshlariga qanday qo'shimchalar qo'shilganda n undoshi qo'shib aytiladi va o'shanday yoziladi?
5. Qaysi olmoshlarga qanday qo'shimchalar qo'shilganda qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi?
6. Qanday qo'shimchalarning bosh tovushi ikki xil aytiladi va shunday yoziladi?
7. Tilimizdagi qo'shimchalardan qaysilarining birinchi tovushi uch xil talaffuz qilinadi va o'sha holatda yoziladi?
8. Q undoshi bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda affiksdagi bosh tovush qanday aytiladi va yoziladi? K bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda-chi?
9. Oxiri g' bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganda, bunday so'zlar avvalgi imlo qoidalari bo'yicha qanday yozilar edi? Hozirgi (yangi) qoidalarga ko'ra qay yo'sinda yozilmoqda?

A D A B I Y O T L A R

1. *O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari*. Toshkent, 1956.
2. *O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari*. Toshkent, 1995.
3. *O'zbek tilining imlo lug'ati* (tuzuvchilar: Rahmatullaev Sh., Hojiev A.) , Toshkent, 1995.
4. *O'zbek tilining kirill va lotin yozuvlaridagi imlo lug'ati*. Toshkent, 1999.
5. *Rahmatullaev Sh. Orfografiya qoidalari –savodxonligimiz asosi*. Toshkent, 1980.
6. *Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi*. Toshkent, 1999.
7. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili*. Toshkent, 2006.
8. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent, 2005.

6-mavzu: ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI (So'z yasovchi qo'shimchalarga oid)

Tayanch tushunchalar: asos, qo'shimcha, tovush o'zgarishi, tovush tushishi, tovush orttirilishi, so'z tarkibi, ot yasovchi qo'shimchalar, sifat yasovchi qo'shimchalar, fe'l yasovchi qo'shimchalar, jarangli undosh, jarangsiz undosh.

R E J A:

1. So'z yasovchi qo'shimchalarga oid asosiy imlo qoidalari.
2. Ayrim ot yasovchi qo'shimchalarning imloviy xususiyatlari.
3. Ayrim sifat yasovchi qo'shimchalarning imloviy xususiyatlari.
4. Ayrim fe'l yasovchi qo'shimchalarning imlosi.

Asosga qo'shilib yangi ma'no hosil qiluvchi qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Mustaqil so'z turkumlari ichida ot, sifat, fe'l, ravish kabilar yasash xususiyatiga ega. Ana shu so'z turkumlariga oid yasovchi qo'shimchalar asosga qo'shilgan vaqtda ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Bunday holat muayyan imlo qoidalarini ishlab chiqishni talab etadi. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"da so'z yasovchi qo'shimchalarga oid quyidagi qoida berilgan.

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi - sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: ol – oluv, yoz – yozuv kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: uz – uzuq, yut – yutuq kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchalari ba'zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon, masharaboz* kabi.

Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-ilia** (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo'lganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

So'z yasovchi qo'shimchalarning imloviy xususiyatlari bilan bog'liq barcha holatlar asosiy imlo qoidalarida aks etmagan. Quyida ayrim so'z yasovchi qo'shimchalarga oid imloviy me'yorlar bilan tanishamiz.

1. SHaxs oti yasovchi **-vchi** qo'shimchasi **a** unlisi bilan tugagan fe'lga qo'shilganda **a** unlisi **o** ga aylanadi va shunday yoziladi: so'zla-so'zlovchi, kuyla-kuylovchi, o'yla-o'ylovchi, boshla-boshlovchi.

-vchi afiksi **i** unlisi bilan tugagan fe'lga qo'shilganda **i** unlisi **u** aytiladi va shunday yoziladi: *koyi-koyuvchi, tani-tanuvchi, tashi-tashuvchi*.

Undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uvchi** affiksi qo'shiladi: *qur-quruvchi, suz-suzuvchi, tuz-tuzuvchi*.

2. Narsa-buyum oti yasovchi **-gich** (**-kich, -g'ich, -qich**) afiksi fe'llarga quyidagicha qo'shiladi.

-gich, -g'ich qo'shimchalari unli yoki jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi: *kovlagich, purkagich, chizg'ich, elpig'ich*.

-kich, -qich affikslari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi: *ko'rsatkich, sovutkich, ochqich, yopqich*. (so'vutkich so'zi ba'zi hollarda

-gich qo'shimchasi bilan ham yozilishi mumkin).

3. Narsa buyum oti yasovchi **-gi** (**-g'i, -g'u, -qi, -ki**) affiksi fe'llarga quyidagicha qo'shiladi.

-gi -g'i, -g'u qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan va tarkibida **u** unlisi bo'lgan fe'llarga qo'shiladi: *sezgi, supurgi, yoqilg'i, urg'u, tuyg'u*.

-ki, -qi affikslari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *tepki, chopqi, tutatqi*.

4. Fe'llardan ot yasovchi **-qin, -g'in, -qun, -g'un** qo'shimchalarining **-qun, -g'un** shakli tarkibida **u** unlisi bo'lgan fe'llarga qo'shiladi, qolgan hollarda esa **-qin** va **-g'in** affikslari qo'shiladi: *to'lqin, yong'in, uchqun, yulg'un*.

5. **-in, -un, -on** ot yasovchi qo'shimchalarning **-un** shakli tarkibida **u** unlisi bo'lgan so'zlarga qo'shiladi, boshqa hollarda esa **-in, ba'zan -on** shakli qo'shiladi:

yig'in, tiqin, tugun, to'zon (to'zi –to'zon bu so'zda –on qo'shimchasi qo'shilishi bilan i unlisi tushib qolgan).

6. Atoqli otlarga qo'shilgan –lik qo'shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi.

7. Ot yasovchi –indi qo'shimchasi o'zagida u tovushi bo'lgan fe'llarga qo'shilganda, -undi shaklida yoziladi: yuv+indi=yuvundi.

So'z yasovchi qo'shimchalarga oid imloviy me'yorlar ayrim sifat yasovchi affikslarda ham uchraydi.

8. Otdan sifat yasovchi –gi, -ki, -qi qo'shimchalarining –gi shakli jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga, -ki, -qi shakli esa jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: bahorgi, yozgi, kechki, tushki. (ertalabki, dastlabki so'zlari bundan mustasno).

9. O'zagida u tovushi bo'lgan sifatlardan, fe'llardan ot yasalganda –im qo'shimchasi –um tadvizida aytiladi va shunday yoziladi: tuz+im=tuzum, un+im+unum.

Fe'ldan sifat yasovchi quyidagi qo'shimchalar ham ma'lum imlo me'yorlari asosida yoziladi.

10. –gir, -g'ir qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga, -kir, -qir qo'shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: sezgir, olg'ir, o'tkir, chopqir, topqir. Bu qo'shimchaning –qur varianti esa tarkibida u unlisi bo'lgan fe'l asoslariga qo'shiladi: uchqur.

11. –k, -ik, -uk qo'shimchalarining -k invarianti unli bilan tugagan fe'llarga, -ik varianti undosh bilan tugagan fe'llarga, -uk shakli esa tarkibida u unlisi bo'lgan fe'llarga qo'shiladi: chirik, kemptik, egik, tuzuk, suzuk.

12. –q, -iq, -uq, -oq qo'shimchalarining -q invarianti unli bilan tugagan fe'llarga, -iq varianti undosh bilan tugagan fe'llarga, -uq shakli esa tarkibida u unlisi bo'lgan fe'llarga, -oq shakli ba'zi fe'llarga qo'shiladi: iliq, siniq, buzuq, qochoq. (isi fe'ldan –q qo'shimchasini qo'shish orqali issiq sifati yasalganda s tovushi bittaga ortadi: achi – achchiq)

13. –kin, –qin, -gin, -g'in affikslarining –kin, -qin shakllari jarangsiz undosh bilan tugagan fe'lga, -gin, -g'in shakllari esa jarangli undosh bilan tugagan fe'lga; -kun, -qun, -g'un variantlari tarkibida u unlisi bo'lgan fe'llarga qo'shiladi: keskin, toshqin, jo'shqin; g'amgin, ozg'in; tushkun, turg'un, tutqun.

14. -kor, -gar affikslarining -kor shakli unli yoki jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga, –gar shakli esa jarangli undosh bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: fidokor, xaloskor, javobgar (isrofgar kabi ayrim so'zlarda bu me'yorga amal qilinmasligi ham mumkin).

Quyidagi fe'l yasovchi qo'shimchalar ham ma'lum imlo me'yorlari asosida yoziladi.

15. Fe'l yasovchi qo'shimchalar –a qo'shimchasi o'yin, qiyin, o'rin kabi ikki bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda bu so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi i unlisi talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: o'yna, qiyna, o'rna. SHuningdek, -a qo'shimchasi ba'zi so'zlarga qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi ro'y beradi: son-sana, yosh-yasha, ot-ata. –la affiksida ham shunday holatni ko'rish mumkin: ong-angla.

16. Fe'l yasovchi –ay qo'shimchasi past, sust so'zlariga qo'shilganda, bu so'zlar oxiridagi t talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: pasay, susay.

YUqoridagi so'z yasovchi qo'shimchalarning tahlilidan kurinib turibdiki, ularning asosga qo'shilishida quydagi uchta holat farqlanadi: agar qo'shimchaning variantlari unli, undosh asosida yuzaga kelgan bo'lsa (-q, -iq kabi) unli bilan tugagan so'zga undosh bilan boshlanuvchi, undosh bilan tugagan so'zga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shiladi; agar qo'shimchaning variantlari jarangli, jarangsizlikka ko'ra yuzaga kelgan bo'lsa (-kich, -gich kabi), jarangli undosh bilan tugagan so'zga jarangli undosh bilan boshlanuvchi, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zga jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi affiks qo'shiladi; agar qo'shimchaning variantlari yo'g'on, ingichkalik asosida paydo bo'lgan bo'lsa (-in, -un kabi), asosdagi u unlisiga e'tibor beriladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qaysi qo'shimchalar qo'shilganda fe'l asoslari oxiridagi unli tovushlar o'zgaradi va o'sha holatda yoziladi?
2. Ulug', sariq, past, sust so'zlariga -ay qo'shimchasi qo'shib fe'l yasalganda bunday so'zlar qanday talaffuz qilinadi va yoziladi?
3. Qanday qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi?
4. Taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa qo'shimchasi qay holatda -ulla aytiladi va yoziladi?
5. SHaxs oti yasovchi qaysi qo'shimcha ma'lum imlo me'yorlari asosida yoziladi?
6. Ayrim so'z yasovchi qo'shimchalarga oid imlo me'yorlari qanday tamoyillar asosida belgilanadi?

ADABIYOTLAR

1. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. Toshkent, 1956.
2. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent, 1995.
3. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, 1999.
4. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 200

7-mavzu: QO'SHIB YOZISH

Tayanch tushunchalar: *Qo'shib yozish, qo'shma ot, qo'shma sifat, qo'shma fe'l, izofali birikma takror taqlid so'z, marosim, afsona nomlari, qisqartmalar, qaratuvchili birikma, atoqli joy nomlari.*

R E J A:

1. *Qo'shib yozishga oid asosiy imlo qoidalari.*
2. *Qo'shma so'zlarning imlosi xususidagi ayrim me'yorlar.*

Qo'shib yozish "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"dagi 3-bo'lim bo'lib, 38-50-qoidalarni o'z ichiga oladi.

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. **-(a) r** (inkori **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovin, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'ma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU*, *ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDPMK* (*O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi*) kabi.

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: yo'o'q , nimaa, himm, uff kabi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Fors-tojik tilidan o'zlashgan xona, noma, kam, bop, xush, baxsh, mijoz, sifat kabi so'zlar vositasida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qanday yoziladi?*
2. *Ikkinchi qismi fe'l bo'lgan qo'shma so'zlarga misollar keltiring va ularning yozilishini tushuntiring.*
3. *To'y-marosim, urf-odat, o'yin nomlarini ifodalovchi qo'shma otlar qay yo'sinda yoziladi? Ularga misollar keltiring.*
4. *Ikkinchi qismi turdosh ot bo'lgan qo'shma so'z shaklidagi joy nomlari qanday holda yoziladi? Birinchi qismi sifat, ikkinchisi atoqli ot bo'lgan joy nomlari-chi?*
5. *Aslida qaratuvchili birikma bo'lib, keyinchalik bir tushunchani anglatadigan leksemaga aylangan qo'shma so'zlarga misollar toping, yozilishini izohlang.*
6. *Obod so'zi bilan yasalgan joy nomlari qanday yoziladi?*
7. *Birinchi qismi rang, maza-ta'm, miqdor kabi belgilarni ifodalovchi qo'shma otlarning yozilishini tushuntiring.*
8. *Narsani joy, o'ringa nisbat berish asosida hamda biror ish yoki maqsad uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qay tarzda yoziladi?*
9. *Narsani boshqa narsaga o'xshatish, qiyoslash yo'li bilan ifodalovchi qanday qo'shma ot va qo'shma sifatlarni bilasiz? Ularga misollar keltirib, yozilishini izohlang.*
10. *Rus tilidan aynan yoki tarjima qilish orqali o'zlashtirilgan qo'shma so'zlarning qanday yozilishini misollar vositasida tushuntirib bering.*

ADABIYOTLAR

1. *O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari.* Toshkent, 1956.
2. *O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.* Toshkent, 1995.
3. *Rahmatullaev Sh., Hojiev A. Qo'shma so'zlarning imlo qoidalari va lug'ati.* Toshkent, 1961.
4. *Hojiev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar.* Toshkent, 1963.
5. *Madaliev B. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'zlar.* Toshkent, 1966.
6. *Mamatov N. O'zbek tilida qo'shma so'zlar.* Toshkent, 1982.

7. Begmatov E. *Kishi nomlari imlosi. Toshkent, 1970.*
8. Begmatov E. *O'zbek ismlari imlosi. Toshkent, 1972.*
9. Rahmatullaev Sh. *Orfografiya qoidalari –savodxonligimiz asosi. Toshkent, 1980.*
10. Rahmatullaev Sh. *O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, 1999.*

8-mavzu: CHIZIQCHA BILAN YOZISH. AJRATIB YOZISH

Tayanch tushunchalar: *Juft so'z, takror so'z, kuchaytirma sifat, etaksi va ko'makchi fe'l, yuklamalar, tartib son, qo'shma fe'l, ko'makchi fe'l, to'liqsiz fe'l, murakkab son, muzofali birikmalar.*

R E J A:

1. *CHiziqcha bilan yozishga oid asosiy imlo qoidalari.*
2. *ajratib yozishga doir imlo qoidalari.*

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, O'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.*

Eslatma:

- 1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq kabi;*
 - 2) juft so'z qismlari orasida **-u (-yu)** bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: *do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi;*
 - 3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo'lasan, uxlabman-qolibman kabi.*
52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning **-ma, ba-** qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi.* Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *ro'baro', darbadar kabi.*

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.*

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e; -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey kabi.* Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari o'zidan oldin kelgan

soʻzga qoʻshib yoziladi: keliboq, oʻziyoq, koʻrganov, koʻrdiyov, mengina, qoʻshiqqina kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha (-) qoʻyiladi: 7- sinf, 5- “A” sinfi, 3-, 7-, 8- sinf oʻquvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni koʻrsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

AJRATIB YOZISH

57. Qoʻshma feʼlning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, taʼsir et, tamom boʻl, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

58. Koʻmakchi feʼl va toʻliqsiz feʼl mustaqil feʼldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib koʻr, soʻrab qoʻy, koʻra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil feʼl bilan yordamchi feʼl orasida tovush oʻzgarishi boʻlsa, bunday qismlar qoʻshib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

59. Koʻmakchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun boʻyi kabi. Lekin **bilan** koʻmakchisining **-la** shakli, **uchun** koʻmakchisining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, oʻsha** soʻzlari oʻzidan keyingi yoki oldingi soʻzdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, oʻsha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, biratoʻla, birvarakayiga, birmuncha, buyon soʻzlari qoʻshib yoziladi:

Shuningdek, **qay** soʻzi **yoq, yer** soʻzlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu soʻzlar qoʻshib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **toʻq, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi soʻzlar ajratib yoziladi: toʻq qizil, jiqqa hoʻl, tim qora, liq toʻla, lang ochiq, och sariq kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: oʻn bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi joʻnalish kelishigida boʻlgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiqlik darajasini bildiruvchi koʻpdan koʻp, tekandan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan soʻzlarga **i** shaklida, unli bilan tigagan soʻzlarga **yi** shaklida qoʻshiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan soʻzlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi oʻzbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan soʻzlar qoʻshib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Qoʻshma feʼl qismlari qanday yoziladi?*
2. *Koʻmakchi feʼl va toʻliqsiz feʼlning mustaqil feʼldan ajratib yozilishiga misollar ayting. SHu xil koʻrinishdagi feʼl qismlari qoʻshib yozilishi ham mumkinmi?*

3. *Ko'makchilar bilan qo'llangan so'zlar o'zaro qanday yozilishi darkor?*
4. *Qo'shma va murakkab sonlarning barcha qismlari bir-biridan ajratib yoki qo'shib yoziladimi?*
5. *Tarkibida hamma, har, hech, u, bu, shu, o'sha, bir so'zlari bo'lgan qo'shma leksemalar qanday yoziladi?*
6. *Izofali birikmalarga misollar toping. Ularning ajratib yohud qo'shib yozilishini izohlab bering.*
7. *Juft so'z qismlari qanday yoziladi? Takror so'z qismlari-chi?*
8. *Juft so'z qismlari o'zaro -u (-yu) bog'lovchisi orqali bog'lansa, ularning yozilishi qanday shaklda bo'ladi? Shu jihatdan kirill alifbosi hamda lotin yozuvi asosidagi yangi imlo qoidalarida farqli tomonlar bormi?*
9. *Belgini kuchaytirib ko'rsatuvchi so'zlarga misollar toping va ularning imlosini tushuntiring*
10. *So'zning -ma, -ba yordamida birlashgan qismlari qanday yoziladi?*
11. *Rus tili orqali tilimizga aynan kirib kelgan yoki tarjima qilish orqali o'zlashgan qaysi so'zlar chiziqcha orqali yoziladi?*
12. *Qaysi yuklamalar o'zidan oldin kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratilib, qaybirlari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi?*
13. *Arab yohud rim raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlar qanday yoziladi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O'zbek tilining imlo qoidalarini. 1995 y.*
2. *Raxmatullaev SH. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. 1995 y.*
3. *Raxmatullaev SH. Orfografiya qoidalarini – savodxonligimiz asosi. Toshkent. 1980 y.*
4. *Jamolhonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2005 y.*

9-mavzu: BOSH HARFLAR IMLOSI. KO'CHIRISH QOIDALARI

Tayanch tushanchalar: *Kishi ismi, ota ismi, familiya, tahalluslar; jo'y nomlari; yulduzlar va sayyoralar nomlari; yu xayvonlari nomlari; madaniy-maishiy ob'ektlar nomlari; badiiy asar nomlari; tarixiy voqea, bayram nomlari; bo'g'in ko'chirilishi, o'zlashma so'zlarda bo'g'in ko'chirilishi.*

REJA:

1. *Bosh harflar imlosi*
2. *Ko'chirish qoidalarini.*
3. *Imlo qoidalariga sharhlar.*

BOSH HARFLAR IMLOSI

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O‘rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi)* kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san‘at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong" (mehmonxona), "Saodat" (firma), "Navroz" (xayriya jamg‘armasi), „Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G‘uncha" (bog‘cha), "Botanika" (sanatoriy), „Paxtakor" (stadion), "Qutlug‘ qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich)* kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o‘rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *"O‘zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal).* Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *"Sog‘lom avlod uchun" (orden), "O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa a‘lochisi" (nishon)* kabi.

73. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim. (O. Yoqubov)*

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: „*Bu men*“, - *qo'rqibgina javob berdi ko'laga* (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

- mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) *umumturkiy so'zlar*, 2) *o'zbekcha so'zlar*, 3) *tojik tilidan kirgan so'zlar*, 4) *arab tilidan kirgan so'zlar*, 5) *rus tilidan kirgan so'zlar* ("O'zbek tili" darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

KO'CHIRISH QOIDALARI

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxtakor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *diagramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 5-, „A“ sinf, V, „B“ guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: „Navro‘z–92“ (festival), „O‘qituvchi–91“ (ko‘rik tanlov), „Andijon – 9“, „Termiz–16“ (g‘o‘za navlari), „Boing–767“ (samolyot), „Foton–774“ (televizor) kabi.

82. A. J. Jabborov, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

1956-yilning 4-aprelida qabul qilingan „O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidolari quyidagi 5 bo‘limdan iborat bo‘lgan:

1. Ayrim harflarning imlosi (1-30-qoidalar).
2. O‘zak-negiz va qo‘shimchalar imlosi (31-55-qoidalar).
3. Qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari imlosi (56-58-qoidalar).
4. Bo‘g‘in ko‘chirilishi (59-62-qoidalar).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-qoidalar).

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Shaxs nomlari qanday yoziladi?
2. Jo‘y nomlariga (toponimlar) qanday ob‘ektlar kiradix Ularning yozilishiga misollar keltiring.
3. Mamlakatlar va mansablari tarkibidagi har bir so‘z qanday yoziladi, ularga misollar ayting.
4. Qanday tarixiy voqea va bayram nomlarini bilasizx Bu nomlarning yozilishi xaqidagi qoidani bayon qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining imlo qoidolari. 1995 y.
2. Raxmatullaev SH. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. 1995 y.
3. Raxmatullaev SH. Orfografiya qoidolari – savodhonligimiz asosi. Toshkent. 1980 y.
4. Jamolhonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2005 y.

10-mavzu: Yangi imlo qoidalariga asosan ayrim so'zlarning yozilishi.

Tayanch tushunchalar: Tovush, harf, diftong, monoftong, harfiy birikma, baynalminal so'zlar, ayrim harflar.

R E J A:

1. *ë, ю, я harflari qo'llaniladigan so'zlarning imlosi.*
2. *Ayrim baynalminal so'zlarni to'g'ri yozish me'yorlari.*

O'zbek lotin alifbosida o'zbek kirill alifbosidagi yo, yu, ya harflari o'rniga qaysi harflarni yozish ular bajaradigan vazifaga bog'liq.

1. *ë, ю, я harflari ikki tovushni (й+unli) ifodalashga xizmat qilsa, bu harflar o'rniga yo, yu, ya harflari yoziladi: заём - zayom, юмор - yumor, ядро – yadro, ёмғир - yomg'ir, ютук - yutuq, яхши – yaxshi kabi.*

2. *ë, ю, я harflari o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoq ekanini ko'rsatishga xizmat qilsa:*

1) *asosan ë harfi o'rniga o harfi, ю harfi o'rniga u harfi, я harfi o'rniga a harfi yoziladi: стажёр - stajyor, люстра - lustra, фляга - flaga kabi;*

2) *so'zning talaffuzi keskin o'zgarib ketmasligi uchun qisman ë harfi o'rniga yo harflari, ю harfi o'rniga yu harflari, я harfi o'rniga ya harflari yoziladi: актёр - aktyor, бюро - byuro, снаряд - snaryad kabi.*

Ko'rinadiki, *ë, ю, я harflari o'zidan oldin kelgan undoshning yumshoqligini ko'rsatish uchun xizmat qilsa, uzbek lotin alifbosida ikki xil aks ettiriladi. Qachon bir harf va qachon ikki harf yozishni qoidalashtirib bo'lmaydi, shu sababli bunday harf qatnashadigan so'zlarning to'g'ri yozilishi imlo lug'atida ko'rsatiladi.*

«O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati»ga (O'zFA nashriyoti, 1962) kiritilgan so'zlarning 41tasida ë harfi shunday vazifada kelgan. Ana shu so'zlarning 17tasida ë harfi o'rniga o harfini yozish yetarli: dirijor, likor, schotchik, uchot kabi. Quyidagi 24 so'zda esa ë harfi o'rniga yo harflari yoziladi: aktyor, dublyor, transportyor, boksyor, montyor, partnyor, rejissyor, repartyor, sapyor, suflyor, shafyor, minomyot, pulemyot, samolyot, vertolyot, amyoba, slyot....

Shu lug'atga kiritilgan so'zlarning 55tasida ю harfi shunday vazifada kelgan. Ana shu so'zlarning 51tasida ю harfi o'rniga u harfini yozish yetarli: a1umini, budjet, luks kabi. Quyidagi 4 so'zda esa ю harfi o'rniga yu harflari yoziladi: byuro, byust, menyu.

Shu lug'atga kiritilgan so'zlarning 47tasida я harfi shunday vazifada kelgan. Ana shu so'zlarning 38tasida я harfi o'rniga a harfini yozish yetarli: molekular, yubilar, sentabr, oktabr kabi. Quyidagi 9 so'zda esa я harfi o'rniga ya harflari yoziladi: dvoryan, slavyan, naryad, snaryad, zaryad, zaryadka, plyaj, tyaga.

IX. Uzbek kirill alifbosidagi:

9) *ц harfi o'rniga uzbek lotin alifbosida:*

a) soʻz oxirida, soʻz boshida, old qoʻshimchadan keyin, undoshdan keyin s harfi yoziladi: кварц - kvars, шприц - shpris, целлофан - sellofan, цилиндр – silindr, антициклон - antisiklon, конструкция - konstruksiya kabi;

b) boshqa hollarda unlidan keyin ts yoziladi: глицерин - glitsirin, гербицит - gerbitsit, конституция- konstitutsiya kabi.

2. Ruscha ш harfi oʻrniga uzbek kirill alifbosida ш yoki шч harflari yozilar edi, uzbek lotin alifbosida sh yoziladi (faqat meshshan soʻzida ikkita sh yoziladi): община - obshina, ямщик - yamshik kabi.

3) ь belgisi:

a) undosh tovushning yumshoqligini koʻrsatsa, uzbek lotin alifbosida yozilmaydi: альбом - albom, вольт - volt, апрель - aprel, нефть - neft kabi;

b) ayirish belgisi vazifasini bajarsa:

- ю, я, е harflaridan oldin kelganida belgi tashlanib, ю, я, е harflari oʻrniga yu, ya, ye harflari yoziladi: интервью - intervyyu, фортепьяно - fortepyano, премьера - premьера kabi;

- о, и harflaridan oldin kelganida belgi oʻrniga у harfi yoziladi: павильон - pavilyon, батальон - batalyon kabi.

4) ъ belgisi:

a) rus tilidan olingan suzlarda tashlanib, undan keyin kelgan е, ю harflari oʻrniga ye, yu harflari yoziladi: разъезд - razyezd, адъютант - adyutant kabi;

b) arab tilidan olingan suzlarda bu belgi tutuq belgisiga almashtiriladi: маъно - maʼno, санъат - sanʼat kabi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. YOlashgan unlilar qachon bir tovushni, qachon ikki tovushni ifodalaydi?
2. S harfi qaysi oʻrinlarda qanday yoziladi?
3. Baynalminal soʻzlardagi ayrish va yumshatish belgilari yangi alifboda qanday ifoda etiladi?
4. YAngi alifboning muhim jihatlari nimalar?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbek tilining imlo qoidalari. 1995 y.
2. Raxmatullaev SH. Oʻzbek tilining yangi alifbosi va imlosi. 1995 y.
3. Raxmatullaev SH. Orfografiya qoidalari – savodhonligimiz asosi. Toshkent. 1980 y.
4. Jamolhonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2005 y.

11-mavzu: Punktuatsiyasi, uning predmeti va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: Punktuatsiyasi, tizim, shartli belgi, grafika, orfografiya, sintaksis, intonatsiya, simantika, struktura, emosiya, funksiya, funksional taraqqiyot, bosqichlar.

R E J A:

1. *Punktuatsiyasining predmeti va vazifalari.*
2. *Punktuatsiyasining boshqa sohalari bilan aloqasi.*
3. *Tinish belgilarining o'ziga hos xususiyatlari.*
4. *Punktuatsiyasining taraqqiyoti.*

Punktuatsiyasi lotincha so'z bo'lib, «nuqtalar ilmi» demak. Qadimgi latin, grek va got yozuvlarida so'zlar ba'zan bo'sh joy (interval), ba'zan esa nuqtalar vositasida bir-biridan ajratilgan. YOzuvda so'zlarni nuqta bilan ajratish O'rta Osiyo xalqlarining oromiy (eramizning I asrigacha), turkiy runik yozuv yod-nomalari (V—VIII asrlar)da ham qisman uchraydi. Qadimgi yozuvlardagi bu usul — so'zlarni nuqta ishorasi vositasida ajratish usuli — hozir punktuatsion usul deb yuritiladi. YOzuv taraqqiyotiga bog'liq holda nuqtalar vositasida ajratish usulining rivojlanishi hozirgi punktuatsiyasining kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Punktuatsiyasi termini uch ma'noda qo'llanadi: a) tinish belgilari sistemasi va qo'llanish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim; b) punktuatsion qonun-qoidalar — normalar yig'indisi, to'plami; v) tinish belgilari (znaki prepinaniya). Punktuatsiyasi milliy til yozuviga xos maxsus va mustaqil bo'lim, unda tinish belgilari miqdori, ma'no va vazifalari hamda ularning qo'yilish o'rinlari va qo'llanish usullari, o'ziga xos xususiyatlari va yozuvning boshqa vositalaridan farqi kabi qator hodisalar tekshiriladi. Demak, punktuatsiyasining tekshirish ob'ekti tinish belgilaridir.

Punktuatsiyasi milliy til grafikasi (yozuvi)ning tarkibiy qismi hisoblanadi: hozirgi o'zbek grafikasi ikki xil tipdagi belgilar (grafemalar) sistemasidan iborat: a) harflar — bular, 29 ta shartli belgidan iborat bo'lib, o'zbek tili alfavitini; b) tinish belgilari — bular, 10 ta shartli belgidan iborat bo'lib, o'zbek tili punktuatsiyasini tashkil etadi. Binobarin, hozirgi o'zbek grafikasi 39 ta shartli belgidan iborat bo'lib, ular yozma nutqning ifodalanishida asosiy (markaziy) sistema sanaladi. Shuning uchun o'quv-o'qituvda, savodxonlikni oshirish va nutq madaniyatini egallashda alifboni o'rganish qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktuatsiyasini puxta bilish ham shunchalik ijtimoiy-amaliy va nazariy qimmatga ega. Ular o'z spesifik xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi.

Punktuatsiyasi — yozuv oynasi. Yozuv orqali ifodalangan har bir gapning mazmuni, ma'no turlari (ottenkalari) va sintaktik qismlari orasidagi turli munosabatlar-ni aniqlashda punktuatsiyasining roli muhimdir. Punktuatsiyasi yozuvchi" va o'quvchi (kitobxon) o'rtasidagi ijtimoiy aloqa-aralashuvni ta'minlashda ham muhimdir. Punktuatsiyasi, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon eta olish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga

muvofig tushuna olish imkoniyatini yaratadi: bir tinish belgisi yozuvchi tomonidan qanday ma'no va funksiyada qo'llangan bo'lsa, mazkur belgi o'quvchi tomonidan ham xuddi shunday funksiyada tushuniladi. Punktuatziyasi yozma matnning tushunilishini osonlashtirish, mazmunini oydinlashtirish, unga aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi. Punktuatziyasini musiqa asarlari notasiga o'xshatish mumkin. Nota musiqa asarini anglash uchun qulaylik tug'dirsa, tinish belgilari yozma nutq mohiyatini yaxshi tushunishni ta'minlaydi.

Punktuatziyasi — ijtimoiy hodisa. Davrlar o'tishi, yozuvning taraqqiysi va yozuv madaniyatining o'sishi bilan punktuatziyasi ham o'zgarib, takomillashib boradi. YOzuvda dastlab qo'llanilgan tinish belgilarining qo'yilish o'rni, usuli, vazifasi hozirgi holatdan boshqacha bo'lgan, ularning vazifasi hozirgidek aniq. va murakkab bo'lmagan. Masalan, dastlab yulduzcha va romba tipidagi 10 dan ortiq ishoralar nuqta vazifasida ishlatilgan. XIX asrning oxiriga kelib, yozuvda hozirgi nuqtaning qo'llanishi qat'iylashgach, ular nuqtalikdan chiqqan. Demak, davr talabiga bogliq holda punktuation sistema o'zgarib boradi, mukammallashadi. SHuningdek, punktuatziyasi va punktuation sistema tillararo har xildir. Punktuatziyasi ayrim xalqlar yozuvida oldinroq, ayrimlarida esa nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Masalan, ingliz tili punktuation sistemasida o'n ikkita tinish belgisi bor, ularda apostrof, defislar ham tinish belgisi sanaladi; o'zbek tilida esa tinish belgilari miqdori o'ntadir. Punktuation sistema rus yozuvida XVIII asrda, o'zbek yozuvida esa XIX asrning II yarmidan keyin vujudga kelgan.

Punktuatziyasi quyidagi asosiy vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:

1) yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali bo'ladigan ijtimoiy aloqaaralashuvni to'g'ri ta'minlash uchun. Agar nominativ gap yozuvchi tomonidan «Tong?», «Tong!» tarzida ikki xil tinish belgisi bilan yozilgan bo'lsa, o'quvchi shu belgilar yordamida birinchi gapda so'roq, ikkinchi gapda his-hayajon, undov ma'iosi borligini darrov anglaydi va yozuvchining maqsadini aniq tushunadi;

2) yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma'nolarni aniqlashtirish, farqlash uchun. Masalan, gap oxiriga qo'yilgan nuqta, so'roq, undov va ko'p nuqtalarning har biri shu gapda qanday ma'no va maqsad ifodalanganligini bildiradi hamda ularni bir-biridan farqlaydi;

3) gap (yozma nutq) strukturasi aniq belgilash — gapni tashkil etuvchi qismlar, gap bo'laklari va gaplarning tuzilishiga xos turli munosabatlarni ko'rsatish uchun. Punktuatziyasining bu vazifasi kirish, kiritma va undalmali uyushiq va ajratilgan bo'lakli sodda gaplarda, bog'lovchisiz qo'shma gaplar hamda ko'chirma va muallif gapining ajratilishida yaqqol ko'rinadi;

4) yozma nutqning ixcham va ravon ifodalanishi — stilistik qulaylik uchun. Qiyoslang: Toshkentdan Andijonga qatnaydigan poezd — «Toshkent — Andijon» poezdi. Keyingi misolda tirening qo'llanilishi gapni ancha ixchamlashtirgan;

5) ba'zan yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun punktuatziyasi zarur bo'ladi. Masalan: Tavba!.. Bu la'nati, asti, nima qiladi?! (Uyg'un) Bu gaplarda «taajjub+kuchli his-hayajon», «so'roq+taajjub» munosabatlari ifodalangan. Hozirgi o'zbek adabiy tili va adabiy til funksional stillarining taraqqiy etishi, yozma nutq madaniyatining o'sishi, respublikamizda matbuot va nashriyot

ishlarining keng rivojlanishi punktuatsiyasining ijtimoiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

Puntuatsiyasi, grafika va orfografiya. Puntuatsiyasi yozuvning ajralmas bir qismi va grafik sistemalardan bo'lganligi uchun harflar sistemasi (alfavit) va yozuv sistemasi — grafika bilan yaqin aloqadadir. Arab grafikasi sistemasidagi qadimgi o'zbek yozuvida tinish belgilari va bosh harflar bo'lmagan. SHuningdek, arab yozuvida so'zlar na interval vositasida, na boshqa belgi vositasida biri ikkinchisidan ajratilmagan. Keyinchalik, XIX asrning II yarmidan boshlab, turmush talabi, hayotiy ehtiyoj va boshqa yozuvlarning ta'siri natijasida arab grafikasidagi o'zbek yozuvida ham tinish belgilari qo'llana boshlagan. Biroq o'zbek yozuvida dastlab so'roq belgisi, nuqtali vergul va vergul, arabcha usulga ko'ra, teskari holatda ishlatilgan; o'zbek yozuvi lotin grafikasi sistemasiga ko'chgach, bu tinish belgilari hozirgidek o'ng holatda qo'yiladigan bo'ldi. Nuqta, so'roq, undov belgilaridan keyin kelgan gaplarning bosh harf bilan boshlanishi ham punktuatsiyasi va grafikaning bevosita aloqadorligini ko'rsatadi: agar nuqta bir gapning tugallanish chegarasini ko'rsatsa, bosh harf nuqtadan keyingi gapning boshlanish chegarasini bildiradi. Lekin bundan «bosh harflar ham punktuatsion xususiyatga ega» degan ma'no chiqmaydi. Vergul, ikki nuqta va nuqtali vergullardan keyingi gaplarning kichik harf bilan boshlanishi (agar atoqli ot bo'lmasa), bir tomondan, punktuatsiyasi, grafika va orfografiyaning o'zaro uzviy aloqadorligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, bular orasidagi munosabatni o'rganish, aniqlash ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

Puntuatsiyasi va sintaksis. Puntuatsiyasi - sintaksis bilan uzviy aloqador. Puntuatsiyasi qoidolari mazkur tilning sintaktik qonuniyatlari, normalari asosida talqin etiladi. Puntuatsiyasi qoidalarini sintaktik qurilishga bog'lab bayon qilishning, shu asosda belgilashning o'z ilmiy-metodik prinsiplari va usullari mavjud. Matnning gaplarga bo'linish, gapning tuzilishi jihatidan muayyan sintaktik qismlarga ajratilish qoidolari asosiy punktuatsion qoidalar hisoblanadi. Shuning uchun punktuatsiyasi — yozuv tilining uch asosi elementi (grafika, orfografiya va punktuatsiyasi)dan biri. Har bir tinish belgisining qo'llanish o'rni va tartibini belgilashda mazkur tilning barcha grammatik sintaktik xususiyatlari hisobga olinadi. Yozma matndagi har bir tinish belgisi muayyan sintaktik hodisani aks ettiradi.

Puntuatsiyasi sintaksis bilan mustahkam aloqada bo'lib, punktuatsiyasi prinsiplari, punktuatsion sistema sintaktik qurilishga asoslanadi. Biror gap yo'qki, unda hech qanday tinish belgisi ishlatilmagan bo'lsin. Har qanday gapda tinish belgilaridan birortasi albatta ishlatiladi. Hozirgi kundalik matbuotimizga nazar tashlasak, har 7—8 so'zga bir tinish belgisi to'g'ri kelishini ko'ramiz. Demak, punktuatsiyasi yozma matn uchun muhim zaruriy vositalardan bo'lib, matnni gaplarga ajratadi va gapning har qanday turida qo'llanadi.

Puntuatsiyasi va intonatsiya. Hozirgi o'zbek yozuvida punktuatsiyasi, asosan, sintaktik funktsiya bajarishini. yuqorida ko'rdik. Lenin punktuatsiyasi, bundan tashqari, fonetik funktsiyani ham bajarishi mumkin. Puntuatsiyasining fonetik funktsiya bajarishi ba'zan intonatsiyada ham ochiq ko'rinadi. Masalan, nuqta, so'roq va undov belgilari muayyan intonasion tugallikning signali sifatida tushuniladi; vergulning uyushiq bo'laklarda qo'llanishi sanash intoiasiyasiga teng keladi; kirish

konstruksiyalar va undalmalar og'zaki nutqda qisqa to'xtam bilan gap bo'laklaridan ajraladi, yozuvda esa punktuatsion belgi vositasida ajratiladi.

Lekin, bunday yaqin aloqada bo'lishiga qaramay, punktuatsiyasi va intonatsiya o'zaro farqlanadi. Bu farq, avvalo, ularning ikki sohaga xos vosita usuli bo'lishi bilan, ya'ni punktuatsiyasi yozma nutqqa, intonatsiya esa og'zaki nutqqa xosligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, tinish belgilarining ishlatilishi hamma vaqt intonatsiyaga mos kelavermaydi. Punktuatsiyasi tarixida tinish belgilarining ishlatilishini faqat intonatsiyaga bog'lab izohlash hollari ham bo'lgan. Masalan, prof. A. M. Peshkovskiy ko'proq shu yo'lni tanlagan. Ammo punktuatsiyasini faqat intonatsiyaga bog'lash masalaga bir yoqlama yondashishdir. Chunki hech vaqt orfografiya orfoepiyaga to'liq mos kelmaganidek, punktuatsiyasi ham intonatsiyaga aynan mos kelmaydi. Shuningdek, intonatsiya gapni shakllantiruvchi asosiy grammatik vositalardan biridirki, uni alohida ajratib olish mumkin emas: gap semantik, grammatik va intonasion jihatlarning dialektik butunligidan tashkil topadi.

Puntuatsiyasining intonatsiyaga to'liq mos kelmasligi quyidagilardan ko'rish mumkin:

1. Gapning ma'noli qismlari — sintagmalar — nutq jarayonida qisqa to'xtamlar bilan ajratib talaffuz qi-linadi. Lekin bunday to'xtamlar yozuvda tinish belgilari bilan ko'rsatilmaydi: YOz oylari //Naymanchaning ko'chalari// tuproqdan chang bo'lardi. (A. Muxtor) Bu gapda qisqa to'xtam bilan ajratib talaffuz etiladigap uchta sintagma bor, ammo ular o'zaro tinish belgilari bilan ajratilmagan.

2. Albatta, axir, xolos tipidagi kirish so'zlar gap oxirida kelganda, ularning to'xtam bilan ajratilishi uncha sezilmaydi, ularni ajratuvchi to'xtam juda qisqa bo'ladi. SHunga qaramay, ular yozuvda tinish belgilari bilan ajratiladi: Boboxo'ja domla bitta sonni yozish uchun doskaga bo'r surkab, qancha qimirlatar edi, axir. (P. Tursun) Ishning bir qismi maishnalar bilan bajariladi, albatta. (SH. R.)

3. Gap o'rtasida va oxirida kelgan undalmalarda to'xtam, ohang — intonatsiya uncha sezilmaydi, ammo yozuvda doim vergul bilan ajratiladi: Ha, bir musht urdim, o'rtoq polkovnik, ikki mushtni ko'tara olmas ekan. (A. Q.) Senda nima yumush bo'lsin, Ra'no.

4. Bog'lovchilar va nisbiy so'zlar vositasida munosabatga kirishgan ajratilgan bo'laklardan keyin hech qanday to'xtam bo'lmaydi, lekin vergul bilan ajratiladi. Shunaqa qilib, nazir qilingan ikki qiz eshonzodaga, ya'ni Nu'monjonga, qoldi. (A.Q.)

5. Sodda gaplarda kesim ot- bilan ifodalanganda va bog'lama olmaganda egadan keyingi to'xtam sezilmaydi, biroq yozuvda tire qo'yiladi: Gazeta — ommaga! Yo'lchi — «Qutlug' qon» romanining bosh qahramoni.

6. Gap ichida kelgan sitatalar, ko'chirma nutqlar turli tipdagi nomlar, ko'chma ma'nodagi so'zlar so'zlashuvda alohida ohang, to'xtam va intonatsiya bilan aytilmaydi, lekin yozuvda qo'shtirnoq bilan ajratib ko'rsatiladi: Dastlabki bir million baliq: oqamur, do'ngbosh, zog'orabaliq va kumushsimon tovonbaliq «yozgi kvartiralar»ga ko'chib o'tdi. («Toshk. oqshomi»)

Demak, yozma matndagi tinish belgilari shu o'rinda intonasion munosabatning qanday ekanligini aniqlashga yordam beradi. SHuning uchun tinish belgilari qo'yilgan o'rinlarda intonatsiyaning qay darajada ekanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki matndagi gaplarni yozish jarayonida ularning qanday

intonatsiya bilan aytilgani o'quvchiga noma'lum bo'ladi. O'quvchi yozma matnda qanday to'xtamlar bor yoki yo'qligini, intonatsiya qanday ekanligini qisman tinish belgilari orqali bilishi mumkin. Masalan, G'alla plani bajarildi! gapida qanday mazmuniy munosabat borligini va bu mazmunning (undov mazmunining) intonatsiya bilan bevosita bog'liqligini undov belgisidan bilamiz.

Xullas, punktuatsiyasi va intonatsiya ikki xil nutq turiga xos mustaqil kategoriyalar bo'lib, birbiriga teng kelmaydi, punktuatsiyasi intonatsiyaning yozuvdagi ifodasi emas. Ularning o'zaro aloqadorligi haqida gapirilganda intonatsiyaning gapdagi darajasi hisobga olinadi. Punktuatsiyasi va intonatsiya munosabati alohida tekshirish ob'ekti bo'lib, eksperimental o'rganishni talab etadi.

Hozirgi yozuvimizda ikki tipdagi belgilar sistemasi mavjud: a) markaziy, asosiy belgilar sistemasi (harflar va tinish belgilari); b) qo'shimcha belgilar sistemasi (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, tipografik belgilar va boshqalar).

Qo'shimcha belgilar — tipografik belgilarga abzas interval, kursiv, havola va yulduzcha tipidagi turli xil ishoralar kiritiladi. Bular ayrim uslublarda, nashriy matnlarda chegaralangan doirada ishlatilishi, yozuvga shartli, yordamchi, qo'shimcha belgi sifatida kiritilishi ko'proq matbaachilika xosligi bilan tinish belgilaridan farqlanadi. Hozirgi kundalik matbuotimiz sahifalarida yulduzcha tipidagi ishoralar, ilmiy asarlarda havola (snoska) kabi qo'shimcha belgilar (tipografik belgilar) uchray turadi.

Demak, tinish belgilari punktuatsiyasining tekshirish predmeti bo'lib, hozirgi yozuv sistemasida markaziy, asosiy sistemalardan birini tashkil etadi. Tinish belgilarining yozuvning barcha formolari va uslublarida birdek qo'llanishi, bir tomondan, ularning yordamchi belgilar sistemasidan farqlanishini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, markaziy belgilar sistemasiga kirishini taqozo etadi.

Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til vositalari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham katta ahamiyatga ega.

Go'zal bahor keldi!..bu gapda «ta'kid+sevinch+kuchli hayajon» ma'nolari bor. SHuningdek, kesatiq, mazax, kamsitish, kinoya ma'nosidagi so'zlar yozuvda ko'proq qo'shtirnoq bilan beriladi; qo'shtirnoq shu so'zning o'zgacha ma'noda ishlatilganligini bildiradi: agar «o'qimishli» so'zi qo'shtirnoqqa olib berilsa, undan «savodsiz» degan ma'no kelib chiqadi.

Hozirgi kunda punktuatsiyasining roli ortib, uning funksiyasi va qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Bu hodisa respublikamizda matbaachilik, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi, o'zbek yozuv madaniyatining taraqqiy etishi, kishilar savodxonligining oshishi va ularning o'z amaliy faoliyatlarida nutqning barcha formalaridan foydalana olishlari, adabiy til ta'sirining kengayishi, adabiy til funksional uslublarining paydo bo'lishi va takomillashuvi—nutq madaniyatining keng ko'lamda ravnaq topishi va o'sishi bilan izohlanadi.

Tinish belgilarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. Punktuatsion sistemaga kiruvchi har bir tinish belgisi ijtimoiy-sotsial vazifa bajaradi. Tinish belgilari milliy yozuvning ajralmas qismi bo'lib, umumme'yor, umumyozuv xususiyatiga ega, ya'ni har bir tinish belgisi yozuvning qanday shaklida

qo'llanmasin, aniq bir asosiy ma'noni ifodalaydi va bir xilda tushuniladi. Masalan, a, b kabi belgilar kishilar tomonidan o'z ma'nosida qanday tushunilsa, ?, ! kabi tinish belgilari ham o'z asosiy ma'nosida shunday tasavvur qilinadi. Demak, tinish belgilari kishilar o'rtasida yozuv orqli amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabat-fikrlashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu ularning asosiy sotsial vazifasidir.

2. Tinish belgilarining qo'llanishi nutqning ifoda maqsadi, semantik-grammatik strukturasi bilan bog'liq bo'ladi. Yozuvchi qanday maqsadni ifodalamoqchi bo'lsa, tinish belgilarini shu maqsadga muvofiq tanlaydi.

3. Tinish belgilarining ishlatilishi grammatik-sintaktik qonuniyatga asoslanadi. Chunki ularning asosiy vazifalaridan biri matnni gaplarga ajratish va gap ichidagi aloqador qismlar munosabatini to'g'ri ta'minlashdir.

4. Tinish belgilarining har biri o'z grafik shakliga va qo'llanish tizimiga ega. Bu ularni tipografik belgilar bilan qiyoslaganda yaqqol ko'rinadi. Masalan, tipografik belgi xatboshi keng qo'llanilsada maxsus ko'rinishga ega emas.

Punktuatsiyasi tarixiga nazar tashlasak, tinish belgilarining yozma nutqqa xos hodisa ekanligini va yozma nutq formasining zaruriy material elementi sifatida rivojlanganini va takomillashganini ko'ramiz. Tinish belgilarning yozma nutqdagi rolini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Tinish belgilari va gap semantikasi. Bunda tinish belgilari gapdagi mazmunni aniq ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tinish belgilari, gapga xos umumiy semantik munosabatlarni ifodalabgina qolmay, gap qismlariga xos mazmuniy munosabatlarni ham bildiradi: It hurar — karvon o'tar. (Maqol) Keltirilgan gapda ziddlik munosabati ifodalangan. Bunda tire, qo'shma gapni tashkil etuvchi gaplar orasidagi turli semantik aloqalarni (ma'nolarni) anglatish bilan birga, sintaktik vazifani - gaplarning birini ikkinchisidan ajratish vazifasini — bajarayotir. Bir tinish belgisining turli ma'noda ishlatilishi punktuatsion omonimiya deyiladi.

2. Tinish belgilari va gap strukturasi. Tinish belgilari gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari (kirish, kiritmalar, undalmalar va boshqalar) hamda gaplar ning o'zaro turli sintaktik munosabatlarini ko'rsatish uchun qo'llanadi: Onam, opam, akam, bobom, buvim va men — hammamiz ayvonda dasturxon atrofida davra qurganmiz.

3. Tinish belgilari va gap emosiyasi. Tinish belgilari yozma matndagi turli holatlar, emotsional – ekspressivlik va turli mazmuniy ottenkalarni ifodalash uchun qo'llanadi.

Punktuatsiyasi polisemantik — ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega. Har bir tinish belgisi yozma nutq jarayonida turli ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, nuqta darak gaplar oxirida ishlatilganda, shu gaplarning tabiatiga qarab, turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin: Bahor keldi. Yomg'ir yog'sa kerak. Salim sayohatga bormoqchi. Mashqdagi misollarni ko'chiring. Uydagilarga salom ayting. Bu gaplarda nuqtaning ma'nosi sof xabar, gumon, maqsad, buyruq-tashviq, iltimos (istak) tushunchalari bilan bog'lanadi. Shuningdek, A. S. Pushkin, M. T. Oybek, R. O. Uyg'un, K. N. Yashin tipidagi qo'llanishlarda nuqta so'zlarning qisqarganligi ma'nosini bildiradi.

Hozirgi zamon yozuvida tinish belgilarining funksiyasi juda taraqqiy etib, ularning qo'llanish doirasi har jihatdan kengaydi. Masalan, tire hozirgi o'zbek

yozuvida 20 ga yaqin funksiyani bajaradi. Demak, punktuatsiyasi polifunksional xususiyatga ham ega.

Puntuatsiyasining funksional taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkin:

1-bosqich. Qadimgi yozuvlarda ishlatilgan punktuatsion harakterdagi ishoralarning dastlabki funksiyasi — ajratishdir: ular yozuvga «ajratuvchi belgilar sifatida kiritilgan. Ajratuvchi belgilar matnda so'zlarni formal ajratish uchun qo'llangan, xolos. Ammo hech qanday ma'no ifodalamagan. So'zlar interval vositasida, ayrim nutq parchalari — gap yoki gap qismlari «punktuatsion» ishora vositasida ajratilgan.

Demak, punktuatsiyasi taraqqiyotida birinchi bosqich ajratish funksiyasining kuchliligi bilan harakterlanadi.

2-bosqich. Puntuatsiyasi taraqqiyotidagi keyingi davr (ikkinchi bosqich) ajratuvchi belgilar semantikasining taraqqiyoti va ularning punktuatsion belgiga aylaninishi bilan harakterlanadi. Ikkinchi bosqichda ajratuvchi belgilar semantik vazifani ham bajara boshlaydi. Ajratuvchi belgilar dastlab semantik jihatdan umumiy funksiyani bajargan: oxiriga ajratish belgisi qo'yilgan nutq parchalari (gaplar) xabar, so'roq, buyruq kabi har xil ma'nolarni ifodalagan. Keyinchalik gaplarda ma'nolarni ajratish, farqlash zarurati — hayotiy ehtiyoj tug'ilgan.

Yozuvdagi mazmuniy munosabatlarni farqlash ehtiyoji tufayli ajratuvchi belgilarning turli xil shakllari paydo bo'lgan: bir nukta, ikki nuqta; nuqtalar kombinatsiyasi. Lekin har bir ishoraning ma'no farqlash funksiyasi umumnorma darajasiga yetmaydi.

3-bosqich. Puntuatsiyasi taraqqiyotining bu bosqichida semantik funksiya ifodalovchi punktuatsion ishoralar muayyan normaga, sistemaga kiradi, ularning semantik funksiyasi konkretlashadi. Puntuatsion ishoralar semantikasi, vazifasi va shaklining qat'iylashuvida matbaachilikning vujudga kelishi, kitob nashr etish ishlarining paydo bo'lishi omil sanaladi. Kitob, gazeta va jurnallarning ko'plab nashr etilishi adabiy tilning ijtimoiy funksiyasini kengaytiradi. Natijada, yozma adabiy til matbuot va nashriyot tili funksiyasini ham bajara boshlaydi; yozma adabiy tilning umumharakterdagi muayyan usul va normalari vujudga keladi.

Nashr etilgan kitobdagi har bir gapning ma'no va ma'no ottenkalarini keng kitobxonlar ommasiga to'lig'icha va aniq yetkazish zaruriyati, tabiiyki, yozma matnni qismlarga ajratish va bu qismlardagi semantik munosabatlarni ifodalovchi punktuatsion ishoralarni yanada takomillashtirish, sistemalashtirishni taqozo etar edi. Binobarin, har bir punktuatsion ishora, ma'lum semantik munosabatnigina bildirmay, shu ma'noga bog'liq holda turli emotsional-ekspressiv munosabatlarni (ma'no ottenkalarini) ham bajara boshlaydi: undov belgisi, buyruq ma'nosidan tashqari, turli hishayajon — undov munosabatini ham bildiradi; nuqta xabar ma'nosi uchun, ko'p nuqta (ikki nuqtadan to'qqiztagacha) esa ekspressivlik uchun ishlatila boshlaydi; emotsional munosabat ifodalovchi yangi punktuatsion ishoralar, paydo bo'la boshlaydi: qo'shtirnoq, qavs, tire kabi.

Puntuatsion sistemaning vujudga kelishi G'arbiy Evropa yozuvida XV asrdan, rus yozuvida XVIII asr dan, o'zbek yozuvida XIX asrning II yarmidan boshlangan

4-bosqich. Punktuatsiyasi taraqqiyotining bu bosqichi; tinish belgilarining funksiyasi har jihatdan taraqqiy etadi. Ayniqsa, ularning uslubiy (uslubiy) funksiyalari kengayadi. Bu — adabiy til funksional uslublarining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Punktuatsiyasi termini qanday ma'nolarda qo'llaniladi?*
2. *Punktuatsiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Punktuatsiyasi qaysi sohalar bilan aloqada bo'ladi?*
4. *Tinish belgilari nimaning ob'ekti hisoblanadi?*
5. *Tinish belgilarning yozma nutqdagi ahamiyati nimalarda ko'rinadi?*
6. *Punktuatsiyasining taraqqiyoti nechta bosqichga bo'lib o'rganiladi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalari. T, 1996.*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.*

12-mavzu: O'zbek punktuatsiyasi tarixi va nazariy asoslari.

Tayanch tushunchalar: Interval, rangli belgilar, ajratuvchi belgilar, grafika, yordamchi vositalar, bezak belgilari, ma'no belgilari, ta'kid belgilari, arab yozuvi, rus punktuatsion sistemasi.

Reja:

1. *Punktuatsiyasining kelib chiqishi.*
2. *O'zbek yozuvida punktuatsiyasining paydo bo'lishi va undagi asosiy omillar.*
3. *O'zbek punktuatsiyasi tarixini davrlashtirish.*
4. *O'zbek punktuatsiyasining asoslari.*

Punktuatsiyasi yozuvdan keyin paydo bo'lgan va ijtimoiy funksiyani ifodalagach, grafikaning tarkibiy qismiga aylangan. Eng qadimgi yozuvlar ko'proq piktografik (rasm-surat vositasida fikr ifodalash) yoki logografik—alohida belgi (so'z) vositasida fikr ifodalash harakterida bo'lganligidan punktuatsiyasiga ehtiyoj sezilmagan. Keyinchalik, davrlar o'tishi, ijtimoiy ongning o'sishi va, shunga bog'liq holda, yozuvning taraqqiy etishi munosabati bilan yozuvda punktuatsiyasi ishlatila boshlangan.

Punktuatsiyasining kelib chiqishi tillararo turli davrlarga to'g'ri keladi va ular turli xususiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun punktuatsiyaning kelib chiqishi —

punktuatsiyasi tarixi masalasi har bir xalq yozuv madaniyati tarixi asosida o'rganiladi. Punktuatsiyasiing vujudga kelishida quyidagi asosiy omillarni ko'rsatish mumkin. Bular o'zbek tili uchun xam taalluqlidir.

1. Yozuv sistemasining murakkablashuvi — sintetik (piktografik) usuldan analitik (so'zli, bo'g'inli va tovushli yozuv) usulga o'tishi hamda yozuvning turli usullari, formalarining vujudga kelishi va taraqqiy etishi.

2. Punktuatsiyasiga ijtimoiy ehtiyoj, zaruriyatning tug'ilishi: a) dastlab yozuvdagi grafemalarni (ishora, belgilarni) ajratish — bir belgini ikkinchisidan, bir harfli so'zni ko'p harfli so'zdan, so'z yoki ayrim nutq parchalarini ajratish — ehtiyojining tug'ilishi; b) hodisalarni yozuvda aniq ifodalash (ko'rsatish) ehtiyojining tug'ilishi; v) yozuvdagi omonimik holatlarni farqlashga intilishning paydo bo'lishi; g) yozuvning interpritasiya (izohlash, tushuntirish, ma'no berish) harakteriga ega bo'lishi kabi.

3. Til va tafakkurning dialektik taraqqiyoti tufayli turli xil harakat, holat va emotsional-ekspressiv munosabatlarni hamda turmush hodisalarini yozuvda ifodalash ehtiyojining paydo bo'lishi; yozuv ijtimoiy funksiyasining o'sishi: faqat tushuncha anglatish funksiyasidan ijtimoiy aloqa-aralashuvdagi turli xil munosabatlarni ifodalash vazifasini bajarish darajasiga ko'tarilishi.

4. Yozuv funksiyasining ortishi: tarixiy shaxslar, urug' yoki qabilalar hayotini aks ettiruvchi oddiy «bitik tosh» yozuvidan milliy yozuv darajasiga ko'tarilishi va turmushning barcha sohalarida keng qo'llanilishi. Bu jarayon davomida yozuv: a) fikrni mantiqli bayon qilish; b) maqsadni to'g'ri ifodalash; v) fikrni ifodali va aniq bayon etish; g) turli xil psixik-emotsional munosabatlarni ifodalash funksiyalarini o'tab keldi.

5. Turli yozuvlarning bir-biriga o'zaro ta'sir etishi. Masalan, rus punktuatsiyasining shakllanishi taraqqiyotida G'arbiy Evropa yozuvining; hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida esa rus yozuvi va punktuatsiyasining barakali ta'siri bor.

6. Ijtimoiy ehtiyoj, hayotiy zaruriyat va turmush talabi bilan yozuvga ayrim ishoralarining — qo'shimcha ishoralarining kiritilishi, shu tufayli yozuvda ajratish usulining paydo bo'lishi. Eng qadimgi yozuvlardagi ajratish usuliga ko'ra, yozma matn uch xil yo'l bilan ajratilgan: a) so'zlar bo'sh joy — interval vositasida bir-biridan ajratilgan; b) so'zlar nuqtalar vositasida o'zaro ajratilgan; v) ayrim so'zlar qizil rang bilan ajratilgan.

O'zbek punktuatsiyasi tarixi, taraqqiyot yo'llari ilmiy-nazariy asoslari masalasi ancha murakkabdir. O'zbek punktuatsiyasi tarixiga oid bu murakkablik, avvalo: 1) o'zbek punktuatsiyasi tarixining keng va chuqur tekshirilmaganligi va ilmiy asosda maxsus o'rganilmaganligi; 2) qadimgi o'zbek tili yodgorliklarini arab alifbosida bo'lishi, ulardan ma'lum qismini umumturkiy tillarga mansubligi; 3) o'zbek tili yodgorliklarining yakka shaxslar — xattotlar tomonidan ko'chirilganligi; 4) O'zbekistonda matbaachilikning paydo bo'lishi matbuot va nashriyot ishlarining rivojlanishi kabi masalalar bilan bog'liqdir.

O'zbek yozuvi madaniyati o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan va har bir davr o'z tarixiy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Qadimgi oromiy yozuvi eramizning V asrigacha mavjud bo'lgan va unda «ajratuvchi belgilar» (nuqta Ya interval) qo'llangan. V—VIII asrlarda O'rta Osiyoda keng ishlatilgan turkiy runik yozuvlarda ham bu xususiyat, ya'ni «ajratuvchi belgilar»ning qo'llanishi sanalangan va ancha rivojlangan. Qadimgi yozuvlardagi «ajratuvchi belgilar»ni yozuvga aniqlik kiritish maqsadida qo'llanilganligini hisobga olib, ularni shartli ravishda qadimgi yozuvlarga xos «punktuatsion belgi» deyish mumkin. Demak, oromiy va turkiy runik yozuvlari «ajratuvchi belgilar»ning qo'llanishi bilan harakterlanadi.

VIII asrga kelib arab yozuvi keng qo'llana boshlaydi. VIII asrdan boshlab arab yozuvining ishlatilishi yozuvdagi shu davrgacha bo'lgan sistema va an'ananing buzilishiga sabab bo'ladi. Endi «ajratuvchi belgilar» o'rniga arab yozuviga xos boshqa ishoralar qo'llana boshlaydi.

Arab grafikasida yozuvning yordamchi elementlari sifatida quyidagi ishoralar qo'llangan:

- a) «ta'kid belgilari»—tik to'g'ri chiziq, qizil va quyuq qora ranglar;
- b) «ma'no belgilari» — qur'ondagi turush va determinativlar;
- v) «bezak belgilari»— bular XIV—XIX asrlarda yozuvda keng qo'llangan. Bu davrda arab yozuviga isloh kiritish va so'zlarni interval bilan ajratish tendensiyasi ham boshlangan;
- g) tinish belgilari. Bular XIX asrning II yarmidan boshlab o'zbek yozuvida qo'llana boshlagan.

Demak, XIX asrning II yarmigacha arab grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida tinish belgilari bo'lmagan. Tinish belgilari o'zbek yozuvida XIX asrning II yarmidan so'ng qo'llana boshlagan. Arab yozuvidagi «yordamchi vositalar», o'z mohiyatiga ko'ra, punktuatsion belgi emas. «Yordamchi vositalar»dan ayrimlarining (masalan, bezak belgilarining) XIX asrning II yarmidan keyin «tinish belgisi» vazifasida qisman ishlatilishi ham o'zbek tili punktuatsiyasini tarixi shu davrdan boshlanganligini ko'rsatadi.

O'zbek punktuatsiyasini tarixining XIX asrning II yarmidan boshlanish sabablarini ko'rsatuvchi ob'ektiv tarixiy omillar:

1. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va rus madaniyatining o'zbek yozuviga ta'siri.

2. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoda (O'zbekistonda) poligrafiya (matbaachilik) vujudga keladi: bosmaxonalar, nashriyatlar paydo bo'lib, kitob, gazeta va jurnallar nashr etish ishlari boshlanadi. Shu munosabat bilan tilning ijtimoiy funksiyasi kengayib, yozuvning xo'jalikdagi roli ortadi. XIX asrning 70-yillarida o'zbek adabiy tili matbuot tili darajasiga ko'tariladi va turmushning eng muhim tarmoqlarida qo'llana boshlaydi. Kitob, gazeta, jurnallardagi har bir fikrni o'quvchiga aniq va to'g'ri yetkazish zaruriyati tug'iladi. Shu munosabat bilan kitob va gazeta sahifalarida tinish belgilarini qo'llash boshlanadi ham bu jarayon asta-sekin odat tusiga kira boradi. Kitob va gazetalarda tinish belgilaridan foydalanishda ruscha kitoblardagi an'analarga rioya qilina boshlaydi O'zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida ayniqsa, 1871 yildan muntazam ravishda va ikki tili (ruscha va o'zbekcha) nashr etilgan «Turkiston viloyatining gazetisi» muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

3. XIX asrning II yarmidan so'ng O'zbekistonda tarjima san'ati juda rivojlanadi. Rus tilidan o'zbek tiliga ko'plab badiiy asarlar tarjima qilinadi. Tarjima jarayonida ruscha matndagi tinish belgilari, tabiiyki, o'zbekcha nusxaga ham o'tadi.

4. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida turkiy tillar va turkiy yozuvlar haqida turli tipdagi ilmiy asarlar, grammatik qo'llanmalar paydo bo'ladi. Bularning ma'lum qismi rus turkolog olimlar tomonidan yozilgan bo'lib, bu asarlardagi matn parchalarida (misollarda), rus yozuvi an'anasiga ko'ra, tinish belgilari bilan ajratish holatlari uchraydi. Avvallari birda yarimda uchragan bu holat keyinchalik o'zbek yozuvida xam an'anaga aylanadi.

Demak, XX asr boshlarida o'zbek punktuatsiyasisi to'liq shakllangan. Bunda o'sha davrdagi ijtimoiy-tarixiy va madaniy-siyosiy sharoit muhim rol o'ynagan.

O'zbek punktuatsiyasisi taraqqiyotini ikki katta davrga bo'lib o'rganish mumkin:

Birinchisi XIX asrning II yarmidan to 1917 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va o'z navbatida ikki bosqichga bo'linadi. 1) 1870—1905 yillar; 2) 1905—1917 yillar. Bu davr o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanan boshlashi va bu qo'llashning odat tusiga kirishi hamda o'zbek punktuatsiyasining shakllanish jarayoni bilan harakterlanadi.

Ikkinchisi 1917 yildan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi: 1) 1917—1930 yillar; 2) 1930—1940 yillar; 3) 1940 yildan to hozirgacha bo'lgan davr. Bu davr esa o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanilishi muayyan tartibga kirganligi, o'zbek punktuatsiyasining sistemallasuvi va o'zbek grafikasining alohida bir qismi sifatida o'rganilishi bilan harakterlanadi.

O'zbek punktuatsiyasisi taraqqiyotini bunday davrlashtirish va bosqichlarga bo'lishda ijtimoiy-tarixiy, madaniy-siyosiy sharoitlar va o'zbek milliy yozuvi taraqqiyoti hamda undagi o'zgarishlar hisobga olinadi.

Punktuatziyasi asoslari masalasi faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki turkologiyada ham eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Punktuatziyasi asoslari masalasi bilan punktuatsiyasi prinsnplari masalasini o'zaro farqlash lozim.

Punktuatziyasi asoslari tinish belgilarining qanday nazariy fundament, tayanch, manba zaminida ishlatilishi, punktuatsiyasi prinsnplari esa ularning qanday usul va tartibda qo'llanishidir.

Punktuatziyasi nutqning (yozma nutqning) ifoda maqsadiga asoslanadi: tinish belgilari yozma nutqda ifod lanishi lozim va zarur bo'lgan maqsadga bog'liq holda ishlatilib, ma'lum kommunikativ funksiya bajaradi. Maqsad har bir til grammatik qurilishiga mos ravishda turli xil forma va usullarda ifodalanadi. SHun ko'ra, tinish belgilari tillararo har xil qo'llanadi.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, punktuatsiyasi asoslarini belgilashda, asosan, uch xil nuqtai nazar mavjudligini ko'ramiz. Bu oqimlar punktuatsiyasiga turli jihatdan yondashish, uning asosiy funksiyasini turlicha aniqlash tufayli kelib chiqqan.

Punktuatziyasiga ma'noni asos qilib olish. Bu oqim vakillari (masalan, S. I. Abakumov, A. B. SHapiro va boshqalar) punktuatsion qoidalarni belgilashda ko'proq semantikaga — gapning ma'nosiga, mazmuniga e'tibor beradilar. Tinish belgilarining qo'llanishini ma'noga bog'lab izohlaydilar.

Punktuatsiyasiga grammatik qurilishni asos qilib olish. Ular (masalan, S. Bulich, N. Grech, Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar) tinish belgilarning qo'llanishini aniqlashda ko'proq gapning sintaktik qurilishga diqqat qilib, tinish belgilarning ishlatilishni gap strukturasi bog'lab izohlaydilar.

Punktuatsiyasiga intonatsiyani asos qilib olish. Bu oqim tarafdorlari (L. V. Shcherba, A. M. Peshkovskiy, Q. Rustamov va boshqalar) punktuatsion qonun-qoidalarni gapning ohangi, intonatsiyasi bilan bog'lab tushuntiradilar.

Punktuatsiyasi asoslarini bunday belgilash bir yoqlama bo'lib, masalaning mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki intonatsiya ham, nutqning sintaktik strukturasi ham, gapning mazmuni ham alohida-alohida olinganda, ya'ni bir-biridan ajratilgan holda, punktuatsiya uchun asos bo'la olmaydi, chunki bular bir narsaning uch tomoni — bir hodisaning uch xususiyatidir.

Punktuatsiyasi asoslarini belgilashda nutq mazmuni, strukturasi va intonasion xususiyatlari bir butun holatda olib qaralishi zarur.

Punktuatsiyasi asosi deyilganda mazkur tildagi punktuatsion qoidalarining tafsiloti va tinish belgilarning qo'llanishi nimalarga bog'liqligi, ya'ni ma'lum tayanch (fundament) zaminida muayyan til punktuatsiyasining sistemalashuvi tushunilishi lozim.

O'zbek punktuatsiyasi, avvalo, o'zbekcha nutqning grammatik qurilishiga asoslanadi, ya'ni o'zbek tilining grammatik strukturasi o'zbek punktuatsiyasi uchun negiz, etakchi asos bo'lib xizmat qiladi va u o'zbek punktuatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Grammatik qurilish nutqning mazmun, intonasion va tuzilish jihatlarining bir butunligi (yaxlitligi)dir: bunda (nutqdagi semantik-grammatik munosabatning, butunligi, dialektik birligi — mazmun va shakl birligi — tushuniladi. SHu yaxlitlik zaminida konkret fikr-maqсад ifodalanadi. Gapdagi mazmun uning ichki tomonini, grammatik holat esa uning tashqi tomonini belgilaydi..

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Punktuatsiyasining vujudga kelishida qanday asosiy omillar rol o'ynagan?*
2. *Turkiy xalqlar yozuvlarida qanday ajratuvchi belgilar qo'llanilgan?*
3. *Arab grafikasida qaysi yordamchi elementlar qo'llanilgan?*
4. *Tinash belgilari o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?*
5. *O'zbek punktuatsiyasi tarixini davrlashtirish masalasi.*
6. *Tilshunoslik tarixida punktuatsiyasi asoslarini belgilashda qanday oqimlar vujudga kelgan?*
7. *Hozirgi o'zbek tili punktuatsiyasining asoslari nimalardan iborat?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalari. T, 1996*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.*

13-mavzu. O'zbek tilida tinish belgilari tasnifi.

Tayanch tushunchalar: Tinish belgilari, tasnif, qo'llanish o'rni, qo'llanish usuli, tuzilishi, vazifasi, yakka holda qo'llanuvchi, qo'sh holda qo'llanuvchi, bir elementli, ko'p elementli, sodda, qo'shma tinish belgilari, chegaralovchi, ayiruvchi, murakkab vazifali tinish belgilari.

Reja:

1. *Tinish belgilarining qo'llanish o'rniga ko'ra tasnifi.*
2. *Tinish belgilarining qo'llanish usuliga ko'ra tasnifi.*
3. *Tinish belgilarining tuzilish jihatidan tasnifi.*
4. *Tinish belgilarining vazifasiga ko'ra tasnifi.*

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari to'rt jihatdan – qo'llanish o'rni, ishlatilish usuli, tuzilishi va vazifasi jihatidan tasnif qilinadi.

Tinish belgilari qo'llanish o'rniga ko'ra uch katta gruppaga bo'linadi:

1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari.
2. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari.
3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga nuqta, so'roq va undov belgilari kiritiladi. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega: 1) gapning tugallanganligini ko'rsatadi; 2) gapda qanday mazmun-ma'no ifodalanganligini bildiradi; 3) gapning tugallanish chegarasini, mazkur gapning keyingi gapdan ajralishini ko'rsatadi; 4) ular gap oxiridan boshqa o'rinlarda ishlatilganda boshqa vazifa bajaradi va ayrim maqsadlar uchun ishlatiladi.

Oxiriga nuqta, so'roq va undov belgilari qo'yilgan gaplar bir tarkibli va ikki tarkibli, to'liq va to'liqsiz, tasdiq va inkor, sodda va qo'shma, ko'chirma va o'zlashtirma gap formalarida bo'ladi.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari, umumiy va o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, muayyan gapda qanday semantik munosabat (ma'no) ifodalanayotganligini bildirishi jihatidan o'zaro farqlanadi: nuqta mazkur gapdan xabar mazmuni, so'roq belgisi gapdan so'roq ma'nosi, undov belgisi esa gapdan buyruq, tashviq, emosiya kabi ma'nolar anglashilishini ko'rsatadi.

Demak, gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarining bir-biridan farqlanishi ularning qanday ma'no uchun qo'llanishiga va shakliga ko'ra belgilanadi.

Nuqta, so'roq va undov belgilari ba'zan gap o'rtasida ham ishlatiladi. Biroq bunda ular yuqoridagi asosiy funksiyani bajarmay, boshqa maqsad (vazifa) uchun qo'llaniladi. Masalan, YOZuvchi M. T. Oybek — o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi gapida nuqta gap o'rtasida kelib, so'zning qisqarganligini ko'rsatish uchun ishlatilgan. Bu erda u sintaktik funksiya bajarmaydi. Agar misoldagi qisqartirilgan so'zlarni to'liq yozsak, nuqtani ishlatishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Ko'rinadiki, nuqtaning gap o'rtasida qo'llanishi yordamchi, qo'shimcha mohiyatga ega bo'lib, uning bunday qo'llanishi yozuv texnikasi, yozuv usuli bilan

bog'liq. So'roq va undov belgilarining ham gap o'rtasida qo'llanishi yuqoridagi kabi o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi.

Vergul gap boshida yoki gap oxirida qo'llanmaydi, doim gap ichida ishlatiladi. Shuning uchun u gap o'rtasida qo'llanuvchi tinish belgisi sanaladi.

Hozirgi o'zbek tilida vergulning qo'llanish doirasi va funksiyasi kengaygan.

O'rin jihatidan aralash qo'llanuvchi tinish belgilariga ikki nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq, qavs, tirelar kiradi. Bular gapning boshida, o'rtasida va oxirida ham qo'llanadi. Ular o'z ichida quyidagicha gruppalanadi:

- a) gap boshida va o'rtasida qo'llanuvchilar; tire;
- b) gap oxirida va o'rtasida qo'llanuvchilar: ikki nuqta, nuqtali vergul;
- v) gap boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanuvchilar: qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta.

Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilarining vazifasi joyga nisbatan ham har xildir. Masalan, tire gap boshida kelganda gaplarni bir-biridan ajratish uchun, gap o'rtasida kelganda esa gap yoki gap bo'laklarining turli sintaktik munosabatini ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ko'p nuqta gap oxirida kelganda fikrning davomi borligini, gap o'rtasida kelganda fikrning uzilganligi yoki har xil emotsional holatni, gap boshida kelganda esa mazkur gapning qisqartirilganligim bildiradi.

Qo'shtirnoq, qavs, ikki nuqta ham yuqoridagi aralash qo'llanuvchi tinish belgilari singari xususiyatlarga ega.

Tinish belgilariga qo'llanish usuli jihatidan harakteristika berilganda, ularning qanday holatda va tartibda qo'yilishi hisobga olinadi. Tinish belgilari qo'llanish usuliga ko'ra quyidagicha gruppalanadi:

1. Yakka holda qo'llanuvchilar. Bunga faqat ikki nuqta kiradi.

2. Yakka va qo'sha holda qo'llanuvchilar. Bu tip tinish belgilar, yakka holatda (alohida-alohida, mustaqil) qo'llanishi bilan birga, qo'sha holatda ham qo'llana oladi.

Tinish belgilari qo'sha qo'llanganda ikki va undan ortiq tinish belgi bir o'rinda ketma-ket birgalikda) ishlatiladi. Bular qo'sha qo'llanganda: a) o'z shaklini to'liq saqlaydi (so'roq + undov tipida: ?!); b) o'z shaklini o'zgartiradi (qo'shtirnoq va qavs kabi); v) bir tinish belgisi ikkinchisining hisobiga qisqaradi (vergul va ko'p nuqta qo'sha qo'llanganda, vergul qisqaradi); g) bir belgining o'zi takrorlanadi (undov belgisi kabi).

Tinish belgilari tuzilishi, tarkibi jihatidan bir xil emas. Tinish belgilari tuzilish jihatidan ikkiga ajraladi:

1. Bir elementli tinish belgilari: vergul, tire.

2. Ko'p elementli tinish belgilari:

a) ikki elementli tinish belgilari: ikki nusta, nuqtali vergul, so'roq, undov va qavs;

b) uch elementli tinish belgilari: ko'p nuqta;

v) to'rt elementli tinish belgilari: qo'shtirnoq. Buni o'z mohiyatiga ko'ra «juft elementli» yoki «qo'sh elementli» tinish belgisi deb ham yuritish mumkin.

Bir elementli tinish belgilari tarkibi jihatidan qismlarga ajralmaydi. Ular shartli bir belgidan (bir grafik shakldan) iborat bo'ladi. Ularni o'z mohiyatiga ko'ra sodda tinish belgilari deb yuritiladi.

Ko'p elementli tinish belgilari birdan ortiq tinish belgilarining birikuvidan tashkil topadi. Bularni qo'shma yoki tarkibli tinish belgilari deyiladi.

Ko'p elementli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq shartli belgidan (shakldan) tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi. Masalan: ikki nuqta nuqtaning vertikal usuldagi kombinasiyasi asosida (ikkita nuqtaning birikuvi zaminida) vujudga kelgan, ya'ni [:]; ko'p nuqta nuqtaning gorizontal usuldagi kombinasiyasi asosida (uchta nuqtaning birikuvi zaminida) paydo bo'lgan, ya'ni [...]; nuqtali vergul nuqta va vergulning qo'shiluvi asosida tug'ilgan, ya'ni [;]. Bunda vergul va nuqta ustma-ust qo'yilgan. Qavs ham ikki elementdan iborat bo'lib, uning birinchisi «ochiluvchi qavs», ikkinchisi «yopiluvchi qavs» deb yuritiladi. «YOpiluvchi qavs» ba'zan «yarim qavs» ham deyiladi va nomerativlarni bildiruvchi raqam hamda Harflardan so'ng qo'llanadi.

So'roq, undov va qo'shtirnoqlarning tarkibi yanada murakkabroq. So'roq belgisi ham, undov belgisi ham ikki elementdan iborat.

Tinish belgilari, o'z funksiyasiga ko'ra, uch gruppaga bo'linadi:

1. Chegaralovchi tinish belgilari. Bular yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-uslubiy chegaralanishini ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o'rinishuv doirasini ko'rsatadi. Bunga qo'shtirnoq, qavs (qo'sh qavs) kabi tinish belgilari kiradi.

2. Ayiruvchi tinish belgilari. Bular yozma matnlarni yoki ularning qismlarini bir-biridan ajratishi muayyan qismning tugallanishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi: bunday ajratish logik-grammatik jihatdan bo'ladi. Bularga nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul kiradi.

3. Murakkab funksiyali tinish belgilari. Bular yozma matn qismlarini o'rni bilan ham ajratish, ham chegaralash, ba'zan ham biriktirish vazifalarini bajaradi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *O'zbek tilida tinish belgilari qanday tasniflanadi?*
2. *Tinish belgilari qo'llanish o'rniga ko'ra necha guruhga bo'linadi?*
3. *Tinish belgilari qo'llanish usuliga ko'ra necha guruhga bo'linadi?*
4. *Tinish belgilarining tuzilish jihatdan nechta turi bor?*
5. *Tinish belgilari vazifasiga ko'ra necha hil?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasisi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalar. T, 1996*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.*

14-mavzu. Nuqta va uning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: Nuqta, darak gap, buyruq gap, remarka, numerativ, sarlavha, izoh mazmunli gaplar, raqamlar, harflar, bosh harflar, bo'g'inlar, sitata, matematik ishora, sana, kun, oy.

Reja:

1. Nuqta – eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgisi.
2. Nuqtaning qo'llanish o'rinlari

Nuqta — eng qadimgi va eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. Nuqta yozuv belgisi sifatida arabcha matnlarda Abdul Malik xalifaligi (hijriy I asr) davrlaridan qo'llana boshlagan. Lekin qadimgi yozuvlardagi nuqta tom ma'nodagi tinish belgisi sifatida emas, umuman, yozuv belgisi sifatida qo'llangan va turli vazifalarni bajarib, turli xil maqsadlarda ishlatilgan. Keyinchalik, XIX asrning II yarmidan boshlab, tinish belgisi sifatida ishlatilgan. Nuqtaning asosiy vazifasi xabar ma'nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko'rsatishdir. Bundan tashqari, nuqta shu gapdagi dalil, hodisani konstataziya qiluvchi ma'no borligini ham anglatadi; bu jihatdan u ma'noni farqlovchi vosita hamdir.

Nuqta gap oxirida qo'llanadi. Uning qo'llanishi logikgrammatik prinsipga asoslanadi.

Ba'zan nuqta shartli qisqartmalardan so'ng ham ishlatiladi. Bunda uslubiy yoki farqlash tamoyillariga asoslaniladi. Nuqtaning shartli qisqartmalardan so'ng qo'llanishi uning qo'shimcha (yordamchi) vazifasidir. Qiyoslang: Alisher Navoiy - ulug' shoir! A.Navoiy - ulug' shoir! Ikkinchi gapda Alisher so'zidan so'ng nuqtaning qo'yilishi yozuv uslubi (texnikasi) bilan bog'liq bo'lib, agar Alisher so'zi qisqartirilmaganda, ikkinchi gapda ham nuqtani ishlatishga ehtiyoj tug'ilmas edi.

Hozirgi uzbek tilida nuqta quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Darak gaplar oxiriga qo'yiladi. Ma'lumki, darak gaplarda xabar ma'nosi ifodalanadi, voqea, hodisa ta'kidlanadi. Shuningdek, darak gaplardan iltimos, nasihat, orzu-istak kabi ma'no ottenkalari ham anglashiladi. Darak gaplar tinch ohang, pasayuvchi intonatsiya bilan aytiladi, intonatsiya, ayniqsa, oxirgi so'zda (bo'lakda) juda pasayadi. Bu «nuqta intonatsiya-si» deb yuritiladi.

Oxiriga nuqta qo'yiluvchi darak gaplar struktura jihatdan xilma-xil bo'lishi mumkin: sodda va qo'shma, bir sostavli va ikki sostavli, to'liq va to'liqsiz gap kabi. Masalan:

*Bayon et, ey ko'ngul, rozingni har dam,
Eshitsun ahli dillar bo'lsa hamdam. (Nozimaxonim)*

Nuqtaning sodda gaplar ichida nominativ gaplarda qo'llanishi harakterlidir. Chunki nominativ gaplar ko'proq ot turkumidagi so'zlar bilan ifodalanadi va shu so'z anglatgan ma'no mazkur nominativ gapning mazmuni hisoblanadi – mavjudlik ma'nosi tasdiq yo'li bilan (nuqta orqali) beriladi. Masalan:

*Qor. Sovuq. Bo'ronning o'chmagan uni.
Ayoqning zabtidan qaltirar daraxt.*

2. Nuqta ba'zan buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday buyruq gaplar sof buyruq mazmunini anglatmay, buyruq bilan birga iltimos, yalinish, istak, maslahat, nasihat, ogohlantirish, da'vat kabi emotsional ma'nolarni ifodalashi mumkin. Masalan: *Tark etma nazokatni, xulqingga jaf qilma,*

Izzatni berib elga, behuda safo qilma.

3. Remarka tipidagi gaplar oxiriga ham nuqta qo'yiladi. Ma'lumki remarkalarda priesadagi voqealarning tavsifi, personajlarning vaziyati, ichki kesinmalari beriladi. Bu jihatdan remarkalardagi mazmun darak gapdagi mazmunga o'xshash bo'ladi. Masalan: - Xalqinga, ijodimga! (Keta boshlaydi.) – Xayr, shahanshoh! (Yo'lida davom etadi. Xamma bosh egib turgan joyida qotib qoladi. Tashqaridan Navoiyni olqishlagan halqning ovozlari eshitiladi.)

4. Numerativlar bilan sanab qo'rsatilgan gaplar oxiriga (agar ular o'zidan oldingi va keyingi gaplar yoki numerativlar bilan izohlanmasa) qo'yiladi. Masalan: qo'yidagi o'rtoqlar "SHuxrat" ordeni bilan taqdirlansin:

1. Kenjaboev Toshmat – "Umid" fermer xo'jaligi rahbari.

2. Ashuraliev Oybek – «22-Parpashabof» nomli m.f.y. raisi.

5. Bir necha mustaqil (bir-biri bilan semantik – grammatik bog'lanmagan) darak gaplardan tashkil topgan yirik sarlavxalar oxiriga nuqta qo'yiladi. Bunda nuqta gaplarni o'zaro ajratish uchun xizmat qiladi. Nuqtaning bundagi vazifasi ko'proq nuqtali vergulning vazifasiga o'xshab ketadi.

6. Ba'zan izoh mazunini anglatuvchi gaplar oxiriga qo'yiladi. Bu holat, asosan, badiiy asarlarda uchraydi. Masalan: Xolmurodni boshlab kirgan Ergash bu erdagi «ajoyibotlarni» tushuntirdi. – Mana bularni "vanna" deyiladi; mana buni esa "titan" deyiladi....

Nuqtaning bunday o'rinlarda qo'llanishi badiiy ulubga xos bo'lib, uslubiy tamoyilga ko'ra belgilanadi.

7. Raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilgan numirativlardan so'ng nuqta qo'yiladi. Bunda numiratidan keyingi gaplar mustaqillikka ega bo'lishi shart. (Agar bunday gaplar biri ikkinchisiga bog'liq, mazmunan tobe bo'lsa, unda numirativni ko'rsatuvchi raqam yoki harfdan so'ng yarim qavs qo'yiladi.)

8. Bosh harflar yoki bo'g'inlar bilan ko'rsatilgan shartli qisqartmalardan so'ng ham nuqta qo'yiladi. Bunday shartli qisqartmalarni ayrim tashkilotlarning nomini bildiruvchi qisqartma so'zlardan farqlash kerak. Qisqartma so'zlar umumqoidaga muvofiq bo'lib, ularning nuqtasiz yozilishi qoidalashgan bo'ladi; shartli qisqartmalar esa individual uslub bilan bog'liq, yozuv texnikasi usuliga ko'ra qo'llanadi. Masalan: Alisher Navoiy - A. Navoiy, Aleksandr Sergeevich Pushkin - A.S.Pushkin kabi.

9. Sitataning manbaini ko'rsatuvchi kiritmalar matn ichida yoki havolada berilsa va manbada muallif asarning nomi, asarning nashri, beti to'liq ko'rsatilsa, bunda muallif nomidan so'ng va oxirgi so'zdan keyin nuqta qo'yiladi. Masalan: «Har narsadan oliy yurt va xalq baxti!» (U y g' u n. «V a f o».) YOKi havola (snoska) da: A.Olimjon. Tanlangan asarlar, O'zdamnashr, T., 1951 yil, 5-bet.

10. Matematikada nuqta ko'paytiruv alomati (ishorasi, belgisi) sifatida qo'llanadi. Bunda u ikki raqam o'rtasiga qo'yilib, ko'paytirish belgisini bildiradi: $2 \cdot 2 = 4$ ($2 \times 2 = 4$), $3 \cdot 3 = 9$ ($3 \times 3 = 9$) kabi.

Ba'zan nuqta murakkab sonlarni (raqamlarni) sinflarga bo'lib ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Bunda murakkab (ko'p xonali) sonlarni o'qish osonlashadi, metodik izchillik, qulaylik vujudga keladi: 4.400.000 tonna «oq oltin».

11. Ba'zan nuqta sanalarda kun, oy va yillarni ajratish uchun ishlatiladi. Bu davlat xujjatlarida, ayrim yozuvchilarning asarlarida uchraydi. Masalan: 5. XII. 2010 (5 dekabr, 2010 yil), 20.03.2010 (20 mart, 2010 yil).

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Nuqta o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
2. Nuqta asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
3. Matematika fanida nuqtaning vazifasi nima?
4. Nuqta qaysi o'rinlarda uslubiy vosita sifatida qo'llaniladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.
2. Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidolari. T, 1996
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T. 2006
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.

15-mavzu. So'roq, undov belgilari va ularning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: So'roq gap, sof cho'roq gap, taqriz, sitata, so'roq so'zlar, undov belgisi, emosiya, undov gaplar, nominativ gaplar, ritorik so'roq gaplar.

Reja:

1. So'roq belgisining qisqacha tarixi.
2. So'roq belgisining qo'llanish o'rinlari.
3. Undov belgisining qisqacha tarixi.
4. Undov belgisining qo'llanish o'rinlari.

So'roq belgisi gap oxirida qo'llanuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Bu belgi mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxiriga qo'yiladi; shu gapning tugallanish nuqtasini, uning boshqa gaplardan ajralish chegarasini ko'rsatadi va mazkur gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq gap ekanligini bildiradi. Masalan: «Qayoqqa chekinasan? Bormi keraksiz yering? Ne uchun odam bo'lding, Kelmasang dushmanga teng?

Prof. A.N.Gvozdev «so'roq belgisi latinchada (QUESTION (so'roq) so'zining qisqarishidan kelib chiqqan» deb ko'rsatadi: avval so'roq ma'nosini ifodalash uchun bu so'z qisqartirib (Q-O) qo'llangan; keyinchalik mazkur funksiyada shu so'zning faqat bosh harfi ishlatilgan (Q); bundan hozirgi so'roq belgisi (?) paydo bo'lgan.

So'roq belgisining o'zbek tilida qo'llana boshlashi XIX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Bu belgi o'zbek tiliga rus tilidan kirgan. U 1885 yildagi ba'zi o'zbekcha matnlarda uchraydi. "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida 1900 yildan keyin muntazam qo'llana boshlagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'roq belgisining qo'llanishi quyidagicha:

1. Sof so'roq ma'nosini anglatuvchi gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar ikki xil shakllangan bo'ladi: a) tarkibida so'roqni bildiruvchi grammatik vositalar; ishtirok etadi:—Endi ketib qolmaysizmi? Ha, nima, uyalasanmi, kap-katta qiz-a? (G'. G'.) b) tarkibida so'roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etmaydi: bundagi so'roq ma'nosi yozuvda so'roq belgisi orqali, og'zaki nutqda intonatsiya orqali bilinadi: To'ygacha qo'limni xam ushlatmayman deysiz chog'i? (U.)

So'roqni anglatuvchi gaplar to'liq va to'liqsiz gap shaklida bo'lganda ham, so'roq belgisi qo'llanadi:— Ustingizdan shikoyat tushdi.— Shikoyat? So'roqni anglatuvchi gaplar sodda va qo'shma gap shaklida bo'lishi mumkin. Sodda gap shaklidagi so'roq gaplarda taajjub, taxmin, chama, buyruq kabi ma'no ottenkalari ham ifodalanadi. Masalan:—Mening soatim to'xtab qolibdi.— Soatim to'xtab qolibdi? (A. Q.)

Qo'shma gaplarda so'roq ma'nosining ifodalanishi xiyla murakkab: qo'shma gapni tashkil etuvchi barcha gaplardan (komponentlardan) so'roq ma'nosi anglashiladi; qo'shma gapni tashkil etuvchi bir gap so'roq ma'nosini anglatib, ikkinchisi (yoki boshqalari) shu ma'noni ifodalamaydi; ergash gapli qo'shma gaplarda esa so'roq ma'nosi bosh gapda bo'lishi mumkin va aksincha; ergash gap so'roq ma'nosini anglatganda, ko'pincha bosh gapdan so'ng qo'llanadi.

Bunday holatlarda ham gap oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. Masalan: Axir har borganingizda, pochchangiz quruq qo'ymas? (A.Q.) Qanday uxlar, oyli tun qizning, YUragiga hayajon solsa?

2. Taqrizlarda yoki sitatalarda biron so'z yoki, jumla noaniqlik, gumon va anglashilmovchilikni bildirsa, bunday so'z va jumladan so'ng so'roq belgisi qavsga o'ralgan holda qo'yiladi. Masalan: «Onaning bokira siynasida (?) gavdalangan...», kampir o'zining sodda tafakkuri, o'tmish ongi (?) bilan, tilidagi o'zbekcha joziba (?) bilan esda qoladi.

3. So'roq gap tipidagi sarlavhalardan keyin so'roq belgisi qo'yiladi: Inglizlar qanday salomlashadi?

4. Kim, nima, qaysi, qanaqa, qanday qilib, nima qildi kabi so'z va so'z birikmalari so'roq ma'nosi uchun ishtatilsa, ulardan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi. Masalan: Ega kim?, nima?, kimlar?, nimalar? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Undov belgisi gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi, o'z tuzilishiga ko'ra ikki elementli tinish belgisidir. Undov belgisi badiiy asarlarda (ayniqsa, poeziyada, lirik asarlarda) ko'p qo'llanadi: yozma nutqdagi turli tuyg'ular, holatlar, har xil emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta. SHuning uchun bo'lsa kerak, lirik shoir Uyg'unning asarlarida undov belgisi boshqa shoir va yozuvchilarnyng asarlariga nisbatan ko'p qo'llangan.

Hozirgi o'zbek tilida undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo'sha (birgalikda) qo'llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o'rinda uch martagacha takroriy qo'sha qo'llana oladi. Masalan:

*Seni unutilmas yuragim aslo,
Ey, O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!!!*

Undov belgisi boshqa tinish belgilari bilan (vergul va ikki nuqtadan tashqari) birgalikda ham qo'llanadi.

Undov belgisi undov va buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunda mazkur gapning emotsional yoki qat'iy buyruq ma'nosiga ega ekanligini, tugallanganligini, boshqa gaplardan chegaralanish nuqtasini ko'rsatadi. Bunday gaplar to'liqlik intonatsiya bilan aytiladi.

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tili orqali o'tgan. U, o'zbekcha yozuvlarda XX asrning boshidan boshlab muntazam ravishda ishlatilgan. «Turkiston viloyatining gazetasi»da 1901 yildan qo'llana boshlagan. Prof. A. N. Gvozdev «undov belgisi latincha 1o (Lo) undov so'zidan kelib chiqqan» deb ko'rsatadi; latincha l harfining nuqta bilan qo'shiluvi asosida undov belgisi hosil bo'lgan. L + . = !

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undov belgisining qo'llanish doirasi, funksiyasi kengayib bormoqda. Badiiy adabiyot, ilmiy-publisistik asarlar, gazeta va jurnallarda undov belgisi xilma-xil maqsadlarda qo'llangan va u ishlatilgan gaplar ham semantik, ham struktur ham sintaktik jihatdan rang-barangdir. Undov belgisining, faqat undov gaplardagina emas, vokativ, ba'zan rominativ va so'roq gap tiplarida ham qo'llanishi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undov belgisining qo'llanishi quyidagicha:

1.Undov gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar emotsionallikni anglatib, kuchli ko'tariluvchan, to'liqlik intonatsiya bilan aytiladi va ular leksik-grammatik, intonasion va struktura jihatdan turlicha bo'lishi mumkin: Sening xotirangni unutmas aslo, Mening yuraklarim, Urta Osiyo! (H. O.)

2.Vokativ gaplar emotsionallikka ega bo'lsa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Hurmatli redaksiya! («O'zb.ovozi»)

3.Undash ma'nosiga ega bo'lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Navoiy.O... Marhamat! Soz! Jomiy. Salom, do'stlar! Majididdin. Salom, pokiza ustoz! (Uyg'un va I.Sultonov)

4.Nominativ gaplar undov intonatsiyasi bilan aytilsa va emotsionallik ifodalasa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: Urush! Dunyo! Mustamlaka! (X.O.) Topgan so'zi: Oh, falak! (G'. G'.)

5.Kesimi -moq, -sh(-ish) affiksli harakat nomi bilan ifodalangan infinitiv gaplar emotsionallikka ega bo'lib, undov intonatsiyasi bilan aytilsa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Bunday infinitiv gaplarning Kesimi «harakat nomi + kerak (lozim, darkor, zarur)» tipida ham bo'lishi mumkin: Barcha topshiriqlarni tez kunda bajarish kerak!

6.So'roq gap strukturasidagi ayrim gaplar, ayniqsa, ritorik so'roq gaplar undov intonatsiyasi bilan aytilib, emotsionallikka ega bo'lsa, undov belgisi qo'yiladi. Bunda: a) so'roqni bildiruvchi -mi yuklamasi bo'lishi mumkin. Bunday gaplarda umumiy mazmun tasdiqni bildiradi; b) so'roq olmoshlari bo'ladi: qanday qancha, qanaqa, kim, nima, qani kabi. Bular so'roq ma'nosini emas, balki emotsional (sevinch, rag'batlanish kesatiq kabi) ma'nolarni anglatadi. Masalan: Qutlaymiz yangi yil, yangi baxt bilan, Do'stlar qadahlarni ko'taring, qani! (U.)

7. Kesimi shart, istak mayli formasidagi ayrim gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: Qo'shiq aytgim keldi sening to'yingda, Qanday qilay, sevinch sayratsa tilni! Qanday qilay, dustim, baxt taronasi, Bahor tuyg'ulari yayratsa dilni! (U.)

8. Buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: Dustim, senga takror, takror aytaman: Bilakni shimarib ishga tush, ishga! (U.)

Buyruq va undov gaplarning ayrim tiplari bir-biriga juda yaqin turadi. Ayniqsa, bu ikki xil gap oxiriga bir xil belgi - undov belgisining qo'yilishi ularni farqlashda, o'quv-o'qituv ishida ancha qiyinchilik tug'diradi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *So'roq belgisi o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?*
2. *So'roq belgisi asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?*
3. *Undov belgisi o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?*
4. *So'roq va undov belgilari qanday hosil qilingan?*
5. *Undov belgisi qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasisi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalar. T, 1996*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.*

16-mavzu. Vergul va uning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: Vergul, uyushiq bo'lak, undalma, kirish so'z, kirish birikma, kirish gap, modal so'z, undov so'z, ega, ajratilgan bo'laklar, muallif gapi, ajratilgan aniqllovchi, ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol, qo'shma gap.

Reja:

1. *Vergulning qisqacha tarixi.*
2. *Uyushiq bo'laklarda vergulning ishlatilishi.*
3. *Undalmalar va kirishlarda vergulning ishlatilishi.*
4. *Ajratilgan bo'laklar va qo'shma gaplarda vergulning qo'llanilishi.*

Vergul o'zbek yozuvida XX asrdan qo'llana boshladi. «Turkiston viloyatining gazetasi» sahifalarida 1901 yildan, Toshkentda nashr etilgan «Taraqqiy» gazetasida esa 1906 yildan boshlab ishlatilgani ma'lum. Vergul eng qadimgi tinish belgilaridan bo'lib, o'zining uzoq tarixiga ega: u G'arbiy Evropa yozuvlarida XV asrdan tinish belgisi sifatida qo'llana boshlagan.

Vergul eng ko'p qo'llanuvchi va eng ko'p funksiyani bajaruvchi tinish belgilaridan hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida vergulning qo'llanish doirasi, funksiyasi kengayib bormoqda.

Gapning uyushiq bo'laklari - sanash intonatsiyasi bilan aytilib, og'zaki nutqda biri ikkinchisiday qisqa pauza bilan ajralib turadi. Bunday holat yozuvda vergul bilan ko'rsatiladi.

Vergul uyushiq bo'laklarda qo'llanganda, quyidagi holatlarni ko'rish mumkin:

1. Bog'lovchisiz birikkan uyushiq bulaklar o'zaro vergul bilan ajratiladi. Masalan: Maktabimizda geografiya, tarix, adabiyot, ona tili kabinetlari tashkil etildi.

2. Uyushiq bulaklarda birinchi va ikkinchi uyushiq bo'lak teng bog'lovchi (asosan va) orqali birikkanda, qolganlari vergul vositasida ajralgan bo'ladi: Pul va gazlama, choy, sovun, gugurt kabi zarur narsalarni shirkat davlatdan olib, kambag'allarga tarqatarmish. (H. G'ulom)

3. Uyushiq bulaklarda oxirgi ikki uyushiq bo'lak teng bog'lovchi vositasida birikkanda, ular orasiga vergul qo'yilmaydi. Qolgan bo'laklar esa o'zaro vergul bilan «birikkan» bo'ladi: Narigi qirgoqdagi mevazorlarda o'rik, olcha olma va shaftolilar qiyg'os gullab yotibdi. (H. G'ulom)

4. Uyushiq bo'laklar juft holatda bo'lsa, har bir juftlikdagi uyushiq bo'laklar teng bog'lovchi ishtirokida bog'lanadi, juftliklar esa o'zaro vergul bilan ajratiladi: ...yozadi yo qo'l qo'yadi, bir buyuradi yo yalinadi, koyiydi yo maktaydi. (Oybek)

5. Uyushiq bo'laklar orasida bog'lovchilar takrorlanib kelsa, ular orasiga vergul qo'yiladi. Bunda ham, yoki dam, goh, na, yoyinki bog'lovchilari takror qo'llanadi.

*Gullaring ham, go'zal bog'ing ham,
YOshliging ham, baxtli chog'ing ham,
Bulbullar ham, kuklam ham, yoz ham,
Qo'shiqlar ham, kulgi ham, soz ham;*

(Uyg'un)

6. Uyushiq kesim orasida zidlovchi bog'lovchi, yuklamalar qo'llanganda ham vergul ishlatiladi (ularning takrorlangan bo'lishi shart emas): Oy yoritadi, ammo isitmaydi. CHaqmoq bir yalt etdi-yu, o'chdi.

7. Uyushiq bo'laklardan birortasi zidlov bog'lovchilari vositasida ajratib, ta'kidlab ko'rsatilsa, qo'sh vergul bilan ajratiladi: Uning otasi o'qimishli, madaniy, tadbirkor, ammo serjahl, kishi edi.

Undalma fikr qaratilgan shaxsni bildirib, gapdagi boshqa bo'laklarga nisbatan kuchli intonatsiya bilan aytiladi, boshqa bo'laklardan pauza orqali ajralib turadi. SHu leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra yozuvda vergul bilan ajratiladi: Domla, endi xotirjam bo'ldingizmi? (H. G'ulom) Ug'lim, arslon izidan hech kaytmaydi. (Uyg'un)

Undalma darak, so'roq gaplarda ko'proq murojaat ma'nosini, buyruq, undov gaplarda esa ko'proq emotsional-ekspressiv ma'nolarni bildiradi.

Undalma, uslub talabiga ko'ra, gapning boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanishi mumkin: Senda nima yumush bo'lsin, Ra'no. (A.Kodiriy)

Undalmalar takror holda ham uyushiq holda keladi. Takror qo'llangan undalmalar gapning boshqa bo'laklaridan o'zaro vergul bilan ajratib yoziladi. Takror undalmalar orasida ajratuvchi pauza bo'ladi: Mehri, Mehri, men keldim.

Uyushiq undalmalar sanash intonatsiyasi bilan aytiladi, ular orasiga vergul qo'yiladi: Talabalar, o'quvchilar, paxta terimiga marhamat!

Agar undov so'z undalmadan oldin kelsa, ular o'zaro vergul bilan ajratiladi. (Ba'zan ularning har biri undov belgisi bilan ham ajratilishi mumkin, bunda alohida vokativ gap hosil bo'ladi.) Masalan: — O, bechora, hali ishga kirolmabdi-da,— deyishdan nariga o'tishmaydi. E, Elmurod, sen dunyoga kelib nimalar ko'rding? (P. Tursun)

Kirish konstruksiyalar uch xil: so'z, so'z birikmasi (ibora) va gap shaklida qo'llanadi va so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradi. Ular o'zi kiritilgan asosiy gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi, qisqa pauza, past ohang, nisbatan tez tempda aytilishi bilan asosiy gapdan ajralib turadi. Misollar: Nihoyat, Oyqiz Jalolovga tikilib, qat'iy fikrini aytdi.

Albatta, xolos, mayli, axir, koshki, balki tipidagi kirish so'zlarning gapda qo'llanishi intonasion jihatdan farqlidir. Bu so'zlar kirish sifatida qo'llanib, gap boshida kelganda alohida ohang va pauza bilan ajralib turadi; gap oxirida kelganda esa boshqa bo'laklardan ajralishi uncha sezilmaydi, ularni ajratuvchi pauza juda qisqa bo'ladi. Har ikki holatda ham ular vergul bilan ajratiladi: gap boshida kelganda kirish so'zdan so'ng, gap oxirida kelganda kirish so'zdan oldin vergul qo'yiladi: Boboxo'ja domla bitta sonni yozish uchun doskaga bo'r surkab, qancha kimirlatar edi, axir. (P. Tursun)

Bir gapda kirish so'zlar takror yoki ketma-ket qo'llanishi mumkin: ular o'zaro hamda boshqa bo'laklardan vergul bilan ajratiladi: Albatta, albatta, boraman. "Xullas, shunday qilib, ularni poylab yurgan odam bor ekan. (A. Q.)

Shunday kilib, shunga kura, shu bilan birga, shuningdek kabi kirishlarning boshqa bo'laklardan pauza orqali ajralishi og'zaki nutqda uncha sezilmasa ham, yozuvda vergul bilan ajratilaveradi. Bularning vergul bilan ajratilishi gapdagi funksiyasiga kura belgilanadi.

Modal so'zlar gapda, asosan, kirish so'z bo'lib keladi. Ularning yozuvda vergul bilan ajratilishi gapdagi funksiyasiga ko'ra belgilanadi. Ular kirish so'z bo'lib kelsa, doim vergul bilan ajratiladi. Gap bo'lagi bo'lib kelsa, vergul bilan ajratilmaydi. Ularning kirish so'z yoki gap bo'lagi ekanligi intonatsiya, pauza va ohangdan seziladi.

Kirishlar gapning boshida, o'rtasida va oxirida keladi.

Tasdiq va inkorni bildiruvchi xa, xo'p, yo'q so'zlari gap boshida kelganda vergul bilan ajratiladi. Xo'p, soat oltiga etib boraman.

Undov so'zlar og'zaki nutqda keng qo'llangani singari yozma nutqda ham ko'p ishlatiladi. Ular gapdagi boshqa bo'laklardan qisqa pauza bilan ajralib turadi, alohida kuchli intonatsiya bilan aytiladi. Bu to'xtam yozuvda vergul bilan ifodalanadi. Uf, biram zerikib ketayotibmanki. Voy, Axmadjon, sizga nima bo'ldi. Undov so'zlar undalma bilan yonma yon kelganda (ikkinchi gapdagi kabi) ham vergul bilan ajratiladi.

Yozma nutqda ayrim so'zlar gap ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash, undagi emotsionallik va modallikni bo'rtirish uchun takror qo'llanadi. Bunday so'zlar ham o'zaro vergul bilan ajratiladi. Bas, bas etar deyman.

Qani so'roq olmoshi, xo'sh so'zi kabilar ham gapning boshqa bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi, chunki bunday holatda ular gap bo'lagi xisoblanmaydi: Qani, undan ko'ra koloniyadan gapirib beringlar.

Ba'zan ega u, bu, shu, o'sha ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalanganda (ularni shu olmoshlar bilan ifodalangan aniqlovchilardan farqlash uchun) vergul bilan ajratiladi. Bunda ega alohida ohang, ajratuvchi intonatsiya bilan aytilib, undan so'ng qisqa pauza bo'ladi: U, asrandi qiz bo'lib qoldi. (H. O.)

Ko'chirma nutqli konstruksiyalarda 2 xil gap — o'zganing gapi va muallif gapi bo'ladi. O'zga gap bilan muallif gapi intonasion jihatdan ajralib turadi.

Bunday konstruksiyalarda tinish belgilarining qo'llanishi, ko'pincha, uslubiy xususiyatga ega bo'ladi.

Gap mazmunini yoki ayrim bo'lak mazmunini ta'kidlash, ta'sirchanligini oshirish uchun ayrim bo'laklar ajratiladi. Bular ajratuvchi intonatsiya va qisqa pauza bilan alohida talaffuz qilinadi: Boqi, soqov odamday, angrayib o'tiraverdi. (S.Siyoev)

Ajratilgan bo'laklar gapdagi funksiyasiga qarab quyidagi tinish belgilari bilan ajratiladi: 1) o'zi izohlagan bo'lakdan keyin kelgan, juda qisqa pauza bilan ajralgan, kuchli ohang bilan aytilmagan va kuchli emotsionallikni ifodalamagan ajratilgan bo'laklar vergul bilan ajratiladi. Bu holat yozma nutqda kup uchraydi; 2) o'zi izohlagan bo'lakdan keyin kelib, boshqa gap bo'laklaridan ikki tomondan pauza bilan ajralgan, ta'kidlovchi intonatsiya bilan aytilib, kuchli emotsionallikni ifodalovchi ajratilgan bo'laklar tire bilan ajratiladi.

Aniqlovchilar yozma nutqda ajratilgan bo'lak sifatida qo'llanganda, tinish belgilari bilan ajratiladi. Bunday ajratilgan aniqlovchilar (sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilar) vergul bilan ajratilganda aniqlanmishdan keyin kelgan bo'ladi; qisqa pauza bilan boshqa bo'laklardan ajratilib, pastroq ohang bilan aytiladi, ma'noga aniqlik kiritadi: Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan, og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi.

Ajratilgan izohlovchilar quyidagi holatlarda ikki tomondan vergul bilan ajratiladi:

1. Izohlanmishdan keyin kelganda: Bir maktab bola, oltinchi sinf o'quvchisi, bizning oldimizga keldi. (A. Q.)

2. Izohlanmishdan keyin kelib, olmosh bilan ifodalangan izohlovchining ma'nosini aniqlashtirganda: «Biz, yoshlar, xuddi ajdodlarimiz kabi, kurashda jon fido qilishga tayyormiz.

3. Nisbiy so'z olganda: Majlisni mahalla raisi, ya'ni Odilov, ochdi.

Ajratilgan to'ldiruvchida tinish belgilarining qo'llanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu uning turli xil sintaktik holatda qo'llanishi bilan belgilanadi. Ajratilgan to'ldiruvchilarning tinish belgilari bilan ajratilishi, asosan, ularning intonasion xususiyati va grammatik shakllanishiga bog'liq.

Quyidagi holatlarda ajratilgan to'ldiruvchilarning ikki tomonidan vergul qo'yiladi.

1. O'zi izohlayotgan to'ldiruvchidan keyin kelib, grammatik jihatdan mustaqil shakllanganda. Bunda u aniqlik, ta'kid ma'nolarini anglatadi: O'qituvchi a'lochilarni, Alim va Salimni, maqtadi.

2. Tashqari, boshqa ko'makchilari bilan qo'llanib, mustasno ma'nosini anglatganda. Bunda ajratilgan to'ldiruvchi muayyan tipdagi predmet, hodisa, voqeadan birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi: Qizlar, Xolnisodan tashqari, besh kishi edi. (A. Muxtor)

Ajratilgan to'ldiruvchilar: a) gap boshida kelsa, undan so'ng vergul qo'yiladi; b) gap orasida kelsa, ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi; v) gap oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi.

Yuqoridagi ko'makchilarning sinonimi sifatida hisobga olmaganda, qo'shmaganda, hisoblamaganda, o'zga kabi so'z va birikmalar ham qo'llanishi mumkin. Bular xam vergul bilan ajratiladi.

3. Bilan, birga, bir qatorda ko'makchilari ishtirokida qo'llanib, ma'lum bir tipdagi predmet, hodisa, voqealarga biror narsa-hodisani qo'shish, kiritish ma'nosini anglatganda. Bunda ham ajratilgan to'ldiruvchi gapning turli o'rinlarida qo'llanib, uslubiy jihatdan farqlanadi: Shundayku-ya, u mahalla raisi bo'lish bilan birga, mening xotinim. (Sh. R.)

4. O'rniga, ustiga ko'makchilari bilan qo'llanib, predmet, hodisa, voqealardan birining o'rniga ikkinchisining kelishi-almashinishi ma'nosini bildirganda: Maktabga, eski partalar o'rniga, yangi partalar olindi.

Ajratilgan holning tinish belgilari bilan ajratilishi xiyla murakkab. Bu murakkablik ajratilgan hollarning ifodalanish usuli, vositasi, gapdagi grammatik o'rni va funksiyasiga ko'ra belgilanadi.

Ajratilgan hol, uslubiy talab va turli maqsadlarga ko'ra, gapning har xil o'rnida kelishi mumkin.

Ajratilgan hol ko'proq aniqlikni bildiradi: «Oqlon» shaharchasida, sobiq Ko'kcha darvozasida ular mashinadan tushishdi.

Vergul qo'shma gap tarkibida ham ishlatiladi. Bunda u qo'shma gap qismlarini birlashtirish yoki ajratish uchun qo'llanadi. Demak, vergul qo'shma gap tarkibida qo'llanganda, shu qo'shma gapni hosil etuvchi gapning turlicha leksik-grammatik munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Vergul qo'shma gap tarkibida quyndagi hollarda ishlatiladi.

1. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro ammo, lekin, biroq, zidlov bog'lovchilari bilan bog'langanda, shu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi. Bunda vergul ajratish vazifasini bajaradi. Mana, tez orada davomli ta'tilga chiqamiz, lekin men yana ko'ngilli bo'lib qolmoqchiman. (G'. G'.)

2. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar -u, -yu, -da yuklamalari vositasida birikkan bo'lsa, ular o'zaro vergul bilan ajratiladi. Vergul yuklamalardan so'ng qo'yiladi: SHu payt to'satdan ko'cha eshigi taraqlab ochildi-yu, Zunnunxo'ja halloslaganicha kirib keldi. (A. Q.)

3. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar ayiruvchi bog'lovchilar vositasida birikkanda, agar bu bog'lovchilar takror qo'llansa, o'zaro vergul bilan ajratiladi. Yo men boray, yo siz keling. (Qo'shiqdan)

4. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar galma-gallik ma'nosini anglatuvchi goh-goh, ba'zan-ba'zan, xoh-xoh kabi bog'lovchilar bilan birikkanda, ular o'zaro vergul bilan ajratiladi: Adabiyot to'garagida yozuvchilarning yangi

asarlari muhokama qilinadi, ba'zan gruppamizdagi havaskor shoirlarning she'rlarini ham o'rganamiz.

Inkor bog'lovchisi orqali bog'langan qo'shma gaplar ham o'zaro vergul vositasida ajraladi: Na ko'cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiypni bor.

5. Vergul ergash gapli qo'shma gap tarkibida qo'llanganda, uning qismlarini semantik jihatdan biriktirish funksiyasini bajaradi:

Odam odamlilikni egallay olgach,

Bir etak yulduzni to'kdi koinot. (G'. G'.)

6. Tinish belgilarining bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida qo'llanishi ancha murakkabdir. Bunda tinish belgilari, asosan, gaplarning leksik-grammatik munosabatiga ko'ra qo'yiladi. Agar bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplar qiyoslash, chog'ishtirish, o'xshatish kabi ma'nolarni anglatasa, ular o'zaro tire bilan ajratiladi: Suv keldi - nur keldi kabi. Agar bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir nechta bo'lsa yoki ma'nosi yaqin bo'lmasa, ular o'zaro nuqtali vergul bilan ajratiladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir paytda yoki ketma-ket bo'lgan voqea-hodisalarni bildirganda, vergul bilan ajratiladi. Komilaning yuzi yonib ketganday bo'ldi, nafas olishi o'zgardi. Botirlars kanal qazadi, SHoirlari g'azal yozadi.

7. Bog'lovchisiz. murakkab qo'shma gap tarkibidagi har bir gap o'zaro bir-biridan vergul vositasida ajratiladi. Bunda boshqa tinish belgilarining qo'llanishi murakkab qo'shma gapni tashkil etuvchi gaplarning leksik-grammatik munosabati, tarkibiga kura belgilanadi:

Kuzimizning xazoni yo'q, munavvardir istiqbol,

Manzil yaqin, po'lat oqim davom etar yo'lida.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Vergul o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
2. Vergul soda gaplarda asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
3. Vergul qo'shma gaplarda qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
4. Kirishlar, undov so'zlar qanday holatda vergul bilan ajratiladi?
- 5.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasisi. Toshkent, 1976.
2. Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalar. T, 1996
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T. 2006
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.

17-mavzu. Qavs, nuqtali vergul, ko'p nuqta va ularning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: Qavs, nuqtali vergul, ko'p nuqta, kirishlar, remarkalar, sitatlar, bog'lovchisiz qo'shma gap, murakab uyushiq bo'laklar, nomerativlar, mazmunan tugallanmagan gaplar, matn qisqarishi.

Reja:

1. Qavs, nuqtali vergul va ko'p nuqtaning qisqacha tarixi.
2. Qavsning qo'llanish o'rinlari.
3. Nuqtali vergulning qo'llanish o'rinlari.
4. Ko'p nuqtaning qo'llanish o'rinlari.

Qavsning o'zbek yozuvida tinish belgisi sifatida qo'llanishi XIX asrning 70-yillaridan boshlangan. Dastlab u «Turkiston viloyatining gazetisi»da 1873 yilda ishlatilgan. Keyinchalik boshqa gazeta, jurnal va kitoblar sahifalarida ham ishlatila boshlagan.

Qavs, o'z vazifasiga ko'ra, chegaralovchi tinish belgilari jumlasiga kiradi: yozma nutqdagi muayyan qismlarning boshlanish va tugallanish nuqtasini ko'rsatib, mazkur qismning sintaktik jihatdan boshqa qismlar bilan kuchsiz bog'langanligini, semantik jihatdan u yoki bu darajada aloqadorligini bildiradi. Qavsga olingan kism tinch ohang, kirish intonatsiyasi bilan aytiladi.

Qavs tuzilish jihatdan ikki elementli tinish belgisi sanaladi. Uning birinchi elementi ochiluvchi qavs, ikkinchi elementi yopiluvchi qavs deb yuritiladi. YOopiluvchi qavs yozma nutq jarayonida mustaqil holda ham qo'llana oladi: bunda u nomerlashda (raqam yo harf bilan) ishlatiladi.

Qavs, odatdagi shaklidan tashqari, kvadrat shaklda ham qo'llanadi. Kvadrat shakldagi qavs «katta qavs», odatdagi qavs esa («katta qavs»ga nisbatan) «kichik qavs» deb yuritiladi.

«Katta qavs» matematika, geometriya, ximiya kabi fanlarga oid yozma matnlarda ko'p uchraydi. Boshqa sohaga oid matnlarda esa ikki qavsning takroriy qo'sha (bir o'rinda parallel) qo'llanishi zarur bo'lganda, ularning biri «katta qavs» shaklida (kvadrat shaklda) ishlatiladi.

Qavs hozirgi o'zbek yozuvida takroriy, oddiy va murakkab qo'sha qo'llana oladi.

Hozirgi o'zbek tilida qavsning qo'llanish doirasi va vazifasi kengaydi. Ilgari faqat asosiy gap bilan ma'nosi yaqin bo'lmagan qismlar qavsga olingan bo'lsa, qozirgi kunda asosiy matn bilan semantik jihatdan uzviy aloqador bo'lgan qismlar ham qavsga olinadi. Bu o'zbek tili funksional uslublarining rivojlanishi, o'zbek tili yozuv madaniyatining taraqqiy etishi va, shunga bog'liq holda, o'zbek punktuatsiyasining takomillashuvi bilan bog'liqdir. Demak, qavsga olingan qism asosiy gap (matn) bilan bevosita va bivosita aloqador bo'ladi.

Qavsning yozma nutq jarayonida qo'llanish o'rni chegaralanmagan: qavs gap boshida, gap o'rtasida va gapning oxirida kela oladi. Qavs gap o'rtasida kelganda, qavs ichidagi matn ma'nosining undan oldingi yoki keyingi jumlagacha taalluqliligi matndan aniqlanadi.

Hozirgi o'zbek tilida quyidagilar qavsga olinadi:

1. Kirishlar (kirish so'z, kirish birikma, kirish gaplar). Bunday kirishlar asosiy gap bilan kuchsiz bog'langan bo'ladi. Masalan: Kecha «Paxtakor» stadionida «Paxtakor» (Toshkent) va «Dinamo» (Moskva) jamoalari o'rtasida futbol o'yini bo'ldi. (Gazetadan)

SHuningdek, asosiy gapda tire ishlatilgan bo'lsa, kiritma konstruktsiya qavsga olinadi. Ilhom Islomov (u 9-sinfda o'qiydi) —o'quvchilar brigadasining boshlig'i. (Gazetadan)

2. Remarkalar: Birinchi jangchi. Qani endi (oyog'ini shapatalab), ishal bo'lmaganda-ku, rosa tepardimda (K.YAshin)

3. Sitata yoki misolning manbai: «Til — tafakkur kaliti». (Donolar bisotidan)

4. Tushuntirish, izoh, uqtirish ma'nosidagi so'z, birikma va gaplar. Bular narsa-hodisaning kimga yoki nimaga qaratilganligini, harakterini va boshqalarni bildiradi: «Generab» (birinchi o'zbek generali Sobir Rahimovga). «Sog'ingan bo'lsang» (yorning maktubi). «Jafo kilma» (qushiq).

SHuningdek, gazeta va jurnallardagi davomi bor, boshi 3-betda, oxiri... kabilar ham qavsga olinadi.

5. Sitatadagi biror so'z yoki jumlagacha muallifning turli munosabatini bildiruvchi so'roq, undov belgilari va «so'roq+undov» tarzidagi qo'sha belgilar. SHuningdek, muallif tomonidan sitataga kiritilgan gaplar: jonkash-jafokashligi bo'yi-basti (x) bilan, go'zalligi va jondek soddaligi (!) bilan ko'rindi. (Gazetadan)

Nuqtali vergulning o'zbek yozuvida qo'llana boshlashi XIX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. U o'zbekcha matnlarda 1885 yillardan boshlab qo'llangan.

Nuqtali vergul, yozma nutqda qo'llanish o'rniga ko'ra, aralash holda ishlatiladigan tinish belgilari guruhiga kiradi. Nuqtali vergul qo'yilgan gap oxiridagi pauza nuqta ishlatiladigan gaplar oxiridagi pazaga deyarli teng keladi. Nuqtali vergul ko'pincha gap oxirida qo'llanadi. Nuqtali vergul, gapning tugallanish chegarasini ko'rsatish bilan birga, uning ma'no jihatdan keyingi gapga yaqin emasligini ham bildiradi: ma'nosi o'zaro uzviy bog'liq bo'lmagan, ya'ni hodisani turli tomondan izohlovchi gaplarning chegarasini ko'rsatadi.

Nuqtali vergul ikki elementli tinish belgilaridan sanaladi: unda nuqta va vergul vertikal holatda (;) joylashadi. SHuning uchun ham uning nomi nuqtali verguldir. YOzma matnlarda nuqtali vergul boshqa tinish belgilariga nisbatan kam qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek tilida nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplar ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmasa (Bunday gaplar semantik jihatdan mustaqil gap darajasidagi tugallikka ega bo'ladi): Hatto teraklardagi zog'chalarning qanot qoqishlari ham eshitiladi; osmon pastak va qop-qora...

2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi voqealar qiyoslansa. Bunda narsa va hodisalarga xos belgilar solishtirilib, shu asosda ma'lum bir xususiyatning ortiq yoki kamligi ko'rsatiladi: Abdullaning qalbi muhabbatga juda moyil, basharti unga biron

qiz yokib qolsa, uning uchun o'zini o'tga tashlashdan ham qaytmasdi; Samad esa ishq-muhabbatda ehtiyotkor, u hamisha «etti o'lchab, bir kes» degan makolga amal qilardi.

3. Gapdagi uyushiq bo'laklar murakkab bo'lib, ular nuqtali vergul orqali ma'lum gruppalariga ajratiladi:

*Paxta, meva, qand, asal, chabgul, ipak, doping sara;
Toshko'mir, oltin, kumush, neft — rang-barang koning sara;
Aslaha, jabduq, qilich, tulpor va qalqoning sara;
Jangda ham mehnatda olgan shavkating, shoning sara,
Kuch fazilatlariga to'lgan bebaho konim mening. (U.)*

4. Raqam yoki harflar bilan ifodalaigan (ba'zan tire vositasida ko'rsatilgan) numerativlardagi gaplar oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi. Bunday gaplardagi fikr to'la tugallanmagan bo'ladi. Hozirgi asosiy vazifa quyidagilar: a) ariq-zovurlarni qazish va tozalash; b) erlarni tekislash v) traktorlar remontini tugallash; g) bahorgi ekish ishlarini uyushqoqlik bilan boshlab yuborish.

5. Ikki (ba'zan bir necha) bosh gapdan va birdan ortiq erg'ash gapdan tashkil topgan murakkab qo'shma gaplar orasiga nuqtali vergul qo'yiladi. Bunda biri ikkinchisini aniqlovchi qismlar vergul yoki tire vositasida ajratilgan buladi.

*Er ko'karmas, el yasharmas,
Bo'lmasa ko'k tomchisi;
Qaydan olsin she'rni shoir,
Bo'lmasa ilhomchisi. (A. To'qay)*

Bunda dastlabki uch gap birgalikda bir sintaktik butunlikni hosil qilgan; keyingi ikki gap esa ikkinchi sintaktik butunlikni tashkil etgan. Nuqtali vergul shu butunliklarning semantik-grammatik aloqadorligini ko'rsatayotir.

Shuningdek, murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplar narsa-hodisa yoki voqealarini ta'kidlash, sanab ko'rsatish harakteriga ega bo'lsa, ular o'zaro nuqtali vergul vositasida ajraladi: Chuqur pastlikdan Kuban daryosi yaltirab ko'rinardi; qirg'oq bo'yida goh bog' etaklari, goh stansiya uylari qorayib ko'rinar edi; ba'zi uylarning mo'rilaridan hali tutun chiqib turar, ba'zilarining derazalarida chiroq miltillab turgan bo'lardi.

Ko'p nuqta o'zbek yozuvida XIX aerniig II yarmidan boshlab qo'llangan. Dastlab u ruschadan qilingan tarjima matnlarida, keyinchalik gazeta sahifalarida qo'llana boshlaydi. Ko'p nuqta «Turkiston viloyatining gazetida»da 1876 yildan boshlab ishlatilgan.

Ko'p nuqtaning vazifasi murakkabdir. U, odatda, turli his-hayajonni ifodalovchi, ma'no jihatdan tugallanmagan gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar barcha nutq uslublariga xos yozma matnlarda uchraydi. Ko'p nuqta qo'llangan o'rinlarda uzun (katta) pauza bo'ladi.

Ko'p nuqta, o'z tarkibiga ko'ra, uch elementli tinish, belgisi hisoblanadi; ko'p nuqta deyilganda qatorasiga qo'yilgan uchta nuqta tushuniladi. Ko'p nuqtaning qo'llanish o'rni (joyi) ham murakkabdir: u gap oxirida, o'rtasida va boshida, hatto so'z o'rtasida ham qo'llanaveradi.

Yozuvchi o'zining har qanday maqsad va istaklarini, turli emotsional holatlari ko'p nuqta vositasida beradi. Bu jihatdan ko'p nuqtaning yozma nutq uchun ahamiyati kattadir.

Ko'p nuqta hozirgi o'zbek tilida quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmagan gaplar oxirida. Bunda ko'p nuqta mazkur matnda uzilish borligini ko'rsatadi. Ko'p nuqta qo'yilgan bunday gaplardan so'ng uzun («birinchi darajali» — N. A. Baskakov) pauza bo'ladi: Sobirjon bir qabih odamning yuziga tupurganday tupurdi-da, do'konning o'qpoyasini tepib sindirdi... (A. Muxtor)

2. Voqealarning tez o'zgarishi, personajning turli his-hayajoni va holatini ko'rsatuvchi gaplar oxirida. Bunday gaplar semantik va struktura jihatdan xilma-xil bo'ladi. Yozuvchilar ko'p nuqtaning bu xususiyatidan badiiy tasvirlashda — tabiat manzarasini lirik bo'yoqlar bilan berishda ham foydalanadilar: Ko'prik kichik... Lekin tetik... Og'irlikni sezmaydi. (H. O.) Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Mehnat sharaf va shon bo'lgan vodiylar ko'm-ko'k... (H. O.)

3. Matn (jumla) qisqartirilsa. Jumladagi qisqarish gap boshida, o'rtasida va oxirida bo'lishi mumkin. Bunday holda ko'p nuqtadan keyingi so'z (atoqli ot bo'lmasa) har doim kichik harf bilan boshlanadi. Bu xolat sitatalarda, ko'chirma nutqlarda ko'proq uchraydi.

4. Ba'zan so'zlar orasiga qo'yiladi. Bunda so'z haya-jon bilan, bo'lib-bo'lib aytiladi yoki shu so'zni aytishda boshqa maqsadlar nazarda tutilgan bo'ladi. Shuningdek, kuchli hayajonni, emopionallikni bildiruvchi undov so'zlardan so'ng ham ko'p nuqta ishlatiladi: E..., S...So... Sonyami? Eri-chi? (S. Babaevskiy)

5. Yozuvchi aytmoqchi bo'lgan, ammo yozma nutqda berilishi mumkin bo'lmagan turli ma'nodagi so'zlar o'rniga. Shuningdek, dialoglarda suhbatdoshning so'zi jazobsiz qolsa ham ko'p nuqta qo'yiladi: Tavba!.. Bu la'nati, asti, nima qiladix Qani endi... bo'g'a boshlasam! (U.)

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ba'zi yozma matnlarda qatorasiga qo'yilgan bir qancha (bir qator yoki ikki qator) ko'p nuqtalar uchraydi. Bular tinish belgisi vazifasidagi ko'p nuqta hisoblanmaydi. Shuningdek, matbuotda (ko'proq gazetalarda) sarlavhadan so'ng ko'p nuqta qo'yish hollari odat tusiga kirib bormoqda.

Ba'zan ona tili darsliklarida berilgan mashqlarda ma'lum harf (tovush)larni o'rgatish maqsadida so'z ichida tushirib qoldirilgan harf yoki harflar o'rniga ko'p nuqta qo'yiladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qavs o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
2. Qavs asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
3. Nuqtali vergul va ko'p nuqta o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
4. Nuqtali vergul asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?
5. Ko'p nuqta asosan qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasisi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidolari. T, 1996*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.*

18-mavzu. Tire va uning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: Tire, murakkab vazifa, ajratilgan bo'lak, yakka tire, qo'sh tire, kiritma konstruksiyalar, ot kesim, ega, sintaktik butunlik, qo'shma gap, ta'kid munosabati, zidlik munosabati, shart munosabati, sabab munosabati, payt munosabati, o'xshatish munosabati, tushib qolgan bo'lak, dialog, ko'chirma gap.

Reja:

1. *Tirening paydo bo'lishi.*
2. *Ajratilgan bo'laklar va kiritma konstruksiyalarni chegaralashda tirening roli.*
3. *Ot kesim va ega o'rtasida tirening qo'llanilishi.*
4. *Qo'shma gap tarkibida tirening ishlatilishi.*

Hozirgi o'zbek tilida tire eng ko'p qo'llanadigan tinish belgilaridan hisoblanadi.

Tire rus yozuvida birinchi marta N.M.Karamzin (XVIII asr) tomonidan qo'llangan. XIX asrning 70-yillariga kelib u o'zbek yozuvida qo'llana boshladi. Tire «Turkiston viloyatiing gazetii»da 1876 yildan boshlab ishlatilgan.

Tirening qo'llanishidagi barcha xususiyatlari logik-grammatik, uslubiy, qorishiq va differentsiatsiya prinsiplariga ko'ra belgilanadi.

Tire — aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. U gap qismlari va gap bo'laklari orasidagi grammatik munosabatlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tire yakka va takror qo'llana oladi: yakka holda qo'llanganda gap bo'laklarini ajratish, takror holda (qo'sh tire holatida) ishlatilganda esa ma'lum bo'laklarni chegaralash, chegaralangan bo'lakning ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish, emotsionallikni oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Tire - murakkab vazifali tinish belgisi. Uning - yozma nutq jarayonida o'taydigan vazifasi (ma'no va vazifalari) turli xildir. Tirening ayrim vazifalari vergul va qavsning vazifalariga (ajratilgan bo'laklar, kirish va kiritma konstruksiyalarda qo'llanishi) o'xshab ketadi. Bu uning omografik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Lekin tire vositasida ajratilgan bo'lakda chegaralanish, ma'noni ta'kidlash, emotsionallik, ajratilgan bo'lakning nisbiy mustaqilligini oshirish kuchli bo'ladi.

Hozirgi o'zbek tilida tire sodda va qo'shma gap tarkibida qo'llanadi. Tire yozma nutq jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) gap bo'laklarini ajratadi; 2)

gap bo'laklarini chegaralaydi; 3) gaplarning birini ikkinchisidan ajratadi; 4) kiritma konstruksiyalarni ajratadi va chegaralaydi; 5) turli maqsadlarni — emotsionallikni ifodalaydi; 6) tushirib qoldirilgan ayrim bo'laklar o'rnini qoplaydi.

Tire sodda gap tarkibida qo'llanganda, asosan, gap bo'laklari orasidagi turli munosabatlarni bildiradi.

Tire sodda gapda quyidagi funkniyalarda qo'llanadi:

1. Ajratilgan bo'laklarni ajratish, chegaralash, ulardagi emotsionallikni bo'rttirib ko'rsatish uchun. Bunda ajratilgan izohlovchilar, aniqlovchilar, to'ldiruvchilar va hollar ajratiladi. Tire bilan ajratilgan bo'laklar sodda va yoyiq holatda bo'lishi mumkin.

Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarda tire mazkur bo'lakning oldidan yoki ajratilgan bo'lakning ikki tomonidan qo'yiladi.

a) Ajratilgan izohlovchilarning yakka tire bilan ajratilishi nisbatan ko'p uchraydi. Bu uning o'z izohlanmishi bilan uzviy bog'lanishi va teng aloqada ekanligi bilan bog'liqdir:

Vatan — ona so'zi naqadar laziz! (U.)

b) ajratilgan bo'laklar qo'sh (ikki) tire bilan ajratiladi. Bunda tirelar ajratilgan bo'laklarning boshlanish va tugallanish nuqtasini chegaralash uchun, semantik bog'lanish, ba'zan ekspressiv holat kuchliligini ta'kidlash uchun ishlatiladi: Tog'alarim — Egamberdi va Rahimberdi — meni bir-bir quchoqlab, ishga beriladilar. (O.)

2. Kiritma konstruksiyalarni (kiritma so'z, kiritma birikma va kiritma gaplarni) chegaralash uchun. Bunday kiritma konstruksiyalar fikriy va emotsional jihatdan asosiy gap bilan zich bog'langan bo'ladi. Shunga ko'ra, kiritma konstruksiyalar ikki tomondan tire bilan chegaralanadi; tire takror holatda (qo'sh tire formasida) qo'llanadi: Avval o'qi, keyin... — Ochilning «sev» so'zini aytishga yuragi betlamadi — keyin do'stlash degan ma'nosi bo'lmasa kerak. (P. Q.)

Ba'zan tirening kiritma konstruksiyalarda qo'llanishi qavsning qo'llanish vazifasiga o'xshaydi. Bu tire va qavsning omografik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. (Kiritma konstruksiyalarda qavsning qo'llanishi yuqorida bayon qilingan.)

3. Ikki yoki undan ortiq otning birikuvidan tuzilib, biron tashkilot, ta'limot, ilmiy muassasa, narsa-hodisalarning nomini anglatuvchi so'zlar orasiga tire qo'yiladi: Toshkent — Dushanbe poezdi. Hindiston — Pokiston axboroti.

4. Makon, zamon va miqdor chegarasini bildiruvchi ikki yoki undan ortiq so'zlar birikmasi orasiga tire qo'yiladi. Bunda tire -dan... -gacha grammatik formalarining vazifasini bajaradi, ular vositasida ifodalanadigan sintaktik munosabatni anglatadi: 30 — 40-yillar, XIV—XIX asrlar.

Agar bu o'rinda yuqoridagi affikslarning o'zi qo'llansa, tire ishlatilmaydi; 1950 yildan 1965 yilgacha g'alla maydonlari juda kengaydi.

5. Ot kesimlarni egadan ajratish uchun. Bunda ot kesim son, olmosh, harakat nomi, taqlid so'zlar bilan ifodalanadi, kesimlik affikslari, bog'lamalar qo'llanmaydi: Donning bo'lig'i — omborning to'ligi. (Maqol) Birinchi kitob — she'r muxlislari oldida shoirning «yuz ochari». (Gazetadan) Tire ega va ot kesimni ajratganda, shuningdek, eganing tarkibini kesimning tarkibidan ajratganda ham, ot kesim shunday formalarda bo'ladi:

1)bosh kelishik formasida:

Xat — oppoq qog'ozga bitilgan ko'ngil.

Xat — sevinch, muhabbat, hayot mujdasi.

Xat — oyina, unda aks etar diydor.

Xat — asil, sevishgan yurakning sasi. (U.)

2)makon kelishik (o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishiklari) formasida:

Har soat, har minut

Yuksalish — dillarda.

Yuksalish — so'zlarda,

Yuksalish — minglarda. (H. O.)

6.Egani ta'kidlash uchun tire ishlatiladi. Bunda qiyoslash, o'xshatish, ta'kidlash, zid qo'yish, kutilmaganlik kabi ma'no ottenkalari ifodalanadi.

Bunday egalar logik urg'u olgan bo'lib, ta'kidlash intonatsiyasi bilan aytiladi; kesim tarkibidan pauza bilan ajralib turadi; ta'kidlangan egalar quyndagicha ifodalanadi:

a) kishilik olmoshi bilan: U — bir zahar, U — bir o'lim suvidir.

(H. O.)

b) ko'rsatish olmoshi bilan:

B u — o'limdan qo'rqmaydigan kuch, B u — otashin asil muhabbat. (U.)

v) sifatdosh bilan: Ishlagan o'zar, ishlamagan — to'zar. (Maqol)

g) ot bilan: Muz — to'shagim bo'ldi. Qirov — ko'rpam... (U.)

Ba'zan gapdagi egani ta'kidlash uchun bu, u, shu, o'sha ko'rsatish olmoshlari qo'llaiadi. Bular ham tire bilan ajratiladi («ta'kidlovchi ega»lardan sung vergul qo'yiladi): ...Barqut fasl — bu, kuzning o'zi. (U.)

d) egalik affiksi bilan shakllangan bo'ladi:

Sening g'oyang — goyamizdir. Sening so'zing — so'zimiz. (U.)

7.Poeziyada bir sintaktik butunlikni ifodalovchi birikmalarning bo'linishini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bunday sintagmalar (ko'proq aniqlovchi-aniqlanmish, izohlovchi-izohlanmish, tarkibli kesimlar) bir satrdan (misradan) ikkinchi satrga bo'lib ko'chirilgan bo'ladi. Bunda tire ularning bo'linish nuqtasiga qo'yilib, ajraluvchi sintagmalarning bir butun holda talaffuz etilishini ko'rsatadi:

Uch gildirakli g'altak —

Arava qilib berdim.

Ruliga esa yashil

Bayroqcha ilib berdim. («Fan va turmush»)

8.Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zlarni ajratish uchun ishlatiladi. Bunda tire umumlashtiruvchi so'zdan oldin qo'yilib, ajratish vazifasini bajaradi:

Toshko'mir, oltin, kumush, neft — rang-barang koning sara... (U.) —yong'oq, olcha, asal — hammasi tog'dan keladi, uqdingmi? (O.)

Ba'zan uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi so'zdan keyin kelib, ma'noni ta'kidlash uchun ishlatiladi. Bunda ular umumlashtiruvchi so'zdan tire bilan ajratiladi yoki ikki tomondan tire bilan chegaralanadi: O'yinlar ko'p — qushim boshi», «chillak», «yong'oq», «oshiq...»

Tire qo'shma gap tarkibida ham keng qo'llanadi. Bunda u qo'shma gap tarkibidagi, gaplarni chegaralash, ajratish va muayyan gaplar orasidagi turli mazmuniy munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Tirening qo'shma gap tarkibida qo'llanishi tubandagicha:

1. Qo'shma gap tarkibidagi ayrim gaplarning tugallanish chegarasini ko'rsatib, uni ikkinchi gapdan ajratadi. Tirening bu xususiyati nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul, ko'p nuqtalarning ba'zi vazifasiga o'xshaydi. «Lekin tire, ulardan farqli ravishda, tobe aloqadagi gaplarning tugallanish chegarasini ko'rsatadi: Har kun deyarli hammaning qozonida yovg'on sho'rva, kora sho'rva, ahyon-ahyonda yarim qadoq go'sht bilan palov damlansa - uyda to'y his qilasiz. (O.) Afsuski, yoshlik damlar o'tdi — kishan bo'ynida. (H. O.)

Tire ishlatilgan qo'shma gaplarda quyidagicha mazmuniy munosabatlar mavjud bo'ladi:

a) ta'kid munosabati: Ishq boshqa, xavas boshqa — bu yo'lda xato qilma.

b) zidlik munosabati: It xuradi — karvon o'tadi. (Maqol)

v) shart munosabati: Bolamga yana bir til tegdir - soqolingni bittalab yulaman, och arvoh! (O.)

g) sabab munosabati: shu yo'l bilak bordik — etdik murodga...

d) payt munosabati: bunda ekspressiv ottenka, kutilmaganlik ma'nosi anglashiladi: Mundoq qarasam — gilos yonida pastakkina oshxona turibdi. (O.)

e) o'xshatish munosabati: Suv keldi — nur keldi.

2. Ba'zan tire qo'shma gap tarkibidagi gaplarning har xil munosabatini ifodalashi mumkin:

Shu yo'l bilak bordik — baxt to'la jahon —

Porloq istiqlol ko'rsatdi jamol.

Bunda tire vositasida o'xshatish va sabab munosabatlari ifodalangan.

3. Qo'shma gap tarkibidagi gaplar to'liqsiz gap formasida qo'llansa, tushib qolgan bo'lakning - asosan, kesimning — o'rnini qoplash uchun tire ishlatiladi. YAxshidan ot kolar, yomondan — dod. (Maqol) Oltin o'tda bilinadi, odam — mehnatda. (Maqol)

4. Dialoglarda har bir shaxs nutqining birini ikkinchisidan ajratish, ularning boshlanish nuqtasini ko'rsatish uchun tire ishlatiladi:

— Kimsan?

— Bedanaman, — dedi Afandi.

— Bedana dalada bo'ladi, bu erda nima qilib yuribsiz?

— Bedananing uyi yo'q, qaerga borsa: pitpildiq-pit-pildiq!

Ba'zan ilmiy adabiyotlarda aslini tarjimadan ajratish uchun tire ishlatiladi.

5. Ko'chirma nutqli gaplarda muallif gapini ajratish uchun tire qo'llanadi. Bunda muallif gapi ko'chirma nutqning o'rtasida yoki oxirida qo'llangan bo'ladi: — Balli, rahmat, kampir! — deydi dadam qulluq qilib. — YAxshi bilgich tabib ekan. (O.)

Bu gapda uch tirening vazifasi bir xil emas. Birinchi va uchinchi tirelar ko'chirma nutqning boshlanish nuqtasini ko'rsatsa, ikkinchi tire muallif gapining ko'chirma gapdan ajralishini, chegarasini ko'rsatayotir. Demak, muallif gapi ko'chirma gap o'rtasida kelganda, ikki tire bilan ajratilmaydi. (Bu haqda quyida batafsil to'xtalamiz.)

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Tire o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
2. Tirening yakka yoki takror holda qo'llangandagi vazifasi nima?
3. Tire nutq jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?
4. Qo'shtirening ajratilgan bo'laklar yoki kiritma konstruksiyalarda qo'llanilishi qaysi hodisaga o'xshaydi?
5. Tire ishlatilgan qo'shma gaplar qanday mazmuniy munosabatlarni ifodalaydi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.
2. Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidolari. T, 1996
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.

19-mavzu. Qo'shtirnoq va uning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: Qo'shtirnoq, chegaralovchi tinish belgi, ko'chirma gap, sitata, ko'chma ma'noli gaplar, badiiy asar, gazeta, jurnal, muassasa, tashkilot, korxona, jamiyatlar, orden, medal, ichki monolog.

Reja:

1. Qo'shtirnoqning paydo bo'lishi.
2. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda qo'shtirnoqning qo'llanilishi.
3. Sitata va ba'zi so'zlarning qo'shtirnoqqa olinishi.
4. qolgan hollarda qo'shtirnoqning ishlatilishi.

Qo'shtirnoq — ikki elementli tinish belgisidir. Uning birinchi elementi «ochiluvchi qo'shtirnoq», ikkinchi elementi «yopiluvchi qo'shtirnoq» deb yuritiladi. Buning grafik shakli „ " dan iborat bo'lib, nashriyot ishlarida burchak (« ») shaklida ham qo'llanadi; ilmiy uslubda tirnoq shaklida (' ') ishlatiladi. Qo'shtirnoqning bu uch xil shaklining har biri o'z qo'llanish o'rni va funksiyasiga egadir.

Qo'shtirnoq o'zbek tiliga rus tilidan kirgan. U rus tili grammatikasiga esa tilshunos A.A.Barsov tomonidan kiritilgan. Qo'shtirnoqni prof. A.A.Barsov «kiritish» belgisi deb atagan.

Qo'shtirnoqning o'zbek yozuvida tinish belgisi sifatida qo'llanishy XIX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. U «Turkiston viloyatining gazet»da 1886 yildan boshlab ishlatilgan.

Qo'shtirnoq, asosan, sintaktik-uslubiy vazifani bajaradi. Qo'shtirnoq keyingi vaqtlarda, hatto sarlavhalarda ham qo'llana boshladi. Bu holat ko'proq gazetalarda

uchraydi. Bu qo'shtirnoqning qo'llanish doirasi, vazifasi kengayganligidan dalolat beradi.

Qo'shtirnoq — chegaralovchi tinish belgisi. U yozma matndagi muayyan qismlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, o'zganing gapini (ko'chirma gapni) muallif gapidan ayirib, uning boshlanish va tugallanish chegarasini va qanday shaklda ekanligini ko'rsatadi.

Qo'shtirnoq murakkab funksiyali tinish belgilari jumlasidandir. U, muayyan qismni chegaralab ko'rsatish bilan birga, uning muayyan matnga (qo'shtirnoqqa olingan qism kiritilgan umumiy matnga) sintaktik va intonasion jihatdan ma'lum darajada bog'lanishini, unga muvofiqlashuvini ham ko'rsatadi. Bu jihatdan qo'shtirnoq chegaralovchi tinish belgisi hisoblangan qavsdan farqlanadi: qavsga o'ralgan qismning umumiy matn bilan bog'lanishi va unga muvofiqlashuvi shart emas.

Qo'shtirnoq ma'lum qismning o'zgaligi, muayyan nutqqa yotligi (chetdan kiritilganligini), uning odatdagi ma'noda qo'llanmaganligi va boshqalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Qo'shtirnoq yozma nutqning sintaktik-uslubiy strukturasi va mantiqiy ravonligini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. Qiyoslang: 1. Pokiston prezidenti: «Biz ko'pgina ajoyib narsalarni ko'rdik». (Gazetadan) 2. «Razil urushga chek qo'yilsin!» (Gazetadan) Bu ikki misol gazetada sarlavha sifatida berilgan. Bularda qo'shtirnoq mazkur gaplarning odatdagidan boshqacha harakterga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Ikkinchi misolda muallif gapi qo'llanmagan bo'lishiga qaramay, qo'shtirnoq uning o'zga nutq ekanligini aniq ko'rsatyapti.

Qo'shtirnoq takroriy, oddiy va murakkab holatda qo'sha qo'llana oladi. U, takroriy qo'sha qo'llanganda, ochiluvchi yoki yopiluvchi qo'shtirnoqlar ketma-ket qo'llanadi. Bunda ulardan birining shaklini o'zgartib ishlatiladi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ko'chirma (o'zga) nutq qo'shtirnoqqa olinadi. Ko'chirma (o'zga) nutq so'z, so'z birikmasi, ibora va gap formalarida bo'lishi mumkin. «Qaydan kelyapsizx Bozordanmix Do'ppilarnang narxi qandayx YAxshi foyda qildingizmix»— deb, zerikmasdan igi-jigini surishtiradi. (O.)

Ko'chirma nutq, uslub talabiga ko'ra, muallif gapi bilan turlicha o'rinlashuvi mumkin. Muallif gapi ko'chirma nutqning oldida, ketida va o'rtasida keladi:

1) muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelganda, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi, so'ng qo'shtirnoq ochilib, ko'chirma nutq bosh harf bilan boshlanadi:

Hamma desin: «Bu o'tgan

Bir botirning onasi.

Vatan uchun o'libdi

Uning yolg'iz bolasi...» (H. O.)

2) muallif gapi ko'chirma gapning o'rtasida kelsa, ko'pincha ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: «Salom,— deydi,— jon kizim». (H. L.)

3) muallif gapi ko'chirma gapdan keyin kelsa, ko'chirma nutqdan so'ng qo'shtirnoq yopilib, vergul qo'yiladi, muallif gapi tire bilan yoziladi:

«Rahmat»,— dedi yigit, o'zida yo'q shod.

«Rahmat»,— dedi qiz ham tabassum bilan. (U.)

Agar yopiluvchi qo'shtirnoqdan oldin so'roq, undov, ko'p nuqta qo'yilgan bo'lsa, vergul qo'llanmaydi. Masalan:

«Vatanimiz yoviga Omon berma!»— deb ezdim.

«Orden olmasdan turib, Uyga kelma!..» — deb ezdim. (H. O.)

2. Sitatalar har vaqt qo'shtirnoq bilan chegaralanadi.: «Til ong qadar qadimiyydir». «Til — eng muhim aloqa vositasi». (Donolar bisotidan).

Agar sitata ko'chirma gap sifatida qo'llanib, muallif gapi bilan ishlatilsa, bu holda qo'shtirnoq va boshqa tinish belgilarining ishlatilishi sintaktik-uslubiy holatga ko'ra belgilanadi. Bunda tinish belgilarinsh» qo'llanishi ko'chirma gapdagiga o'xshaydi.

3. Ba'zi so'zlar qo'shtirnoqqa olinadi. Bunday so'zlarga: a) ko'chma ma'noda qo'llangan; b) qo'llanishi odat tusiga kirmagan; v) eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan; g) kesatq yoki turli xil boshqa ma'nolar uchun qo'llangan so'zlar kiradi. Misollar:

1. *Qushlarni u sevardi,*

Bor edi shunda «dardi». (Mirmuhsin)

2. *Kulib u Adibani*

«Piramidon» deb atar. (Mirmuhsin)

Oziq-ovqat kerakdan mo'l: «sen je — men je»...

Harom pul «havaskor»lari o'z ashularini aytib bo'lishdi. («Mushtum»)

4. Badiiy asar, gazeta, jurnal, muzika asarlari, spektakl va boshqalarning nomi qo'shtirnoqqa olinadi: «O'zbekiston ovozi» gazetasi, «SHaytanat» romani, «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, «Bahor val'si» muzikasi, «Xorazm qo'shig'i» operasiga nixoyat qiziqaman. (O.)

5. Muassasa, tashkilot, korxona, firma, paroxod, mehmonxona kabilarning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: «Fan», «O'qituvchi» nashriyoti «O'rtoq» fabrikasi, «Elektromash» zavodi, «Toshkent» mehmonxonasi.

6. Tarkibida «orden», «medal» so'zlari bo'lgan, ammo bu so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmagan orden va medallar nomi qo'shtirnoqqa olinadi: «SHuxrat» ordeni, «Jasorat» medali.

Demak, «orden», «medal» so'zlari atamaning tarkibida bo'lib, u nom bilan sintaktik bog'langan bo'lsa, bunday orden va medallarning nomi qo'shtirnoqqa olinmaydi: Birinchi Darajali Ulug' Vatan urushi ordeni.

7. Mahsulotlarning nomini, o'simliklarning turini, mashina, samolyot, televizor kabilarning markasini bildiruvchi nomlar qo'shtirnoqqa olinadi: «Toxir-Zuxra» do'ppisi, «Lasetti» mashinasi, «Belarus» traktori, «TU-104» samolyoti, «Beko» muzlatgichi, «Samsung» televizori.

Biroq, yuqoridagi kabi nomlarning qo'llanishi umumnorma hisoblanib, turdosh otga aylangan bo'lsa, qo'shtirnoqqa olinmaydi: atirgul, nagan to'pponcha, tog uzum, mirzoyi sabzi, chust do'ppi kabi.

8. Ichki monolog (personajlarning o'yi, ichki kechinmalarini anglatuvchi so'z yoki gaplar) qo'shtirnoq bilan chegaralanadi: «Bugun buvim judayam mehribon?» deb o'ylayman ichimda, sevinganimdan uning oldiga tushib yuguraman. (O.)

Ichki monologlarning qo'shtirnoq bilan chegaralanishi ko'chirma nutq va sitatalardan farqlanadi: bunda uni muallif gapidan ajratuvchi ikki nuqta, vergul va tirelar qo'llanmaydi.

Shuningdek, o'zga gap (ko'chirma gap, sitata kabi) matn o'rtasida muallif gapisiz qo'llansa, faqat qo'shtirnoq bilan chegaralanadi, xolos: Adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, chunki «adabiyot — hayot darsligi».

9. Sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo'shib yoziladigan harflar qo'shtirnoqqa olinadi: IX «A» sinf, 7-«B» sinf, 147-«A» sonli qaror, 18-moddaning «D» bandi va boshqalar.

10. Baho ballari qo'shtirnoqqa olinadi: «besh», «to'rt», «uch» yoki «o'rta», «a'lo», «yaxshi» kabi.

11. Matn ichida kelgan maqollar, sarlavhalar qo'shtirnoqqa olinadi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Qo'shtirnoq o'zbek yozuvida qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?*
2. *Qo'shtirnoq qachon takroriy qo'sha qo'llanadi?*
3. *Qo'shtirnoqning grafik jihatdan qanday ko'rinishlari bor?*
4. *Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda qo'shtirnoqning vazifasi nimadan iborat?*
5. *Qo'shtirnoq qaysi o'rinlarda qo'llaniladi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalar. T, 1996*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T. 2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.*

20-mavzu. Ikki nuqta va uning qo'llanish o'rinlari.

Tayanch tushunchalar: Ikki nuqta, ikki elementli, aralash qo'llanuvchi tinish belgi, bog'lovchisiz qo'shma gap, umumlashtiruvchi so'z, sitata, muallif gapi, bo'lish belgisi.

Reja:

1. *Ikki nuqtaning o'zbek yozuvida qo'llanish tarixi.*
2. *Ikki nuqtaning bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qo'llanilishi.*
3. *Ikki nuqtaning uyushiq bo'lakli gaplarda qo'llanilishi.*
4. *Ikki nuqtaning boshqa o'rinlarda ishlatilishi.*

Ikki nuqta — ikki elementli tinish belgi. U nuqtaning vertikal holatdagi kombinatsiyasi asosida shakllangan, shuning uchun ketma-ket emas, ustma-ust qo'yiladi, ya'ni (:) shaklida. Ikki nuqta o'zbek tilshunosligida «bayon belgisi», «bayon alomati» deb ham yuritiladi.

Ikki nuqtaning o'zbek yozuvida qo'llana boshlashi XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Ikki nuqta aralash qo'llanuvchi tinish belgilar jumlasiga kiradi, lekin uning gap oxirida ishlatilishi nisbatan ko'p uchraydi. «Men asta pastga qarayman: oriqqina, lekin novcha, bir kishi g'azab to'la ko'zlari bilan bizga tikilib turibdi» (O.) misolida ikki nuqta gap o'rtasida qo'llangan emas: u qo'shma gap tarkibidagi birinchi gapning oxirida qo'llanib, shu gapning keyingi gap bilan ma'lum darajada aloqadorligini ko'rsatadi. Ikki nuqta gap o'rtasida yoki ayrim so'zlardan so'ng qo'llanganda nutqni ixchamlashtirish va uslubiy ravonlik uchun ishlatiladi, ta'kidni bildiradi.

Ikki nuqta gap oxirida qo'llanganda nutqning ma'lum strukturada shakllanganligini anglatadi: ikki nuqta qo'yilgan gap oxiridagi pauza, o'z harakteriga ko'ra nuqta qo'llangan gap oxiridagi pazuga ancha yaqinlashadi. Ikki nuqta ishlatilgan gaplarda ma'lum tugallanish intonatsiyasi bo'lishiga qaramay, ma'no jihatdan fikrning davomlilik sezilib turadi. Shunga ko'ra ular nuqta qo'yilgan gaplardan farqlanadi:— Opanizning adresi bu erda yozilganku: Shahrisabz shahri, Devonbegi ko'chasi, 1- uy. (Gazetadan)

Ikki nuqta sodda gaplarda ham, qo'shma gaplarda ham qo'llanaveradi. Ikki nuqta mohiyati to'la ifodalanmagan, uning ma'nosi va ma'no ottenkalari o'zidan keyingi gaplar vositasida izohlanadigan gaplar oxirida ishlatiladi. Demak, ikki nuqta fikrning to'la tugallanmaganligini, bundagi tugallik keyingi gap orqali ochilishini anglatish uchun qo'llanadi. Bu — uning asosiy vazifasidir.

Yozma nutqdagi fikrning undan keyingi gap vositasida izohlanishi, izohlovchi va izohlanuvchi qismlar o'rtasidagi sintaktik-grammatik munosabatlar turlicha bo'lishi mumkin. Bunday xilma-xil munosabatlar og'zaki nutqda turlicha intonatsiyalar vositasida ifodalanadi. Yuqoridagidek munosabatlar yozma nutqda faqat ikki nuqta orqali ko'rsatiladi. Ikki nuqta qo'llangan matnlar orasidagi semantik, grammatik munosabatlar matnda aniqlashadi. Qiyoslang:

Keng, ulug'vorsan: Hazar, Boltiq, Azov bahrining sening;

Chuv, Dnepr, Sir, Zarafshon, Neva, Don nahrining sening. (U.)

Bunda ikki nuqtadan keyingi qismlar keng va ulug'vorlikning sababini izohlayotir; ulug'vorsan so'zi esa ta'kidlash, uqtirish intonatsiyasi bilan aytiladi.

Ikki nuqtaning boshqa tinish belgilari bilan qo'sha qo'llanishi kam uchraydi. U nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul, ko'p nuqta va vergul bilan birgalikda qo'llanmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida ikki nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratish uchun. Bunda ikki nuqta qo'shma gap tarkibidagi birinchi gapning (qismning) shaklan tutallanish chegarasini ko'rsatib, uning keyingi gap (qism) bilan mazmuniy, grammatik munosabatda ekanligini ko'rsatadi.

Ikki nuqta bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qo'llanganda, uning tarkibidagi gaplarning o'zaro munosabati turlicha bo'ladi:

1) keyingi gap oldingi gapning mazmunini to'ldiradi yoki izohlaydi, aniqlashtiradi. Bunday gaplar maxsus ta'kid intonatsiyasi bilan aytiladi, grammatik jihatdan ya'ni, binobarin kabi nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplarga o'xshaydi. Ikki nuqta qo'yilgan joyda pauza o'rtacha bo'ladi:

Uning she'ri misoli oltin: Ochiyadi o'qigan sayin. (U.) Yana boshqa bir g'azalni boshlaydilar: nay kimi hardamki, bazmi vaslini yor aylaram... (O.)

2) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi oldingi gapning kesimi qaradi, diqqat qildi, ta'kidladi kabi ogohlantirish ma'nosidagi fe'l bilan ifodalangan holda ham ikki nuqta qo'yiladi:

YAkun qildim: ko'z yoshlariga

Ikki bois bor ekan asli. (U.)

Ba'zan o'y, xayol, ichki tuyg'u ham anglashiladi:

Qiz o'ylaydi: shunday oydinga

Ne sababdan yotishim darkorx (U.)

3) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi keyingi gap oldingi gapning xulosasini, natijasini anglatadi. Bunday gaplar grammatik jihatdan natijada, oqibatda, toki, hatto kabi nisbiy so'zlar bilan boglangan qo'shma gaplarga o'xshaydi:

U ketmon uradi: yuzi, ko'ziga,

SHohi ko'ylagiga sachrar suyuq loy. (U.)

Kun bo'ladi; marmar va zilol,

Ko'rinadi poyoni yo'q ko'k. (H. O.)

4) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi keyingi gap oldingi gapning sababini anglatadi. Bunday gaplar grammatik jihatdan chunki, negaki, sababki kabi bog'lovchilar va nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplarga o'xshaydi:

Bahodir deb atagil meni:

Hijroningga berdim-ku bardosh. (U.)

2. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelganda, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: bunda ikki nuqta sanaluvchi bo'laklarga diqqatni jalb qilish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. Ikki nuqta qo'yilgan joyda pauza uyushiq bo'laklar orasidagiga nisbatan cho'ziqroq bo'ladi. Bunda umumlashtiruvchi so'z ta'kidlash intonatsiyasi bilan aytiladi: Qo'zg'aldi butun xalq: ulug' rus, ukrain, o'zbek, yaxudiy. (G'. G'.)

Ba'zan umumlashtiruvchi so'z qo'llanmaydi. Bunda yozuvchi sanaluvchi bo'laklarni alohida ta'kidlash, unga diqqatni jalb qilish, nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun uyushiq bo'laklardan oldin ikki nuqta qo'yadi. Ikki nuqtani bunday qo'llash uslubiy jihatlar bilan ham bog'liq: Bittayu bitta o'g'lim bor: yuvosh, mo'min-qobil, odobli bola, uni hamisha so'kkaning-so'kkan, tiling kesilgur! (O.)

3. Muallif gapi bilan boshqarilgan sitata muallif gapidan so'ng berilsa, undan oldin ikki nuqta qo'yiladi. Sitata har vaqt qo'shtirnoqqa olingan bo'ladi: SHiypondagi shiorlar ko'zimizga yalt etib ko'rindi: «Mirzacho'lni gullab-yashnab turgan vodiya aylantiramiz!» (Gazetadan)

4. Muallif gapidan keyin keladigan ko'chirma nutqni ta'kidlash uchun muallif gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: Keyin, qovog'i soliq, erdan ko'zini uzmay deydi:—«Domlam badjahl, uradi... (O.)

5. Quyidagi so'zlardan so'ng ikki nuqta qo'yiladi:

a) masalan, misol, chunonchi. Bunda bu so'zlar o'zidan keyingi gapning oldingi gap bilan munosabatda ekanligini, uning oldingi gapni isbotlovchi (to'ldiruvchi) qism ekanligini ko'rsatadi.

Agar bu soʻzlar yuqoridagidan boshqa vazifada qoʻllansa, ulardan soʻng ikki nuqta qoʻyilmaydi: Sport ishlarida, masalan, futbolda, chaqqonlik muhim ahamiyatga ega. Bu misolda masalan soʻzi kirish soʻz (toʻgʻrirogʻi! «aniqlovchi» soʻz) sifatida qoʻllangan, shuning uchun ikki tomondan vergul bilan ajratilgan.

b) qaror, reja, mavzu, maqsad, sabab, sababi soʻzlari yakka holda yoki taʼkidlanmagan maʼnosida qoʻllanganda, ulardan soʻng ikki nuqta qoʻyiladi. Bunda yuqoridagi soʻzlardan keyingi gaplar (qismlar) ularning maʼnosini izohlaydi:

R e j a:

1. *Kirish.*

2. *Asosiy qism.*

3. *Xulosa.*

6. Ikki nuqta raqamlar orasida qoʻllanganda quyidagi maʼnolarni bildiradi: a) nisbatlash maʼnosini: «Bunyodkor» — «Paxtakor» oʻyini 2 : 0 hisobida tugadi. Bunday vaqtda ikki nuqta -u (-yu) yuklamalari yoki va bogʻlovchisi oʻrnida qoʻllangan boʻladi. Qiyoslang: Uyin ikkiyu nol hisobida tugadi; b) boʻlish yoki boʻlinish maʼnosini: 6 : 2 (olti boʻluv ikki yoki oltini ikkiga boʻlish). Bunday qoʻllash, asosan, matematik matnlarda uchraydi.

7. Baʼzan ikki nuqta nutqni ixchamlash, uslubiy ravonlik uchun ishlatiladi. Bu holat matbuotda koʻproq uchraydi: MDX: Doʻstligimiz abadiy! Toshkent — Ukraina: ulkan marralar sari. (Gazetadan)

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Ikki nuqta oʻzbek yozuvida qachondan boshlab qoʻllanila boshlagan?*
2. *Ikki nuqtaning asosiy vazifasi nimadan iborat?*
3. *Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplarda qoʻllangan ikki nuqta qanay munosabatlarni ifodalaydi?*
4. *Ikki nuqta yana qaysi oʻrinlarda qoʻllaniladi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Nazarov K. Oʻzbek tili punktuatsiyasisi. Toshkent, 1976.*
2. *Nazarov K. Egamberdiev B. Oʻzbek tili ishora – imlo qoidalari. T, 1996*
3. *Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. T. 2006*
4. *Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T. 2005.*